



81.633.1

M/37 Ziyoda Masharipova

# IFODALI O'QISH PRAKTIKUMI



FF0000018145



81, 633,)

№ 37


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI

ZIYODA MASHARIPOVA

# IFODALI O'QISH PRAKTIKUMI

Bakalavriatning “O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani”  
bilim sohasi talabalari uchun darslik



Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi  
nashriyoti – 2011 y.

## **81.2-5**

Darslikda ifodali o'qishning maqsad va vazifalari, mazmun mundarijasi, badiiy adabiyotning estetik ta'sir kuchini reallashtirishda ifodali o'qishning o'rni va roli kabi masalalar haqida so'z yuritilgan. Ifodali o'qish va notiqlik san'atining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, shuningdek, ifodali o'qishning ijro kechimida qatnashadigan nutq a'zolari harakati va holatining so'zlovchi (ijrochi) tomonidan maqsadga muvofiq tarzda bajarilishi, urg'u, intonatsiya, teinپ, ritm kabi ifodali o'qish vositalari haqida tegishli ma'lumotlar berilgan.

- Ifodali o'qishning she'riy va nasriy janrlardagi o'ziga xos xususiyatlari badiiy asarlar matni tahlili asosida bayon qilingan bo'lib, bunda nazariyaning amaliyotga tatbig'i ham o'z ifodasini topgan.

## **ББК 81.2-5**

**Mas'ul muharrir:**

f.f.d. H.Homidiy

**Taqrizchilar:**

professor H. Jamolxonov

f.f.n. Q.Ergashev

ISBN 978-9943-06-333-4

© «Atisher Navoiy» nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi  
nashriyoti, 2011 y.  
© Ziyoda Masharipova, 2011 y.

## SO‘ZBOSHI

Jamiyat taraqqiyoti va kelajagi yosh avlodning bilim darajasi va ma’naviy kamoloti bilan chambarchas bog‘liq. Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda esa, so‘z san’atining o‘rni va ro‘li beqiyosdir.

Adabiyotimizning durdona asarlarida mujassam bo‘lgan odamiylik tuyg‘ulari, qahramonlarning ma’naviy qiyofasi, ijodkorning badiiy dahozi, ona tilining behad go‘zalliklaridan foydalanish mahorati, avvalo, asarni ifodali o‘qish jarayonida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘ziga xos uslublari asosida yaratilgan xilmia-xil majoziy timsollar, badiiy san’atlar vositasida yuzaga kelgan she’riy asarlarni ifodali o‘qish va tahlil qilish talabidan chuqur bilim va malaka egasi bo‘lishni taqozo qiladi. Binobarin, ifodali o‘qish darslari-da olib boriladigan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar talabalarning bilim doirasini kengaytirish barobarida, nutq madaniyatini o‘stirish, o‘qituvchilik malakasini shakllantirishga ham katta yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, “Jumiki czgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili – bu millatning ruhidir”<sup>1</sup>. Zero, milliy ruhni anglash, ona tilining betakror jozibasini chuqur his qilishni o‘rgatishda, ayniqsa, ifodali o‘qish mashg‘ulotlari eng ta’sirchan yordam bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ifodali o‘qish mashg‘ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, adabiyotning maftunkor ohanglaridan surʼiqlanishiga, czgu va go‘zal tuyg‘ularning qaror topishiga ham yaqindan yordam beradi. Ifodali o‘qish san’atining mohiyati ham insonda hayotiga estetik munosabatda bo‘lish hissim tarbiyalash va o‘stirishdan thomardit.

<sup>1</sup> Milliy imtiyoz g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –Toshkent: O‘zbekiston, 2000, 44 f.

Mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifat sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda til, adabiyot va san'at masalalariga alohiha o'tibor qaratilmoqda. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ja lim to'g'risida"gi Qonunlari, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" va boshqa juda ko'plab hujjatlarda bu yo'nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko'rsatib berilgan.

Pedagogika universiteti va pedagogika institutlarining o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan "Ifodali o'qish praktikumi" darsligi ham davlat hujjatlarida ko'rsatilgan bugungi davr talablari asosida yaratildi. Darslikni yozishda jahon mutafakkirlarining so'z san'ati, notiqlik haqidagi fikr-qarashlariga, shuningdek, ustozlar S.Inomxo'jayev va A.Zunnunovlarning "Ifodali o'qish asoslari", Q.Oripov va M.Obidovlarning "Ifodali o'qish" qo'llanmalariga tayan-dik.

## **IFODALI O'QISH PRAKTIKUMI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

### **Reja**

1. Ifodali o'qish san'atining shakllanishida xalq og'zaki ijodi-ning ro'li.
2. Ifodali nutq san'atini egallashning asosiy vositalari.
3. Ifodali o'qish praktikumi fanining maqsad va vazifasi.
4. Ifodali o'qishning ainaliy ahamiyati.

Badiiy adabiyotning yuzaga kelish tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, ifodali o'qish tarixi ham shu qadar uzoq zamonlarga borib taqaladi. Masmundor va ifodali nutq hamma davrlarda ham kishilarni o'ziga jaib etib ijtimoiy hayotda alohida o'rinn egallab kelgan.

Ifodali o'qish, avvalo, xalq san'atidir. Chunki badiiy adabiyot dastavuyl xalq og'zaki ijodi shaklida paydo bo'lgan. Xalq yaratgan asarlarining keng tarqalishida esa og'zaki ijrochilik san'ati muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'shiq, ertak, doston, qissa kabi og'zaki adabiyot namunalarini yaratgan xalq namoyandasasi (ertakchi, qissaxon, baxshi) bir paytun o'zida ham ijodkor, ham ijrochi edi. Binobarin, asrlar davomida yaratilgan assona va rivoyatlar, maqol va matallar, qo'shiq va dostonlar, o'zida ijrochilik, ifodali nutq san'ati tufayligina bizgacha yetib keldi. Xalq yaratgan asarlar qanchalik donishmandlik va san'atkorlik mahsuli yuzaga kelgan bo'lsa, ularning og'zaki ijrochiligi ham shu qador mukhorat va san'atkorlikni talab qilgan.

Osdin tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarini, inson qalbidagi g'am-andun, shodlik va quvонч tuyg'ularining badiiy ifodasi xilfutida maydonga kelgan jamiki adabiyot namunalarini xalq san'atkorlari (qo'shiqchi, roviy, qissaxon, baxshi) shunchaki jo'n, badiiy rivoj Vositalarisiz, xilma-xil ovoz tovlanishlarisiz, shukuhsiz bir tarzda ifodai qoldirishda edi, ehtimol bu asarlar uzoq saqlanib qolmagan bo'iur edi.

Ifodali o‘qish san’ati o‘tmish zamonlarda og‘zaki ijodda qanday ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, yozma adabiyotda ham shu qadar muhim o‘rin tutadi. Zero, badiiy adabiyotning estetik ta’sir kuchi ifodali o‘qish jarayonida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi.

Ifodali o‘qish, ayniqsa, asarning g‘oyaviy mazmunini chuqr tushunishda, badiiy xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlarni ifodali o‘qish inson ongi va hissiyotiga ta’sir etib, axloqiy-estetik tuyg‘ularini shakllantirishga, ma’naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

To‘g‘ri, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammal yaratilgan har qanday asar og‘zaki ifodali nutqsiz, ovoz chiqarmasdan mustaqil o‘qilganda ham o‘zining axloqiy-estetik jihatdan ta’sir kuchini yo‘qotmaydi, insonni tarbiyalash vazifasi kamayib qolmaydi. Lekin ifodali o‘qish jarayonidagi inaftunkor ohang, xilma-xil ovoz tovlanishlari, jozibador intonatsiya kabi vositalar badiiy asarning emotSIONAL ta’sir kuchini yanada oshiradi, eshituvchiga beqiyos zavq-shavq bag‘ishlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, so‘z san’ati bilan shug‘ullanuvchi kishilar, ayniqsa, inson ta’lim-tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan muallimlar notiqlik san’atini, ifodali nutq mahoratini puxta egallagan bo‘lishlari zarur. Holbuki, o‘qituvchining butun siymosi – xatti-harakatlaridan tortib, gapirish uslubigacha yosh va tajribasiz, taqlidchan o‘quvchi uchun jonli namuna hisoblanadi. Shunday ekan, Respublikamiz Prezidenti ta’kidlaganidek, “O‘z fikrini ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan inutaxassisni avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”<sup>1</sup> “...Kishining martabasini so‘zi bila bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zming ostida pinhondur”<sup>2</sup> – deydi unsurulmaoliy Kaykovus. Zotan har bir kishining kim ekanligini, uning bilim darajasini so‘zlariga qarab bilib olish mumkin. Donishmandlar nazdida, inson so‘zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi. Binobarin, yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o‘ynovchi muallimning ravon va ifodali nutqi, go‘zal axloqi beqiyos ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ajdodlarimiz so‘z san’atining, ayniqsa, og‘zaki ijrochilik san’atining inson ruhiga ko‘rsatadigan ta’siriga qadim zamonlardan boshlab katta e’tibor bilan qaraganlar. Shuning uchun ham, o‘rtal-

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. – Toshkent: 1997. 9-bet.

<sup>2</sup> Kaykovus. Qobusnomalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. 45-bet.

asrlarda adabiy talaffuz normalarini o'rgatuvchi "ilmi tajvid" jonli nutq asoslarini o'rgatuvchi "ilmi kalom", ilmiy va adabiy bahsni o'rgatuvchi "ilmi munozara" kabi fanlar o'qitilgan. Natijada maxsus bilim olgan har bir savodli kishi ayni paytda ifodali o'qish asoslarini egallagan so'z ustasi ham bo'lib yetishgan. Shu boisdan ham, o'tmishda badiiy so'z ijrochiligining dostonxonlik, qissaxonlik, g'azalxonlik kabi turlari keng tarqalgan. O'qimishli kishilar tomonidan o'tkazilgan she'rxonlik anjumanlarida so'z san'atining yuksak namunalarini og'zaki ijro – ifodali o'qish vositasida chuqr tahiil qilingan.

Ifodali gapirish yoxud ifodali o'qish shunchaki o'z-o'zidan shakllanib qoladigan oson jarayon emas. Buning uchun, dastavval, insonning o'zida tug'ma iqtidor, qobiliyat bo'lishi lozim. Afsuski, hamma ham ifodali nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lavermaydi. Lekin har bir kishi o'z nutqi ustida muntazam ishlashi, to'xtovsiz mashqlar qilishi natijasida ifodali nutq qobiliyatini shakllantirishi mumkin. Bunga mashhur notiq Demosfenning ibratli hayot yo'li va faoliyati yorqin misol bo'la oladi. Hatto ba'zi tovushlarni to'g'ri tilaffuz qilishga qiynaladigan, ko'pchilik oldida o'zini erkin tuta olmaydigan Demosfen keyinchalik, tinimsiz mehnat va mashaqqatlar orqali buyuk notiq bo'lib yetishgan.

Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov "O'qituvchi nutqi madaniyati" kitobida nutqning ifodaliligi haqida fikr-mulohaza yuritib shunday deydi: "Tilda ifodalilikni yuzaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ham ko'p va xilma-xil. Bunday imkoniyat hech bir ishlansiz tilning barcha sathlarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so'z suzmasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya, uslub labilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bu manbalarning mobiyati, tabiatи va ularni unumli ishga solish usullaridan yetarli xabardor bo'lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta'minlashga qiyalmaydi"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, ifodali nutq vositalarini puxta o'zlashdirish, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini chuqr o'rganish imopligina, ifodali o'qishda ma'lum natijalarga erishish mumkin.

Xo'sh, ifodali nutqni o'rganish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? Ifodali o'qish o'zi nima? Sodda qilib aytganda, "Ifodali o'qish adabiy asarni tushunarli va ta'sirchan o'qish demakdir. Bu o'qish

<sup>1</sup> Nizomiddin Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007, 164-bet.

san'ati yod olingan matnni ifodalai o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodalai o'qishda fikrlarni yanada silliq, aniq, go'zal shaklda talqin etish uchun emotsional vositalardan unumli foydalaniladi. Ifodalai o'qishning badiiy emotsional bo'lishi uchun o'quvchi-ijrochi asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim".

Ifodalai o'qishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonda tuyg'u va kayfiyatlar hosil qiladi, aniqrog'i, voqeikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi. Ifodalai o'qish jarayonida asar voqealari "jonlanadi", qahramonlar "tilga kiradi". O'quvchi bir vaqtning o'zida ham muallif, ham qiyofa (obraz) yaratuvchi, ham ijrochi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ifodalai o'quvchi ma'lum darajada aktyorlik san'atidan ham xabardor bo'lishi lozim.

Ifodalai nuq'san'atini o'rganishning muhim vositalardan biri badiiy asarlarni ko'proq mutolaq qilishdir. Asarning mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter xususiyati, maqsad va intilishlari chuqur o'rganiligidagina og'zaki talqinda asar ruhiga mos obhang va intonasiya paydo bo'ladi. Badiiy asarlarni mulolalar qilish o'quvchining dunyoqarashimi kengaytirish barobarda adabiy tilni puxta o'zlashtirishga, ifodalai o'qish san'atini egallashga yaqindan yordam beradi.

Adabiyot hayotni in'ikos ettirar ekan, u insonnинг o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini ham bajaradi. O'sha ko'zgu orgali har bir kishi o'zining yaxshi va yomon tomonlarini ko'radi, qusur va kamchiliklardan forig' bo'lishga, ruhan tozarishga intildi. Forig' lanish yoxud ruhan tozarish buyuk faylasuf Aristotel talqiniga ko'ra, san'atning o'z oldiga qo'ygan bosh maqsaddir. San'at, xususan, adabiyot insomni ziddiyatlar asosiga qurilgan, hayot atalmish mo'jizaning nima ekanligini anglashga o'rgatadi, yovuzlikka nafsat, ezzulikka muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi va, shu tarica, inson ma'naviy olamini go'zallashtiradi. Mana shu vazifalarni ado etishda ifodalai o'qish san'ati badiiy adabiyotning eng yaqin ko'makchisi hisoblanadi. Zero, badiiy asardagi nafoSAT va go'zallikni chuqur his qilish va shu orgali axloqiy-estetik tuyg'ularni shakllantirish ifodalai o'qish praktikumi fanining asosiy vazifasidir.

Aidabiyotning barcha tur va janmlaridagi badiiy asarlari ifodalai o'qish praktikumi fanining o'rganish ob'ekti bo lib xizmat qiladi. Ifodalai o'qish deganda, faqat lirik turga mansub asarlarga emas, balki nas-

riy va dramatik turdag'i asarlarni o'qish ham nazarda tutiladi. Badiiy asarlarni ifodalai o'qish ijrochidan alohida iqtidor va mahoratni talab qiladi. Zero, adabiy asarning badiiy xususiyatini, unda ilgari surilgan g'oyalar, muallif dumnoqarashi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodalai o'qish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ifodalai o'qish mohiyatan kishining his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon hisoblanadi. Badiiy adabiyot insonnинг etiroslar va tuyg'ular olamiga ta'sir qilib uni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi va oxir-oqibat kamolotga yetaklaydi. Shu bo'sdan ham badiiy adabiyot bilan og'zaki ijiro - ifodalai o'qish san'ati asrlar davomida yonna-yon yashab, insonnинг ma'naviy hamrohi bo'lib kelgan. Binobarin, badiiy adabiyot va ifodalai o'qish san'ati chambarchas bog'liq holda insonni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashda eng ta'sirchan vosita hisoblanadi. Zero, bugungi kunda mammakatimizda amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning markazida hain yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalash vazifasi ustuvor masalalardan biri bo'lib turibdi.

### Tayanch tushunchalar

Ifodalai o'qish - axloqiy-estetik tuyg'ularni shakllantirish. Ilmi tajvid - o'rtalarda adabiy talaffuz me'yorlarini o'rgatuvchi fan bo'lgan. Ilmi kalom - joni nutq asoslarini o'rgatuvchi fan. Ilmi munozara fani ilmiy va adabiy bahsni o'rgatgan.

### Savol va topshirishlar

1. Ifodalai o'qish san'atining yuzaga kelishida roviy, qissaxon va baxshilar qanday ro'rlar o'ynagan?
2. Ifodalai nutq san'atini o'rganishning asosiy omillari mimalardan iborat?
3. "... Har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondur" deganda nimani tushunasiz?
4. Ifodalai o'qish san'atini o'rganishdan asosiy maqsad nima?
5. Barkamol avlod tarbiyasida ifodalai o'qish san'atining qanday ahamiyati bor?

<sup>1</sup> S. Inomxo'jayev, A. Zammunov. Ifodalai o'qish asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1978. 58-bet.

### **Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poy-devori. –Toshkent: 1997.
2. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
3. N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
4. S.Inomxo‘jayev, A.Zunnunov. Ifodali o‘qish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

### **O’RTA OSIYODA NOTIQLIK SAN’ATI**

#### **Reja**

1. Ifodali o‘qish va notiqlik san’ati taraqqiyotida “Avesto”ning o‘rni.
2. O‘rta Osiyoda voizlik va uning turlari.
3. Ifodali o‘qish va suxandonlik haqida O‘rta Osiyo mutafakkirlarining fikr-qarashlari.
4. “Majolis un-nafois”da nomlari zikr etilgan voizlar.

Ajdodlarimiz qadim zamonalardan boshlab so‘z san’atining, xususan, og‘zaki ijrochilik san’atining inson ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siriga juda katta e’tibor bilan qaraganlar. Shu ma’noda, ifodali o‘qishi san’atining tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi.

O‘rta Osiyoda ifodali o‘qish san’atining taraqqiy etishiida “Avesto”, “Bundaxishn”, “Dinkard” kabi diniy xarakterdagi asarlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Inson axloqini poklashga qaratilgan ushbu asarlar ko‘proq og‘zaki ijrochilik vositasida xalq orasiga kirib borganligi ma‘lum. Jumladan, “Avesto”ning asosiy mohiyatini tashkil etgan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” ta’limotini xalq o‘rtasida targ‘ib qilib, odamlar qalbida ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otishda kohinlarning xizmati beqiyos edi. Kohinlar faqat din targ‘ibotchilari sifatidagina emas, balki ifodali so‘z sehri bilan mo‘jizalar ko‘rsatuvchi san’atkor ijrochilar sifatida ham shuhrat qozonganlar. Ular “Avesto”dagi ibodat qo‘shiqlarini, Ahura Mazda so‘zlarini, afsona va rivoyatlarni yorqin

nutq, ifodali so‘z va jozibador ovoz bilan ijro etib xalq ommasini o‘z g‘oyalariga ishontirganlar.

Badiiy so‘z san’ati, shu jumladan, ifodati o‘qish san’ati xalqning umumtaraqqiyot tarixiga bog‘liq holda rivojlanib bordi. Jamiyat taraqqiyoti o‘rtaga qo‘ygan talablar hamda mavjud shart-sharoit tufayli, IX–XV asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Mana shu davrlarda Qur’oni Karim targ‘ibi bilan bog‘liq holda, voizlik san’ati rivojlandi. Voizlik san’atining taraqqiy etishi esa, ifodali o‘qish san’ati tarixida muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, Qur’omi Karim o‘z zamonasining nafis adabiy usuli saj’da vahiy qilingan bo‘lib, u so‘z san’atining oliv namunasi hisoblanadi. Qur’oni Karimni o‘qish voizdan juda katta ilmiy salohiyatni, ayni paytda, yoqimli ovoz sohibi bo‘lishni ham talab qilardi. Shu boisdan ham Qur’on suralarini maftunkor qiroat, jozibali ohangda o‘qishga o‘rgatuvchi “Ilmi balog‘a” san’atiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy “Geodeziya” asarining kirish qismida shunday deydi: “**Arab nutqida halog‘aning mavjudligi Qur’on targ‘ibotida muhim abamiyat kasb etadi. Balog‘a arab nutqining ziynatidir!**”.

Voizlik (notiqlik) san’ati O‘rta asrlarda juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo‘lib, umumdavlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Voizlik san’atinmg dabirlik, xatiblik, muzakkirlik kabi turlari mavjud bo‘lib, ba’zi voizlar dabirlik – davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan yozishmalarni o‘qish va yozib berish bilan, ba’zi voizlar xatiblik – juma kunlari Qur’oni Karim suralari asosida xalqni odob-axloqqa chaqirish bilan, ba’zilari esa muzakkirlik – tarixiy voqeа-hodisalarни gapirib berish bilan shug‘ullanganlar.

Qadimda xalq oinmasi oldida nutq so‘zlovchi kishi voiz, uning nutqi esa va’z deb yuritilgan. Voizlik nihoyatda sharaflvi va, ayni paytda, mas’uliyatli kasb bo‘lgan. Omma oldiga chiqib bir necha soatlab nutq so‘zlovchi kishi tinglovchilarning tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazishi, ishonchishi, so‘z sehti bilan ularni to‘lqinlantirishi uchun juda katta bilim va iqtidorga, fasohat va mahoratga ega bo‘lishi lozim edi. Shu boisdan minbarga chiqib so‘zlovchi kishilarning hammasi ham voiz degan sharaflvi nomga ega bo‘lavermagan.

<sup>1</sup> Beruniy A. Tanlangan asarlari. III to‘m. – T.: Fan, 1982. 64-bet.

So'z ijrochiligi san'atiga asoslangan voizlik va suxandonlik, uning inson hayotida tutgan o'mni haqida Kaykovusning "Qobusnomalar", Nizomiy Aruziy Samarqandiyining "Nodir hikoyatlar", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyining "Dah majlis", "Sahifai shohi", Faxriddin Ali Safiyning "Latoif ut-tavoif" kabi asarlarida qimmatli fikr-mulohazalar bayon etilgan. Jumladan, Alisher Navoiy voizlar haqida shunday fikrlarni yozadi: "Va'xon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin, to'la kirgan odam esa, yengil tortib boli qaytsin. Voiz olim va balol ish ko'ruchchi bo'lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo'ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o'zi qilmasa, uning so'zlari hech kimga ta'sir etmaydi va foyda keltirmaydi"<sup>1</sup>.

Ushbu fikrlar zamiriga juda katta ibrat va hikmat ma'nolari singdirilgan. Demak, xalqqa pand-nasihat aytib, ularni to'g'ri yo'lga boshlovchi voiz nafaqat ilmi va chirolyi so'zlari bilan, balki o'zming yuksak axloqodobi, halol hayot tarzi bilan ham boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

Buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi yetishib chiqqan, jahonni ilm-ma'rifat nuri bilan yoritgan uyg'onish davri deb yuritiladigan zamonalarda O'rta Osiyoda so'z san'ati, shuningdek, notiqlik san'ati ham taraqqiy etdi. Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Abulqosim Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar ilm-fanning turli sohalariga oid kashfiyotlar bilan bir qatorda, notiqlik san'ati asoslarini ham yaratdilar.

Abu Nasr Forobi ko'plab asarlarida so'z san'atiga doir qimmatli fikr-mulohazalar bildirish bilan cheklanmasdan suxandonlik nazariyasi, notiqlik san'ati ilmiga doir maxsus "Kitob al-xitobat" risolasini ham yozgan. Jumladan, Forobi chuqur mantiqiy asosga ega bo'lgan yorqin nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiq fanlarining ahamiyati haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'llim berish, ta'llim olisli, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substantsiya – narsalar) va aktsidentsiya (hodisalar)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.

Ikkinci ilm grammaticadir; u jismlarga berilgan ism (nom)

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983, 32-bet.

larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aktsidentsiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarни ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri, nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz<sup>1</sup>. Forobiyning ushbu fikrlari to‘g‘ri nutq tuzish va uni og‘zaki ijro etishni o‘rganish uchun juda chuqur va har tomonlama bilim olish muhim ekanligini ko‘rsatadi.

“ ... Xullas, yaxshi nutq uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bularidan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta’sir qilmay iloji yo‘q”, – deb yozadi Beruniy<sup>2</sup>. Forobiy, Beruniy kabi allomalarning to‘g‘ri nutq tuzish masalasiga bu qadar e’tibor bilan qarashlari X asrlardayoq, yorqin nutq chiroqli gapirish, ifodali o‘qish san’atining taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Ibn Sinoning “She‘r san’ati”, Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar”, “Geodeziya” va boshqa asarlari tarkibida keltirilgan mu-kammal nutq tuzish haqidagi qimmatli fikrlari bugungi kunimiz uchun, ayniqsa, ahamiyatlidir. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonulug‘otit turk”, Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab”, “Notiqlik assoslari” kabi asarlari so‘z san’ati ilmiga bag‘ishlangan bebaho ma’naviy xazina hisobianadi. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi allomalar o‘z asarlarining butun-butun boblarini so‘zning ilohiy ne’mat ekanligi, so‘zning mo‘jizali qudratini ko‘rsatishga bag‘ishlaganlar. Jumladan:

Zakovat ko‘rki so‘zdur, bu tilning ko‘rki so‘zdur,  
Kishlning ko‘rki yuzdur, bu yuzning ko‘rki ko‘zdur.

(Yusuf Xos Hojib)

Ma’dani inson gavhari so‘zdurur,  
Gulshani odam samari so‘zdurur.

(Alisher Navoiy)

kabi hikmatli misralarni bitdilar.

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Risolalar. –Toshkent: 1975, 54-bet.

<sup>2</sup> Beruniy. Tanlangan asarlar. III to‘m, 64-bet.

O'ra asrlarda Bahoudin Valad, Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Mu'iniddin Voiz, Voiz Hiraviy, Zayniddin Vosify kabi notiqlik san'atini puxta egallagan so'z ustalari yetishib chiqdilar. Bu ulug' zotlar o'zlarining ibratlari hayot tarzi bilan imon-e'tiqod, imma'mrifat, axloq-odob haqidagi beqiyos o'gitlari bilan minglab insonlar qalbini ma'rifat nurlari ilá munavvar qilishga erishdilar.

XV-XVI asrlarda notiqlik san'ati turlari, qonun-qoidalarini aks ettiruvchel bir necha qo'llannmalar vujudga keldi. Ayniqsa, Muhammad Rafi' Voizning "Abvob ul-jimon" ("Jannah eshkali"), Voiz Qazviniyning "Zilloli maql" ("Maql nafosati"), Voiz Shirvoniyning "Ahsan ul-ahodis" ("Nafis kalimalar"), Quraysh Sindiyuning "Anis ul-voizin" ("Voizlar do'sti"), Mulla Kalon Voiz Samarcandining "Ravzat ul-voizin" ("Voizlar bo'stoni"), Qozi O'shiyning "Miftoh un-najot" ("Najot kaliti") kabi asarlari keyingi davrlarda yetishib chiqqan notiqlar uchun asosiy daslurulamal bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, Alisher Navoyning "Majolis un-nafois", Zayniddin Vosifyingning "Badoye' ul-vaqoye", Xondamirning "Makorim ul-axloq" kabi asarlarda ham voizlik san'ati haqida qimmatli fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Tariximizda nurli iz qoldirgan ulug' allomalar tomonidan notiqlik san'ati haqida maxsus asarlар yaratilishi, so'z ijrochiligiga bu qadar katta e'tibor berilishi qadim-qadimdan O'rt Osiyoda ifodalni nutq san'atining juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lgan davlat ahamiyatiga molik ish ekanligidan dalolat beradi.

**Mavlono Irshod.** XV asrda Hiroda yashab - faoliyat ko'rsalgan voizlardan biri Mavlono Irshoddir. U o'zining donishmandligi va so'zga chechanligi bilan el nazariga tushgan. Mavlono Irshod faqat xalqqa va'z aytilish bilangina cheklanib qolmaedan, rasmiy davlat ishlari da ham qatnashib, qo'shni mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlashda munosib xizmatlar qilgan. Faxtiddin Ali Safiyyining "Latoyif ut-tavoif" asarida hikoya qilinishicha, Sulton Husayn Boyqaro rasmin davlat ishi yuzasidan muzokara olib borish uchun Sheroza va kil yubormoqchi bo'ladi. Saroy a'yonlari o'zaro maslahatlashib, bunday nozik va mas'uliyatti vazifani saqat Mavlono Irshod bajara oladi, degan xulosaga kelishadi.

Mavlono Irshod Sheroza borib kutilgantidek, rasmiy ishlarni oz fursatda ijobjiy hal qilishga erishadi. Uning notiqlik mahoratiga qoyil qolgan Shoh Shujo' Irshodga nuxsat bermay, bir majlis qurib keyin ketishni iitmos qiladi. Majlis juma kuniga belgilanadi. Juma namozidan keyin Masjidi jome'ga yig'ilgan xalq oldida Mavlono Irshod shunday ehtirosli nutq so'zlaydiki, odamlar uning ta'sirchan so'zlaridan junbushga kelib, ko'z yoshlarni tiya olmay qolishadi. Buni ko'rgan voiz notiqlik mahoratining yana bir qirrasini namoyish etib, o'z nutqida keskin burilish yasaydiki, endi hamma birdaniga ko'z yoshi aralash kula bosholaydi. "Latoyif ut-tavoif" asarida keltirilgan bu voqeя Mavlono Irshodning odamlar ruhiyatini chuqur tushunadigan, nihoyada mahratli so'z ustasi bo'lganidan dalolat beradi.

**Qozi O'shiy.** O'zining purhikmat so'zlarini va jarangdor ovozi bilan xalqqa maqbul va manzur bo'lgan voizlardan yana biri Qozi O'shiydir. Mavlono asli farg'onalik bo'lib, O'sh shahrida qozilik lavozimida ham ishlagan. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan Qozi O'shiy jamiyatda yuzaga keladigan chigal muammolarini yechishda, odamlar qalbiga yo'l topishda benazir zot bo'lgan. Bu haqida Faxtiddin Ali Safiyyning "Latoyif ut-tavoif" asarida quyidagi voqeя hikoya qilinadi: "Seiston viloyatining xalqi qattiqqo'lligi, hatto gadog'ga ham sadaqa bermasligi bilan nom chiqqargan ekan. Qozi O'shiy esa mana shu xalqning ko'ngil qulfini so'z kaliti vositasida ochishga erishadi. Ana shundan keyin shahar qozisidan ruxsat olib, juma kuni masjidi jome'da xalqqa va'z aytadi. U o'z nutqida xalqning ichida yashaydi; ularning ruhiyatini o'rganadi, odamlarni qiyayotgan muammolarni aniqlaydi. Ana shundan keyin shahar qozisidan ruxsat olib, juma kuni masjidi jome'da xalqqa va'z aytadi. U o'z nutqida xalqning aymil dildagi gaplami, ularni qiyayotgan muammolarni shunday aniq va ravon bayon etadiki, xalq topgan-tutganimi minbar ostiga keltirib tashlaydi. Mavlono O'shiy mutqi uchun haq olmasligini, va'z va nasihat faqat savob uchun, odamlarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun aytishini tushuntirganda Seiston xalqining voziga bo'lgan hurmat va muhabbati yanada oshadi. Mana shu voqeadan keyin bu xalqning xasis emas, aksincha, olijanob ekanligi, faqat o'z davrining ba'zi muammolariga javob topa olmay qiyayotganlari ma'lum bo'ladi.

**Xoja Muayyad Mehnagiy.** "Majolis un-nafois" tazkirasida Xoja

Muayyad Mehnagiy nomi o'z zamonasining yetuk notiqlaridan biri

sifatida tilga olinadi. Dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallagan bu kishining va'zlar hamisha jo'shqin o'tgan. Mehnagiy va'zlarining asosini imon-e'tiqod, dinu diyonat, axloq-odob haqidagi umuminsoniy masalalar tashkil etgan.

U o'zining pandu nasihat so'zları bilan zamondoshlarini ezbilikka da'vat etishdan charchamagan. Voiz o'z nutqini hamisha Qur'on hikmatlari va hadislar, hikoyat va rivoyatlar bilan bezab, ularni tinglovchilarning didi va saviyasiga muvofiqlashtirib dilkash ohangda bayon etgan. Shuning uchun ham, uning va'zları xalq tomonidan qizg'in kutib olingan, babs-munozaralarga sabab bo'lgan. Komil ma'rifat egasi Xoja Muayyad Mehnagiy o'z davriming fidoiy murabbiysi sifatida boshqalar ni ham kamolot sari yetaklashga intilgan. Shu boisdan Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da taniqli adiblar va shoirlar qatorida Xoja Muayyad nomini ham hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. **"Xoja Muayyad Mehna – Hazrat Shayx Abusaid Abulkayr (quddisa sirihu)ning nabiralaridindur. Yillar mozor boshida shayx erdi va zohir ulumin takmil qilib erdi va va'z majolisi bag'oyat garm va pursho'r voqe' erdi. Va Xoja samo'mi dag'i muassir qilur erdi. Salotin Xojani ta'zim qilur erdi"**<sup>1</sup>.

**Mavlono Riyoziy.** "Majolis un-nafois" tazkirasining uchinchi majlisida Riyoziy haqida shunday ma'lumot keltirilgan: **"Mavlono Riyoziy – Zova muhavvilotidindur. Atvori mutualavvin kishidur. Ul viloyatning qozisi erdi. Ul amrg'a munofiy ishlar andin sodir bo'lib, ma'zul bo'ldi va qayd va musodalar tortdi va base zahmatlar ko'rdi, hamul mansab muddaosig'a ammo tuyassar bo'lmadi. Va'z ayтиб minbarda o'z ash'орин o'qub, yig'lah vajdu hol qilur"**<sup>2</sup>.

Hazrat Navoiyning ushbu fikr-mulohazalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Mavlono Riyoziy bir necha muddat Zova viloyatining qozisi bo'lgan. Ammo o'z davri xukmronlarining siyosatiga qarshi borgani uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilib, ancha zahmatlar chekkan. Mavlono Riyoziy davrining taniqli so'z ustasi sifatida o'z va'zlarida yuksak insonparvarlik qarashlarini ilgari surgan. Jamiyatda ro'y beradigan axloqsizlik, zo'ravonlik kabi g'ayriinsoniy hodisalarga befarq

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII to'm.–Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966, 42-bet.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII to'm.–Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966, 101-bet.

qaray olmagan. Binobarin, hukmronlarmi insofga chaqirish e'tiqodsiz va nopoq kimsalarni haq yo'lga hidoyat etish Mavlono Riyoziy va'zlarining asosiy mazmunini tashkil etgan. Riyoziy voiz, ayni paytda iste'dodli shoir ham bo'lgan. Shu boisdan ham xalqqa va'z aytayotganda ba'zan o'z she'rлarini hissiyot bilan o'qib, eshituvchilarni ham to'lqinlantirgan, ularda xayrixohlik va hamdardlik tuyg'usini uyg'ota olgan. Hayoti va faoliyatini ezgulikmi targ'ib etishga bag'ishlagan mavlono Riyoziy fidoiy murabbiy sifatida xalq qalbidan chuqr joy olganligi sababli ham, Alisher Navoiydek zotning nazariga tushgan.

### Tayanch tushunchalar

Kohimlar – "Avesto" targ'ibotchilar. Qadimgi notiqlar.

Voizlar – axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy mavzularda nutq so'zlovchi ma'rifat targ'ibotchilar.

Voizlik turlari: dabirlik, xatiblik, muzakkirlik.

Substantsiya – tub mohiyat.

Aksidentsiya – tasodifiy hol, hodisa; tub mohiyati e'tibori bilan uncha ahamiyati bo'lmasagan juz'iy xususiyat.

### Savol va topshiriqlar

1. Ifodali o'qish san'atining taraqqiy etishida "Avesto" qanday o'rinn tutgan?


2. Qur'oni Karimni qiroat bilan o'qish san'ati va uning imson ruhiyatiga ta'siri haqida gapiring.

3. Og'zaki so'z ijrochiligiga asoslangan voizlik san'ati haqida qaysi manbalarda ma'lumot berilgan?

4. Alisher Navoiy va'z aytuvchi haqida nima deydi, siz bu fikrim qanday izohlaysiz?

5. Abu Nasr Forobiy mantiqiy asosga ega bo'lgan to'g'ri va yorqin nutq tuzishda, asosan, nimalarga e'tibor qaratadi?

6. O'tmishtda ifodali o'qish yoxud notiqlik san'atiga doir qanday asarlar yaratilgan?



## **Adabiyotlar:**

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. III to‘m. – Toshkent: Fan, 1982.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomi-dagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.
3. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. – Toshkent: 1975.
4. Qobiljon Oripov, Mahmuda Obidova. Ifodali o‘qish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.

## **HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING HAYOTI VA IJODI**

### **Reja**

1. Husayn Voiz Koshify mashhur axloq targ‘ibotchisi va adib.
2. Husayn Voiz Koshify – Alisher Navoiy va Xondamirlar nigohida.
3. “Axloqi Muhsiniy”, “Futuvvatnomai sultomy...” asarlarida so‘z san‘ati va so‘zlovchi madaniyati haqidagi fikr-mulohazalar.

Kamoliddin Husayn Voiz Koshify XV asrda yashab ijod etgan atoqli olim va adib, axloq va ma‘rifat targ‘ibotchisidir. Uning nomi o‘z zamонидайоq mashhur bo‘lib el og‘ziga tushgan edi.

Husayn Voiz Koshify taxminan 1440-yillarda Sabzavor viloyati ning Bayhaq nohlyasida tavallud topgan. Dastlabki ta’limni o‘z vatanida olgan bo‘lg‘usi olim keymchalik Nishopur, Mashhad shaharlarida o‘qishni davom ettirgan. XV asrning ulug‘ allomasi Hazrat Jomiyning nazariga tushgan Koshify uning tavsiyasi bilan o‘sha davrning madaniy markazlaridan bo‘lgan Hirot shahriga keladi.

Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy qiziqishi va salohiyati bag‘oyat keng bo‘lib, u ilmi nujum, tafsir, falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, fiqh bo‘yicha xilma-xil asarlar yozib qoldirgan. Uning “Axloqi Muhsiniy”, “Anvori Suhayliy”, “Risolai Xotamiya”, “Tafsiri Husayniy”, “Javohir ut-tafsir”, “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”, “Ravzat ush-shuhado” (“Shahidlar bog‘i”), “Sahifai shohi” kabi asarlari xalq o‘rtasida keng tarqalgan.

Husayn Voiz Abdurahmon Jomiyning ixlosmand muridi, shogirdi si-

fatida ham, islom diniming targ‘ibotchisi sifatida ham el o‘rtasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan. So‘zamol va zakiy, har tomonlama bilimdon bu zot ayni paytda Alisher Navoiyning do‘sti va muxlisi ham edi. Shu boisdan o‘zming ikkita tafsiri, ya’ni “Tafsiri Husayniy” va “Javohir ut-tafsir at-tuhfat ul-amir” nomli asarlarini Navoiyga bag‘ishlaydi.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasingin to‘rtinchisiga majlisida Husayn Voiz Koshify ijdiga yuqori baho beradi. “Mavlono Husayn Voiz – Koshify taxallus qilur. Sabzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahrdadur va mavlono zufunun va rangin va purkor voqe’ bo‘lubtur. Oz fan bo‘lg‘aykim, daxli bo‘limg‘ay. Xususan, va’z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor”<sup>1</sup>.

Alisher Navoiyning zamondoshi mashhur tarixchi Xondamir esa, “Habib us-siyar” nomli kitobida Voiz Koshify faoliyati haqida shunday ma’lumot beradi: “Voiz nujum ilmi va inshoda o‘z zamonasining yagonasi edi va ko‘p ilmlar bo‘yicha namunalar yaratib, asosli gaplar aytib, haqli da‘volar qilardi. Chiroyli ovoz va dilkash ohangda va’z va nasihatlar bilan shug‘ullanardi”. Darhaqiqat, va’z va pandu nasihat so‘zlarini aytib, xalqni to‘g‘ri va haq yo‘lga boshlashda Husayn Voiz Koshify o‘z zamonasining yagonasi bo‘lgan. Shuning uchun unga “voiz” degan unvon berilgan. O‘rta asrlarda voizlik katta san’at hisoblanardi, ulkan maydonlar, masjid va madrasa sahnalarida odamlar yig‘ilishib, donishmand allomalar, ulamo va davlat arboblarining va’zlarini tinglaganlar.

Husayn Voiz Koshify har juma kuni Hirotning masjidi jome’sida va’z aytgan. Minglab odamlar uning nasihatlarini tinglab, o‘zlariga olam-olam ruhiy ozuqa olganlar. Koshify va’zlarining shuhratim ta’milagan sabab, avvalo, uning Qur’oni Karim suralarini yoddan bilishi, hadislarni, g‘oyat ko‘p hikoya va rivoyatlarni misol keltirib, bularni tinglovchilarining saviyasiga muvofiqlashtirib, yoqimli va tu’sirchan usulda bayon etib, zamona voqealariga bog‘lab sharhlashida bo‘lgan.

Umrini yurt osoyishtaligi va xalq manfaatlariga bag‘ishlagan bu zot odamlarni halol yashashga, to‘g‘riso‘z bo‘lishga, dinu imon yo‘lidan

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. O’n besh tomlik. O’n ikkinchi to‘m. // Majolis un-nafois. – Toshkent: O‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966, 42-bet.

chiqmaslikka chaqirar va o'zi ham bunga qattiq amal qilardi. Koshifyi katta olim va adib bo'lishiga qaramasdan, juda oddiy va kamtarona hayot kechirgan; ayni paytda juda nozik tabiatli kishi bo'lgan. Shu munosabat bilan Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida qiziq bir voqeani hikoya qiladi: Husayn Voiz Koshifyi va'z aytadigan minbar oldiga shaharning sho'xlaridan biri Hofiz Sheraziyning quyidagi baytini yozib ketadi:

Voizon chun jilva dar mehrobu minbar mekunad,  
Gar ba xilvat meravand on kori digar mekunand.

(Voizlar minbar ustida, mehrob oldida jilva qilib so'zlaydilar, xilvatga borgandan keyin esa, boshqa ishlar bilan shug'ullanadilar)

Husayn Voiz navbatdagi va'zga kelayotib, yuqoridagi baytga ko'zi tushadi va shartta orqasiga burilib, qaytib ketadi. Qattiq xafa bo'lganidan bir yilgacha va'z aytishga chiqmay qo'yadi. Shahar akobirlarining iltimoslaridan so'nggina yana va'z ayta boshlaydi.

Gap shundaki, Hofiz Sheraziy ushbu baytda munofiq, ikkiyuzlama-chi, aytgan so'ziga o'zi amal qilmaydigan kishilarni fosh etgan edi. Voiz Koshifyi esa, bunday kishillar toifasidan bo'lmasa-da, qo'pol hazildan qattiq ranjigan.

Husayn Voiz notiq sifatida shu qadar hurmat va e'tiborga sazovor bo'lganki, buning asosiy sabablaridan biri, avvalo, ovozining yoqimliligi, jozibador ohangi, ichki ruhiy holatni o'rinali harakatlar bilan ifoda qila olishida edi. Shu boisdan ham, xalq yig'iladigan hamma joyga doimo uni taklif qilishgan. Natijada bo'sh vaqt bo'lman voiz aniq jadval bilan ishlashga majbur bo'lgan. Husayn Voiz qayerda nutq so'zlasa, shu yerda odamlar soni ko'payib ketar, natijada, minglab xalq to'plangan katta maydonlarning oxirida turganlarga uning ovozi yetib bormas ekan. Shunga qaramay, odamlar bu zotning nurli siymosini uzoqdan bo'lsa ham bir ko'rishga, so'zlariga monand chiroyli xatti-harakatarini kuzatishga qiziqib maydonni tark etmas ekanlar. Bu haqda Koshifyining o'g'li Faxriddin Ali Safiy o'zming "Latoyif ut-tavoif" asarida qiziq bir voqeani hikoya qiladi: Kunlarning birida Koshifyi Masjidi jome'da va'z aytayotgan ekan. Odamlarning nihoyatda ko'pligidan majlisga kelayotgan o'sha davrning mashhur so'z ustalaridan biri Mavlono Sayyid G'iyyosiddin nutq so'zlayotgan Voiz Koshifyga mahliyo bo'lib, qatnashishi lozim

bo‘lgan majlisga kechikadi. Ittifoqo, shu majlisda Abdurahmon Jomiy ham ishtirok etayotgan bo‘ladi. Sayyid G‘iyosiddin shoshilib majlisga kirib kelishi bilan hazrati Jomiy undan so‘raydi:

– Nechun kechikdingiz, mavlono G‘iyosiddin?

– Memi ma’zur tuting, ustod, – deydi G‘iyosiddin, – kelayotgan edim, Masjidi jome’da Husayn Voiz nutq so‘zlayotgan ekanlar, shunga qiziqib turib qolibman.

– Xo‘s, qanday yangilik eshitdingiz?

– Hech qanday, – deydi G‘iyosiddin.

– Sabab?

– Sabab shuki, – deydi gunohkor, – odam juda ko‘p ekan. Olomon meni turtib, bir chekkaga chiqarib yubordi. Men shunchalik uzoq masofada edimki, uning ba’zi-ba’zi so‘zлari zo‘rg‘a qulog‘imga chalinardi.

– Unday bo‘lsa nima qilib o‘tirdingiz?

– Qarab o‘tirdim, – deydi G‘iyosiddin, – Husayn Voiz shunday nutq so‘zlayotgan ediki, gaplarim eshitmasam ham, uning mahoratiga maf-tun bo‘lib, nutqining oxirigacha qarab o‘tirdim.

Darhaqiqat, Husayn Voiz Koshifiy zamonasining eng barkamol notig‘i sifatida ulug‘vor ma’nolar to‘la nutqi bilan xalq qalbiga kirib borgan. Jozibador ovozi, ulkan maydonlarda yoqimli tarona kabi yang-rab tinglovchilarni o‘ziga maftun etgan. Ayni paytda yuksak insonpar-var va murabbiy sifatida haqiqat vaadolat to‘g‘risidagi pand-nasihat so‘zлari bilan mazlumlar diliqa taskim bergan.

Koshifiy faqat ijrochi notiq bo‘lib qolmasdan, yuqorida ta’kidlanganidek, iste’dodli adib sifatida ham qator asarlar ijodkoridir. Adib asarlarining fazilati shundaki, u mavjud jamiyatni, odamlarni tahsil etadi, hikmat va falsafa asosida fikr-mulohaza yuritadi. Natijada odam holasiqa xos juda ko‘p umumiyl xususiyatlari: ojizlik va ulug‘lik sifatlarini ko‘rsatib beradi. Koshifiyning el orasida mashhur bo‘lgan asarlariдан biri 1495 yilda yaratilgan “Axloqi Muhsiniy”dir. Ushbu asar Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li, temuriy shahzoda, Marv hukmdori Muhsin Mirzoga bag‘ishlangan. Asarning asosini ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya va axloq haqidagi chuqr falsafiy fikr-mushohadalar tashkil etadi. Ko-shifiy “Axloqi Muhsiniy” asarining kirish qismida: **“Maqbul af’olidin uchun kalima bayon varaqiga yozdim, toki o‘zga podshoh avlodiga bishnotoma, dasturulamal bo‘lgay”**, – deydi.

Adib o'z davrining insomparvar murabbiysi sifatida davlat, mamlakat boshliqlarining vazifasini ko'rsatib berishni, ularga nasihat qilishni o'zining burchi deb biladi. U davlatni, xalq manfaatlарини ko'zlovchi, xalq orzu-umidlarini amalga oshiruvchi vositaga aylantirishga, davlat arboblarini xalq xizmatchilariga aylantirish g'oyasini ilgari suradi. Jamiyatdagi tengsizlik va haqsizlikni hukmron tabaqasharda yuksak axloqiylik va insoniylik fazillarini qoror loptirish orqali bar taraf etmoqchi bo'jadi. Xullas, "Axloqi Muhsiniy"da insonga sharaf keltiradigan poklik, imon, e'tiqod, ezunglik singari sifatlarining ahamiyatini ta'kidlash barobarida, podshoh va saroy xizmatchilarining xislatlari, burch-vazifalarini belgilab beradi. Adib faqat podshoni emas, balki oddiy insonni ham dili, niyati pok, xayr-saxovatli, kamtar, dono, dunyo sir-sinotlарини bilishga qiziquvchi aql-zakovat egasi sifatida ko'rishni orzu qiladi. Koshify ijtimoiy-axloqiy idealni yuzaga chiqarishning asosiy vositasi deb ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiyani tushunadi.

Adibning "Anvori Suhayliy" nomli asari ham axloqiy-didaktik xarakterda bo'lib, u mashhur "Kalila va Dimma" ta'sirida yaratilgan. "Anvori Suhayliy"da Sharq adabiyotida keng targalgan hikoyat va rivojatlar keng o'rinn egallaydi va shu orqali adib qissadan hissa chiqarib, o'zining o'git va nasihatlarini, axloqiy qarashlarini bayon etadi. "Risolai Xotamiya" asanida esa, Xotam Toyi timsolida oliyhimmatlik va saxiylik fazillatlari targ'ib qilinadi. Elison va saxovat kishini komillik sari eltuvchini eng go'zal sifatlardan ekansligi uqtiniladi. Yuqoridada nomlari qayd etilgan asarlardan tashqari, Husayn Voiz Koshify notiqlik san'ati nazariyasiga oid "Sahifai Shohi", "Dah majlis", "Maxzan ul-insho" kabi qo'llannmalar ham yozgan. Shu bilan bir qatorda, "Axloqi Muhsiniy", "Risolai Xotamiya", "Anvori Suhayliy" asarlarida ham so'z, notiqlik san'atiga doir qimmatli fikr-mulohazalar uchraydi. Ushbu asarlar XV asrdayoq Xuroson viloyathari madrasalarida darslik sifatida keng qo'llanilgan.

Adibning "Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati"<sup>1</sup> asari ham uning boshqaga asarlari singari asrlar davomida axloq va odob dasturi sifatida insonlar qalbiniz ezunglik nurlari bilan yoritib kelgan. Asarda javonmardlik ilmi qonun-qoidalari va tasavvuf falsafasi haqida qimmatli fikr-mulohazalar iigari surilgan.

Adib suhabat odobi haqida chuqur fikr-mulohaza yuritar ekan, shayxlar va boshqa martabaga erishgan kishilarining amal qilishi lozim bo'lgan qoidalarini birma bir ko'fsatib beradi:

"Birinchidan, har kimning ahvoliga qarab munosib so'z aytisin. Ikkinchidan, dag' allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan ga-jim turgan ma'qul".<sup>2</sup>

Adib suhabat odobi haqida chuqur fikr-mulohaza yuritar ekan, shayxlar va boshqa martabaga erishgan kishilarining amal qilishi lozim bo'lgan qoidalarini birma bir ko'fsatib beradi:

"Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilish gapirsin. To'rtinchidan, ovozini baland ko'tarmas, eshituvchilarga ma-lok keltirmaydigan qilib gapirsin.

Beshinchidan, odamlarga na'fi legadigan ma'noli gaplarni gapirsin.

Oltinchidan, agar so'zning qinmati – qadri bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi hamisoli urug'dir, agar nrug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qayerga ekmang nnib chiqmaydi".<sup>3</sup>

Husayn Voiz Koshify martabaga yetmaganalarning subbat-odobi haqida ham alohida to'xtalib, bunda u quyidagi sakizta qoidaga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi:

Blirinchidan, so'ramagunlaricha gapirmsin.

Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko'tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o'ngu so'lga qaramas. To'rtinchidan, g'arazli va kinoya gaplarni gapirmsin. Beshinchidan, qattiq gapirmsin va betgachoparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon bo'imaslik uchun o'ylab gapirsin. Yettinchidan, odamlar gapini bo'lib so'z qotmasin.

<sup>1</sup> Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilida Naimiddin Komilov tajimasi). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq meroziy matbuoyoti, 1994. 57-58-betlar.  
<sup>2</sup> Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilida Naimiddin Komilov tajimasi). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq meroziy matbuoyoti, 1994. 58-bet.

**Sakkizinchidan, ko‘p gapirmasın. Chunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham, soz gapirishni shior etsin”<sup>1</sup>.**

Bundan besh asr muqaddam aytilgan ushbu o‘gitlar inson ma’naviy tarbiyasi kun tartibida turgan, bizning zamonamizda ham dolzarb masala bo‘lib turibdi. Xullas, Husayn Voiz Koshifiyning har bir asari olam-olam ma’noga ega bir xazinadir. O‘z umrini odamlar qalbini ilmu ma’rifat nurlari bilan munavvar qilishga bag‘ishlagan adib va mashhur voiz 1505 yilda Hirotda vafot etgan.

### Tayanch tushunchilar

Voiz – nutq so‘zlovchi, notiq.

Ilmi nujum – yulduzlar haqidagi ilm, falakiyot ilmi.

Koshifiy – kashf qiluvchi.

Suhbat odobi – suhbatlashish madaniyati.

### Savol va topshiriqlar

1. Husayn Voiz Koshifiy qayerlarda tahsil olgan, Hirotda kelishiga kim sabab bo‘lgan?
2. Koshifiy, asosan, qaysi fanlarni chuqur o‘rgangan, uning xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgan asarlarining nomlarini aytинг.
3. Navoiy va Koshifiy o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik va ilmiy hamkorlik munosabatlari haqida qanday fikrdasiz?
4. Husayn Voiz Koshifiy va’zlarining shuhrat qozonishiga, asosan, qanday omillar sabab bo‘lgan?
5. “Axloqi Muhsiniy” asarining g‘oyaviy mazmum nimalardan iborat?
6. Husayn Voiz Koshifiy notiqlik san’atiga doir qanday asarlar yozgan?
7. “Futuvvatnomai sultoniy...” asarida martabaga yetmaganlarning suhbat odobida sakkizta qoidaga amal qilish ta’kidlangan. Bu qoidalar nimalardan iborat?
8. Koshifiyning qaysi asarlari fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjima kimlar tomonidan amalga oshirilgan?

<sup>1</sup> O’sha kitob, 58-bet.

## **Adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. O'n besh to'mlik. O'n ikkinchi tom. Majolis un-nafois. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
2. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors tilidan Najmiddin Komilov tarjimasi). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
3. S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.
4. Ravshanbek Mahmudov. Degonimni ulusqa marg'ub et... – Toshkent: O'zbekiston, 1992.

## **QADIM YUNONISTONDA NOTIQLIK SAN'ATI**

### **Reja**

1. Yunonistonda notiqlik san'ati taraqqiyoti va uning sabablari.
2. Notiqlik san'ati va Aristotel ijodi.
3. Mark Tulliy Sitseron – mashhur notiq va nazariyotchi otim.
4. Demosfen – beqiyos notiq, otashin vatanparvar.

Antik davrlarda yunonlar chuqur fikrlash va chiroyli gapiresh ilmini hikmat va donishmandlik deb ataganlar. Notiqlik san'atining buyuk namoyandasini Sitseronning ma'lumotlariga qaraganda, Suqroti hakim zamonlarigacha falsafa va notiqlik yagona ilm sifatida mavjud bo'lgan. Suqrot o'z mulohazalari bilan dono fikr va ziynatlangan nutqning yagona ilmini ikkiga ajratib qo'ygandan keyin fikrga ayrim, nutqqa ayrim o'qitish odati paydo bo'lgan<sup>1</sup>. Shundan keyin kishilarni har tomonlama mukammal, go'zal nutq so'zlashga o'rgatuvchi maxsus ritorika ilmi vujudga kelgan. Ma'lumotlarga qaraganda ritorikaning asl vatani Sitsiliya oroli bo'lib, eramizdan oldingi V asrning o'rtalarida bu yerda demokratik tartibiar o'rnatilgach, notiqlik faoliyatining rivoji uchun keng yo'l ochiladi.

Mashhur ritor Gorgiy (taxminan 483–376) 427 yilda o'z shahri Leontina uchun harbiy yordam so'rab maxsus elchi sifatida Afinaga ke-

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 270-bet.

ladi va xalq majlisida gapirgan nutqi bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi; shundan keyin ko‘p o‘tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko‘chib kelib, shu yerda ritorika maktabini ochadi va o‘z shogirdlariga chiroyli so‘zlash san’atini o‘rgata boshladi.

Gorgiyning fikricha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish va o‘ziga rom qilishdan iboratdir. Gorgiy, asosan, mifologik mavzularda tantanali nutq so‘zlagan, uning nomi ostida bizga qadar “Yelena” va “Palimed” sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan.

Notiqlik san’atiga ehtiyoj Afinada, ayniqsa, juda kuchli edi. Chunki Yunonistonda demokratiya tuzumi qaror topgach, respublikaning har bir ozod kishisi xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlarida erkin nutq so‘zlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Afina davlatidagi sud tartiblari ham notiqlik san’atining keng rivoj topishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tartiblarga ko‘ra, sudga ishi tushgan har bir kishi shaxsan sud majlisiga kelib, da‘volarini bayon etishi yoki o‘zini himoya qilishi lozim edi. Lekin hamma ham voqeа tafsilotlarini manтиqan asoslah, chiroyli gapirish iqtidoriga ega bo‘lavermaydi. Natijada, hozirgi advokatlarga o‘xshagan va qadimgi yunon tilida “logograflar” deb ataluvchi maxsus kasb kishilarini paydo bo‘ldi. Bilimdon, so‘zga chechan notiqlarning ko‘pchiligi “logograflik” bilan ham shug‘ullanib sudsplashuvchilarga maxsus nutq matnlarini yozib bergenlar. Logograflar haqida fikr yuritilganda ko‘pincha manbalarda Lisiy nomi qayta-qayta tilga olinadi.

Asli sitsiliyalik bo‘lgan mashhur so‘z ustasi Lisiy Afinada yashagan (459 – 380). O‘z faoliyatimi logografflik kasbiga bag‘ishlagan bu zot, asosan, sud nutqlarini ijod etgan. U har bir nutqni yozishga kirisharkan, avvalo, bu nutqni buyurtma bergen kishining tabiatiga, ijtimoiy mavqeiga qanchalik monand kelish-kelmasligiga katta e’tibor beradi. Masalan, qishloqdan kelgan oddiy bir dehqon yoki o‘rtamiyona shahar fuqarosi hech qachon kitobiy iboralar ishlatib, murakkab qonunning kerakli boblarimi dalil keltirib, hashamatli nutq so‘zlay olmaydi. Agar shunday qilsa, aytgan gaplarining soxtaligi bilinib qoladi. Lisiy san’atkorligining asosiy siri shundaki, u nutq matmini yozishga kirishar ekan, o‘z oldiga faqat bir maqsadni qo‘yadi; u ham bo‘lsa so‘zlayotgan kishi haqida sud hay’ati dilida eng yaxshi taassurotlar qoldirish,

uning har bir gapi yurakdan chiqayotgan, chinakam samimiy gaplar ekanligiga ishontirishdir. Lisiy qo‘li bilan yozilgan nutqlarning biron-tasida so‘zlovchining tabiatiga mos kelmaydigan dabdabali, serhasham iboralarni uchratmaymiz. Lisiy nutq uslubining aniq va ravshanligi, tilming sodda va raxonligi, har bir odamni o‘z tilida gapirtira olish mahorati uni yunon tarixida o‘tgan logograflarning eng mashhurlari qatoriga qo‘ydi.

Shu tariqa notiqlik san’ati rivojlanib, uning **siyosiy notiqlik, sud notiqligi, epidektik notiqlik** kabi turlari paydo bo‘ladi. Epidektik notiqlar ulug‘ zotlarni va mashhur voqealarni madh etib, tantanali yig‘inlarda nutq so‘zlaganlar.

Notiqlik san’atining rivojlanishi, adabiy tilning, badiiy adabiyotning ravnaqida katta ro‘l o‘ynadi, shuningdek, “Ritorika” ilmining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Yunoniston va Rimdagagi notiqlik san’ati taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan mashhur so‘z ustalarining har biri o‘z nutq uslubi bilan alohida ajralib turganlar. Bu haqda Mark Tulliy Sitseron shunday deb yozadi: “Isokratda nazokat, Lisiya oddiylik, Gipereidda zukkolik, Esxilda tiniqlik, Demosfenda kuch bor. Ular go‘zal, zebo emasnilar? Ular ozgina bo‘lsa-da, bir-biriga o‘xshaydilarmi? Afrikanda salmoqdorlik, Leliyda muloyimlik, Galbada keskinlik, Karbonda alohida bir raxonlik va ohang bor edi. Ularning qaysi biri o‘z davrlarida birinchi bo‘lmagan? Va aytish kerakki, ularning har biri o‘z uslubida birinchi cdi”<sup>1</sup>. Xullas, notiqlar qancha bo‘lsa, sxuxandonlik turlari ham shuncha xilma-xil ho‘lgan. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, qadimgi davrda mashhur bo‘lgan barkamol notiqlarning aksariyati buyuk donishmandlar Platon va Aristotel mакtabida ta’lim olgan faylasuf ham edilar.

## ARISTOTEL

(miloddan avvalgi 384 – 322 yillar)

Qadimgi yunon san’ati va falsafasining yuksak cho‘qqisini Aristotel ijodi tashkil etadi. Ayniqsa, uning “Poetika”, “Ritorika” kabi asarlari-dagi adabiyot va san’at bilan bog‘liq bo‘lgan qimmatli fikr-mulohazalar hanuzgacha ilm olamida dasturulmal bo‘lib xizmat qilmoqda.

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjiması). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 260-bet.

Aristotel go'zallik falsafasini o'z tadqiqotlari markaziga qo'yadi. U go'zallikni tartib, mutanosiblik va aniqlikda ko'radi. Aristotel taliqiniga ko'ra, go'zal san'at asarlari inson qalbini salbiy hissiyotlardan forig'lantiradi, natijada inson, bir tomondan, taqdir ko'rgutiklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomondan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamardlik hissini tuyadi; ya'ni, san at insonni olijanob qilish, yaxshilash, go'zallashirish xususiyatiga ega.

Qadimgi dunyo ilm-fani, falsafiy qarashiarining buyuk donishmandi Aristotel miloddan avvalgi 384-yilda Makedoniyaning Stagira shahrida tug'ilgan. Uning otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amint II ning shaxsiy tabibi bo'lgan. Aristotel 17 yoshidan 37 yoshigacha faylasuf Platon akademiyasida tahsil oladi. 342-yilda podshoh Filippning taklifi bilan Makedoniyaga qaytib, Aleksandrga murabbiylik qila boshlaydi. Aleksandr Makedonskiy hukmonlik taxtiga o'tirgach, o'z ustoz va do'stiga atab haykal barpo ettiradi. Bu haykalning poyida shunday yozuvlar bor edi: "Aleksandr ushbu yodgorlikni Nikomaxning o'g'li, buyuk donishmand va avlyyo Aristotel xotirasiga o'rnatdi".

Aristotel Aleksandr taxtga chiqqach, yana Afinaga qayrib bu yerda "Litsey" nomi bilan shuhrat qozongan falsafa maktabini ochadi va katta kutubxona tashkil etadi.

Shu davda Yunonistonda chiroyli so'zlashga qiziqish kuchayib ketgan, natijada qator notiqlik maktablari ochilgan edi. Bu maktablarda so'z san'at ustalarai – notiqlar yetishirib chiqarildi. Keyinchalik mazmundor va ta'sirchan so'zlash haqida maxsus qo'llannmalar maydonga keladi. Shunday asarlardan biri Aristotelning "Ritorika" nomli kitobidir. Buyuk olim uni miloddan avvalgi 330 yillarda yozgan.

Aristotelning ushbu asarigacha ham Anaksimen, Lampsak kabi faylasuflar "Ritorika" nomli qo'llannmalar yaratgan edilar. Aristotelning "Ritorika" si notiqlik san'atining nazarini asoslarini yanada boyidi.

"Ritorika" uch kitobdan tashkil topgan bo'lib, asarning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan, chiroyli so'zlash, ishonchitishi usullari haqidagi fikr-mulohazalaridan iborat. Uchinchchi kitobda esa, jumladargi izchilik va nutq mantiqiga alohida e'tibor qaratilgan. Olimming fikricha, notiq tilidagi turli "qorishmalar", ya'ni so'zlarining noto'g'ri va no'o'rin talaffuz qilinishi, jumlatarning mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining kaitta xatosidir. Aristotel har bir jumlaning asosiy fikrni iloda etishga

qaratilishi lozimligini, tinglovochi tushunadigan darajada sodda va ravon bo'lishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan so'zlashi mul-haza yuritayotgan fikrini tinglovochi qalbiga tez yetishida muhim omil bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, Aristotel notiqning auditoriyanı o'ziga jalb etishi uchun turli hazil-mutoyiba so'zlar bilan lirk chekinish qilib tinglovochilarni hayjonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko'rgazmali qurollardan foydalansa, har xil sifatlash, chog'ishtirish va metaforalarni qo'llasa, nutqining ta'sirchanligi yanada oshishini uqtirib o'tadi.

Aristotel notiqlik san'atini egallash uchun quyida keltirilgan beshta vazifani mukammal bajarishni tavsuya etadi:

1. Nutq matminni kashif qilish. Ya'ni og'zaki ijro qilinadigan nutq matminni har tomonдан chucur o'rganib chiqish.
2. Nutq matminni mantiqan va mazmuman to'g'ri rejalashtirish.
3. Matnni to'liq eslab qolish.
4. Matnni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish.
5. Nutq matmidagi so'zlarini to'g'ri talaffuz qilish.

Notiqlik san'atining buyuk namoyandasi Mark Tullyi Sitseron ham ushbu beshta qoidaga alohida e'tibor beradi va o'z asarlارida Aristotel qarashlarini yanada rivojlanitiradi: "Notiqning barcha kuch va qobiliyatlarini ushbu besh vazifani bajarishga xizmat qiladi; birinchidan, u o'z nutqi uchun mazmun topishi zarur; ikkinchidan, topilgan ma'lumotlarni tarib bilan joylashtirishi; uchinchidan, bularning hammmasini so'z bilan o'rashi va bezashi, kerak; to'rtinchidan, nutqni xotirada mustahkamlab qo'yish; beshinchidan, uni munosib ravishda va xush keladigan qilib so'zlashdir", – deydi Sitseron o'zining "Notiqlik haqida" deb nomlangan asarida!

Nutqni ritorik ishlab chiqishda notiq amal qilishi lozim bo'lgan ushbu beshta qoida hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qoltmag'an.

## MARK TULLIY SITSERON

(Miloddan oldingi 106 – 43 yillar)

Mark Tullyi Sitseron jahon madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk sityomlardan biridir. U miloddan avvalgi 106 yilda Rimdan usoq bo'lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. Sitseron-

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimas). – T.: Yangi asr avlodı, 2007, 91-bet.

ning onasi Gelviya xonim bo‘lg‘usi mashhur notiqning yoshligidayoq vafot etgan edi. Otasi Mark Tulliy suvoriyalar toifasidan bo‘lib, ko‘p vaqtini adahiyot bilan shug‘ullanish va bolalar tarbiyasiga bag‘ishlaydi. Mark Tulliy yetti yoshga kirganda otasi farzandlariga yaxshi ta’lim-tarbiya berish maqsadida Rimga ko‘chib ketadi. Bolalik chog‘larida Sitseron ukasi Kvint bilan birgalikda mashbur notiq Krass rahbarligi ostida yunon o‘qituvchilaridan falsafa va notiqlik bo‘yicha, shoir Arxiydan she‘riyat san’ati bo‘yicha saboq oladi.

U yigitlik paytalarida notiqlik san’ati bilan jiddiy shug‘ullanadi, o‘z zamonasining mashhur notiqlari nutqlarini katta qiziqish hilan tinglaydi. O‘sha davrning mashhur aktyorlaridan Rostsiy uning ovozi, xattiharakatlarining silliqlanishi ustida ishlaydi, deklamatsiya san’atini o‘rgatadi. Mashhur tragik aktyor Klodiy Ezop esa, unga talaffuzni, ehtirosli nutq so‘zlashni o‘rgatadi. Sitseron taxmiman o‘n olti yoshga kirganida mashhur huquqshunos Kvint Mutsiy Ssevoladan saboq olaadi. Ma’lumotlarga qaraganda, o‘sha paytlarda Sitseron bir oz muddat harbiy yurishlarda ham qatnashgan. Xullas, Sitseronning yoshlik davri juda samarali va sermazmun o‘tadi.

Sitseron 25 yoshida birinchi marta sudda xalq oldida nutq so‘zlaydi. U avval grajdanlik, so‘ngra jinoiy ish jarayom bo‘yicha gapirodi. Biroq uning bu nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Kott ismli notiqlar qarshi chiqadi. Shundan keyin u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish uchun Afnaga jo‘nab ketadi, so‘ng Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi. Ikki yil davomida Sitseron yana o‘qisbni davom ettiradi: mashhur olimlar, notiqlar bilan uchrashadi va suhbatlarda qatnashadi. Mana shunday izlanishlar davomida u nutq so‘zlashda yangi usullar qidiradi. Nihoyat Osiyo va Attika usullari omuxtasidan iborat bo‘lgan o‘ziga xos bir uslub kashf etadi.

Sitseron o‘z zamonasining ko‘pchilik so‘z ustalari kabi o‘z faoliyatining dastlabki davrlaridan oq nutqda uslubning chiroylligi, ibora va ifodalarning jozibador bo‘lishiga alohida e’tibor beradi.

Sitseron Osiyoga sayohat qilib, notiqlik san’atining sirlarini o‘rganib yurgan vaqtida, Rim hukmdori Sulla vafot etadi. Rimdagи siyosiy vaziyat o‘zgaradi. Sitseron 29 yoshida Rimga qaytib keladi. Bu yerda unga endi “yunon”, “olim” degan laqabiar berishadi.

Sitseron 30 yoshlaridan boslab davlat ishlarida faol ishtirok eta boshlaydi. Kvestorlik<sup>1</sup> vazifasi Sitseron uchun mansab pillapoyasining dastlabkisi edi. Kvestorlikdan keyin Sitseron ko‘proq advokatlik bilan shug‘ullanadi. 70-yillarda Sitseron edillik<sup>2</sup> lavozimiga erishadi. O‘sha paytlarda mashhur Verres ishi bo‘yicha Sitseron ayblovchi sifatida ishtirok etib, yutib chiqqan. Sud mahkamasining ikkinchi sessiyasi uchun Sitseron tomonidan tayyorlangan beshta nutq teksti shu kungacha saqlanib qolgan bo‘lib, notiqlik san’atining oliy namunasi sifatida katta qimmatga ega. Shundan keyin 67-yilda Sitseron bir ovozdan pretorlikka<sup>3</sup> saylanadi.

Shu tariqa Sitseron tengsiz notiq va donishmand faylasuf, siyosiy arbob sifatida birma-bir shuhrat pillapoyalaridan ko‘tarilib boradi.

Nihoyat 63-yili konsullikka<sup>4</sup> saylanadi. Bu Rim Respublikasining oliy martabali lavozimi edi. Sitseron juda mashhur, yuksak iqtidorli va shijoatli shaxslar – Katon, Brut, Antoniy, Krass, Pompey va Sezarlar bilan bir paytda siyosat maydonida bo‘ladi, muvaffaqiyatlari faoliyat ko‘rsatadi. Sitseronning konsullik davri kuchli siyosiy kurashlarda o‘tadi. Hatto siyosiy raqiblari tomonidan ayblanib bir necha muddatga Rimdan badarg‘a qilinadi. U bir yarim yildan so‘nggma do‘stlarining yordami tufayli Italiyaga qaytib kelishga muvaffaq bo‘ladi.

O‘z davrining fozil va ma’rifatparvar kishilaridan biri bo‘lgan Sitseron zamondoshlarining ongini oshirish, ularni ilm-fan, falsafa va madaniyat samaralaridan bahramand qilish masalasiga katta e’tibor beradi va bu ishni o‘zining muhim burchi deb tushunadi.

Sitseron nutq nazariyasi ustida timimsiz ijod qildi. Mashaqqatli inehnati natijasida uch kitobdan iborat “Notiqlik haqida” nomli asari yaratiladi. Ushbu kitobni muallif o‘z ukasi zabit hamda shoir Kvint Tulliy Sitseronga bag‘ishlagan. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan bo‘lib, Litsiniy, Krass, Mark Antoniy, Yuliy Sezar, Strabon, Katull, Ssevola va uning shogirdlari Katt, Sulnitsiy Ruflarning ijtimoiy va si-

<sup>1</sup> Kvestor – qadimgi Rimda davlat xazinasini nazorat qiluvchi mansabdar.

<sup>2</sup> Edillik – qadimgi Rimda tribunlarning yordamchilari, edillar jamoat binolar, ibodatxonalar, yo‘llar, bayramlar, bozorlar, shaharni oziq-ovqat bilan ta’minlash, jamoat tartiblarini kuzatgan, nazorat qilgan.

<sup>3</sup> Qadimgi Rimda Avval konsullar va diktatorlar unvoni; keyin – oliy sud hokimiyatini ikazuvchi va ichki tartib hamda huquq saqlovchi, qo‘riqlovchi mansabdar shaxs.

<sup>4</sup> Konsul – qadimgi rimda saylanadigan ikki oliy mansabdar shaxslarning unvom.

yosiy nutqlari, ularning notiqlik san'ati va siyosiy muammolargacha bo'lgan qimmatli fikr-mulohazalarni o'z ichiga oladi.

Qadim zamonalarda dialog-suhbat tarzida yozilgan asarlar mayjud bo'lib, ular, asosan, ikki xil ko'rinishda bo'lgan. Ullardan biri Platon ushbu ushbu ushsubda gaplar, asosan, qisqa-qisqa va unda suhbatdoshlardan biri boshqasini muammoni to'g'ri hal qilishga yo'n naltiradi. Ikkinchisi – Aristotel uslubni; unda suhbat qatnashchilarini navbat bilan o'z fikrlarini bildiradilar va nutqlar o'zaro uzyiy bog'lanadi. Sitseron diaologlari Aristotel ushsubida yozilgan va unda suhbatdoshlar keng ko'jamli va uzun nutqlar so'zlaydi. Asarda bayon qilinishicha, notiq shunchakki sud ishlarining barcha qonun-qoidalarni yaxshi biladigan qonunparast emas, balki davlat ishlarini chuqur tushunadigan xalq qayg'usiga ham-dardlik qila oladigan davlat arbob bo'lomog'i lozim. Shuning uchun notiqlik san'atiga qiziqqan har bir kishi faqat ritorika ilmiga oid ibtidoy bilimlar bilan cheklannmasdan va o'zing tabiyi iste'dodiga ishonib qolmasdan, doimo turli fanlarni o'qib-o'rgannomog'i, ilm va madaniyatning yuqori cho'qilariiga intilmog'i darkor. Bundan tashqari, "Notiqlik haqida" asarining muallifi notiqlarning odamlar diliiga qo'requv, g'azab va qayg'u sola bilishi va, aksincha, uarring ruhida xotirjamiylik, mehr-shafqat hislarini uyg'ota olishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, agar notiq odamlarning turli-tuman xarakterlarini sezmasa,inson tabiatiga xos umumiy xususiyatlarni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlaniradigan sabablarni tushunmasa hech qachon o'zi maqsadiga erisha olmaydi.

Sitseronning "Brut" asari Rim notiqlik san'ati tarixiga bag'ishlangan. Suhbatda Sitseron, Brut va Attik qatnashadi, lekin unda, asosan, Sitseron gapiradi. Ushbu kitobda muallif ikki yuzdan ortiq notiqlarni sanab o'tgan. Notiqlarning saqlanib qolgan nujqlari unga asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. "Brut" asarini tugatgach, Sitseron kitobni uning qahramoni Mark Yuniy Brutiga yuboradi. Brut kitobni o'qib, Sitseronga maktub yozadi va unga suxandonlik san'ati bo'yicha bir necha masalalarni o'rtaga tashlaydi. Bu maktubga javoban Sitseron "Notiq" asarini yozishga kirishadi. Ushbu kitobda muallif, a sosan, har tomonlama mukammal notiq haqida fikr-nulohaza yuritadi. "Notiq" asari diatog tarzida yozilgan.

"Notiq" asarida muallifning ta'kidlashicha, har qanday notiqning

ko'zda tutgan asosiy maqsadi – tinglevchining zavqini uyg'otib, o'ziga moyil qilishdan iboradir. Notiq sharoitga qarab, mayjud uslublarning hammasidan o'z o'mida foydalanishi zarur. Sitseron bu fikri davom ettirib, kimki jo'n narsalar haqida o'rta darajada, ulug' hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsra, shu odam so'z san'atining chinakam ustasi bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

She'riyat tiliming vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning uni va undosh tovushlarning ahmashini, bir so'zning oxiri va ikkinchi so'zning boshida ikki umlining qator kelishiga yo'l qo'ymaslik, so'zizami to'g'ri talaffuz etish, grammatik qoidalarga katta e'tibor berish kabi notiqlik san'atining muhim masalalari ham Sitseron asarlariida o'zing yorqin ifodasini topgan.

Tinglevchilarni zeriktirmaslik uchun nutq davomida ko'tarinki uslubni bir pardas pasaytirib, sud ishiga aloqador bo'lgan kishilarning goh salbiy, goh ijobjiy tavslifni berish, ilgari o'tgan mashhur zotlar haqidagi biron latifani eslatib ketish, lozim bo'lib qolganda, ba'zi bir hayotiy manzaralarni, dramatik voqealarni estish, o'miga qarab biron hikmati so'z, maqol yoki qochiniq gaplarni qistirib o'tish – Sitseronning eng sevgan usullaridan edi.

Sitseron o'zimng har bir nutqida faqatgina nutqning mazmundorligiga, jumlalarning to'g'riligiga e'tibor berish bilan kifoyalanmasdan, balki tilning ohangdor bo'lishiga ham katta ahamiyat bergen.

Sitseron "Notiq" asarini yozib tugallagach, mashhur so'z ustasi Demosfenning Ktesifontni himoya qilib va Essexiuning Klesifontni qoralab so'zlagan "Gulchambar haqida", nomli mashhur nutqlarini tarjima qildi va unga "Notiqlarning eng yaxshilari" sarlavhal so'zboshi yozadi. Usihu tarjima saqlanib qolmagan, lekin so'zboshi bizgacha yetib kelgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, Sitseronning ko'plab falsafiy asarlari ham tarjima qilganligi haqida ma'lumollar mavjud.

Yuliy Sezar vafotidan keyin, uning nabirasi Oktavian davlati beshqaradi. U o'z davlati mavqeini mustahkanlash maqsadida Sitseronning senat oldidagi obro'-e'tiboridan foydaliammoqchi bo'ladı. Bir-roq Sitseron Oktavianga ishommaydi. Sitseronning siyosiy dushmanlari yangi hukmdorni o'zlarini tomonga egib, undan buyuk notiqni qatl etishni tulab qiladilar. Shunday qilib, so'z san'atining mohir ustasi shafqatsiz jazoغا hukm etiladi.

Sitseronni butun insoniyat oldida ulug‘lagan, obro‘sini oshirgan narsa uning ajoyib va takrorlanmas nutqlari bo‘ldi. Uyg‘onish davrida Italiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarning insonparvar ohimlari Sitseronning ilhombaxsh nutqlarini sevib o‘rgandilar. Mazmundor, ohangdor va ifodali nutq san’atini o‘rganishda Sitseron asarlari, nutqlari hamon dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

## DEMOSFEN

(384 – 322)

Buyuk so‘z ustasi Sitseron o‘zining “Notiq” nomli asarida bilim darajasi, mahorati har xil bo‘lgan qadimgi dunyo notiqlari haqida so‘z yuritar ekan, ular orasida Demosfenning suxandonlik san’atiga yuqori baho beradi: “Notiqlar orasida ham, har holda yunon notiqlari orasida ham, bir notiq borki, u hamma notiqlardan hayratomuz darajada yuqori-roq turadi; shunday bo‘lsa-da, Demosfen atrofida ham boshqa buyuk va shuhratli notiqlar bor edilar; ular Demosfengacha ham yo‘qolib ketmadilar. Shuning uchun suxandonlikni o‘rganmoqchi bo‘lganlar umidsizlanmasinlar: mukammallikka erishish mumkin cmas, deb hafsalalari pir bo‘imasin, yuksak narsalarda mukammallikka faqat yaqinlashadiganlar ham zebo va go‘zaldir”<sup>1</sup>.

Demosfenning bunday shon-shuhratga erishuvি oson kechmagan, albatta. Tinimsiz izlanishlar, mashaqqatlari mehnatlari, mustahkam e’tiqod va burchga sadoqat tuyg‘usi oxir-oqibat uning nomini Yunonis-ton tarixiga abadiy muhrladi.

Demosfen miloddan avvalgi 384 yili Afina shahrida anchagina badavlat xonadonda dunyoga keladi. Bo‘lajak notiq yetti-sakkiz yoshlarida otasidan ajralib, bolalik davridanoq hayat mashaqqatlari bilan kurashishga o‘rganadi. Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalar yosh bo‘lgani uchun, ularning tarbiyasi va meros vaqtincha tog‘asiga topshiriladi. Tog‘a esa, barcha boylikni qo‘lga kiritib olgach, bolalar tarbiyasi bilan qiziqmay qo‘yadi. Demosfen voyaga yetgach, merosni sud orqali qaytarib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afina davlat qonunlarini yaxshi biliishi, shu bilan birga ravon so‘zlash, da‘vosining to‘g‘riligiga kishilarni

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 329-het.

ishontirish kerak edi. Shu boisdan ham, Demosfen notiqlik san'atini o'rgamish uchun o'z davrida meros ishlari bo'yicha mashhur bo'lgan advokat Isey mакtabida ta'lim oladi. U to'rt yil mobaynida qunt bilan o'qib, ko'plab yozuvchilarining asarlarini bilan tamshib chiqadi. Aymiqsa, Fukidid<sup>1</sup> va Platon kabi mashhur tarixchi va faylasuflarning asarlarini puxta o'rganadi.

Demosfen o'qishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va bu sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surunkasiga bo'lgan kurash bo'lajak notiq xarakterining toblamishida, bir so'zli va matonatli bo'lishida katta ro'l o'ynaydi. U o'qish va o'rganish bilan bir qatorda boshqalarga nutq matnlarini yozib berib, logograflik ham qiladi. Demosfen butun hayotini siyosiy notiqlikka bag'ishlashni, xalq majlislarida vatanining ravnaqini yo'lida nutq so'zlashni orzu qiladi. Lekin yosh notiqning xalq oldidagi dastlabki nutqlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Demosfen nutqining ayanchli tugashi tabiiy edi, chunki uning tovushi juda past bo'lib, bir oz duduqlanar, buning ustiga "r" tovushini yaxshi talaffuz etolmas, gapirganda yelkasini qimirlatib turadigan odati ham bo'lib, ko'pchilik o'rtasida o'zini noqulay sezardi. Natijada uning chiqishlari kulgi va masxaralar bilan qarshi olinar, nutqini oxirigacha yetkaza olmay, minbardan tushib ketishga majbur bo'lardi. Bunday noxush ahvolga qaramasdan, Demosfen umidsizlikka tushmasdan, chidam bilan shu kamchiliklarni yo'qotishga kirishadi. Demosfen o'zining jismoniy nuqsonlaridan qutulish uchun qanday choralarни qo'llaganligi haqida manbalarda turli ma'lumotlar uchraydi. Ularda aytishicha, Demosfen og'ziga mayda-mayda tosh solib, dengiz bo'ylarida to'lqinlarning guldiroslarini bosib yuboradigan darajada baland ovoz bilan gapirib, yo bo'lmasa tog' cho'qqilarida shamollar bilan bahslashib duduqligini yo'qotishga, ovozini ravon va jarangdor qilishga erishgan ekan. Xullas, shu tariqa astoydil urinishlardan keyin notiqlik san'atida yuksak mahorat orttirgan Demosfen o'zining siyosiy mavzulardagi nutqlari bilan keng shuhrat qozonadi. Shunga qaramay, u hech qachon tayyorgarlikni nutq so'zlamas, oldindan yozib qo'yilgan matnni yodlab olar, har bir so'z ustida puxta o'ylar, jumtlalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar ekan. Ulug' notiqning nutqi shu qadar sodda, ravon, mantiqan puxta va jozibali bo'lгanki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasi edi.

<sup>1</sup> Fukidid – miloddan avvalgi V asrda yashagan. Afina tarixchisi va davlat arbobi.

«...men hammadan yuqoriga Demosfenni qo'ydim va faqat uning kuchi men boshqa notiqlarda ko'rganim suxandonlikka emas, balki men orzu qilgan suxandonlikka mos keladi. Hech kim na salmoqda, na latofatda, na me'yorda undan o'tib ketgan». Sitseron «Notiq» asarida Demosfend nomini qayta-qayta tilga oladi va uning notiqlik faoliyatini nihoyatda qadriyadi. IV asrning o'rtalarida Makedoniya podshohi Philipp Yunoniston yerlarini bosib olish harakatini boshlaganda, Demosfend otashin vatanpar sifatida o'zining jo'shqin faoliyatini Filippning istlochilik harakatlarni fosh qilishga qaratadi. Afina demokratik tuzumming tarafidori, o'z vatanining sodiq farzandi bo'lgan Demosfend bosqinchilarga qarshi so'zlagan nutqlarida vatandoshlariga murojaat qilib, yurt ozodligi, el baxti yo'lida birlashlib, dushmananga qarshiliga da'vet etadi. Afina davlati Makedoniya tasarrufiga o'tgach, Demosfend dushmanlari unga qarshi bosh ko'taradilar. Bundan bir necha yil ilgari, xalq partiyasi Demosfenning vatanparvarligini yuksak baholab, uni "Oltin gulchambar" bilan taqdirlashga tavsija etigan edi. Makedoniya tarafдорлари bu qarorga qarshi chiqqadilar. Hatto o'z davrining mashhur notiqlaridan bo'lgan Esxil majlis qarori ustidan sudga shikoyat qilib ariza beradi va Demosfenning bunday olly mukofotga loyiq emasligini uqtiradi. Qayta bo'lgan sud ikki taniqli shaxsning yakkama-yakkaka olishuviga aylanib ketadi.

Sud bo'layotgan maydonga shunchalik xalq to'plangan ediki, go'yo mavj urib turgan dengizni eslatardi. Demosfendi qoralab so'zga chiqqan Esxil tamomila kurakda turmaydigan tuhmat toshlarini yog'diradi. "Gulchambar" ni himoya qilish maqsiddida so'z olgan Demosfend esa, vatanining gullab-yashnashi yo'lida timmay kurashganini, shu bilan birga, Esxilning sotqinlikdan iborat faoliyatini yorqin nutqida obrazli tarzda bayon etadi. G'animlarning qarshiligi qaramay, sud juda to'g'ri va haqqoniy qaror chiqaradi. Sud hukmiga muvofiq Esxilga katta mijdorda jarima solinib, Afinadan badarg'a qilindi. Demosfenning "Gulchambar" haqidagi nutqi faqat Esxil ustidan qozonilgan g'alabagini emas, balki Afina va butun Yunonistondagi vatanparvarlarning tantanasi ham edi. Suddagi muvaffaqiyatidan so'ng, Demosfenning davlat oldidagi obro'si yanada oshib ketadi. Biroq Makedoniya bilan Afina o'rtaida boshlanib ketgani urushda afinaliklar mag'lub bo'lib, barcha vatampar-

varlar o'z yurtlariidan badarg'a qilindi. Demosfend esa, sirtidan o'limga hukm etiladi. Fojali voqealar girdobida qolgan notiq Kalavri oroliga ketib, Poseydon ibodatxonasiga yashirinishga majbur bo'adi. O'sha davrdagi an'amalarga ko'ra, ibodarkonaga qochib kirgan odamni kim bo'lishidan qat'iy nazar, qamash yoki o'dirish mumkin emas edi. Chungi u Xondoning panohi va himoyasida hisoblanar edi. Dushmanlari Demosfenning yashiriringan joyidan xabar topib, uni tiriklayin qo'liga tushir-moqchi bo'ladilar. Lekin Demosfend dushmanlariiga mag'lub bo'lgandan ko'ra o'limni afzal biladi va zahar ichib o'z joniqa qasd qiladi. Demosfenning nodir san'atkorligi antik dunyoda o'rgan va yangi davrlarda yashagan notiqlar torionidan juda yuksak baholanadi. Uning ezzulkik yo'lida mashaqqatlarga to'la, dolg'ali hayoti, so'z usiasi sifatida erishgan yutuqlari keyingi avlodlarga yuksak ibrat namu-nasi bo'lib qoldi.

### Tayanch tushunchalar

Ritorika – notiqlik san'atini o'rgatuvchi fan.  
Logoqrafar – so'zlovchilarga tayyor nutq matnlarini yozib beruvchi kishilar.  
Isokrat, Lisiy, Gipereid, Esxil, Afrikan, Lelij, Galba, Karbon – antik davrining mashhur notiqlari.

### Savol va topshiriqlar

1. Ritorika ilmining shakllanishiga nimalar sabab bo'ldi?
2. Georgiy notiqning eng muhim vazifasi nimadan iborat bo'lishi howim deydi?
3. Nima uchun Afinada notiqlik san'atiga ehtiyoj kuchli bo'lgan?
4. Luluyning logograflik faoliyatini haqidada ma'lumot bering.
5. Notiqlik san'atining qanday turlari bo'lgan?
6. Antoolehing "go'zallik falsafasi" ni tushuniiring.
7. Aristotel va Aleksandr Makedonskiy munosabatlari haqida mima shaxsi olibaz?
8. "Ritorika" asarining asosiy mazmuni nimadan iborat?
9. Notiqlik san'atini egallash uchun zarur bo'lgan beshta asosiy qo'shi inhomiring.

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati haqidada ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 334-bet.

10. Demosfening notiqlik faoliyatiga Sitseron qanday baho beradi?
11. Demosfen qanday sharoitda o'sib-ulg'aydi?
12. Demosfen meros masalasida muvaffaqiyat qozonish uchun nimalarni o'rgandi?
13. Demosfen notiqlik san'atini mukammal egallash uchun qanday kurashdi?
14. Otashin vatanparvar Demosfening nutqlariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
15. "Oltin gulchambar" voqeasini izohlang.
16. Sizningcha, bugungi kunda Demosfen hayoti va notiqlik faoliyatini o'rganishning qanday ahamiyati bor?

### **Adabiyotlar**

1. Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjiması). – T.: Yangi asr avlodи, 2007.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. III to'm. – Toshkent: Fan, 1982.
3. Abu Nasr Forobi. Risolalar. – Toshkent: 1975.
4. Qobiljon Oripov, Mahmuda Obidova. Ifodali o'qish. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.

### **IFODALI O'QISHDA NAFAS, OVOZ VA TALAFFUZNING O'RNI**

#### **Reja**

1. Ifodali o'qishda nafasdan to'g'ri foydalanish.
2. Ifodali o'qishda ovozning ahamiyati.
3. To'g'ri talaffuz – ifodali o'qishning asosi.

**Nafas.** Nutq jarayonida so'zlar orasidagi nafas rostlashlar havoning yangi zahirasini olish va kuchsizlanib borayotgan nafasni tiklash zarurati bilan paydo bo'ladi. Nafas ifodali o'qishning muhim vositalaridan biri bo'lib, u ovoz va nutqni tinglovchiga yetkazishda asosiy o'rinn tutadi.

To'g'ri nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o'qish uchun ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Nutq jarayonida nafas olish

me'yori buzilib, o'rinsiz pauzalar qilinsa, o'qilayotgan matn mazmuni mantiqan o'zgarib, muallif maqsadi tinglovchiga tushunarsiz bo'lib qoladi. Bu haqda prof. N.Mahmudov shunday yozadi: "O'quvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'm nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zottan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi". Darhaqiqat, nutq so'zlash jarayoni, xususan, ifodali o'qish san'ati nafas negizi bilan chambarchas bog'liqdir. Ijrochi – o'quvchining nafas olishi qanchalik to'g'ri bo'lsa, ovozi va nutqi shu qadar jarangdor va kuchli bo'ladi.

Tibbiyotga doir adabiyotlarda nafas olishning quyidagi turlari alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi.

1. Kiftdan nafas olish. Nafas ko'krakning yuqori qismida olinib, kiftlar ko'tariladi. Bunday nafas olish zararli. U kishini tez charchatadi. Me'yorda so'zlashga imkon bermaydi.

2. Ko'krak-qorin orqali nafas olish. Bunday nafas olganda o'rta qovurg'alar, biqin harakatga keladi, ya'ni ular kengayadi.

3. Aralash nafas olish, ya'ni pastki qovurg'alar, diafragma ishtirokida nafas olish. Bunda ko'krak qafasi va kiftlar ko'tarilmaydi. So'zlaganda ravon, hovliqmasdan tabiiy nafas olish, uni kerakli ohang talabiga ko'ra sarflash zarur. S.Inomxo'jayev, A.Zunnunovlar tomonidan yaratilgan "Ifodali o'qish asoslari" o'quv qo'llanmasida nafas faoliyatini yaxshilash uchun quyidagi besh xil nafas mashqi tavsiya qilinadi:

1. Kontrol mashq. Bu nafasning diafragmal-aralash usulda to'g'ri olinishini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladigan mashqdir. Uni o'tkazishda tik va erkin turib, ikki qo'l bilan ikki (oxirgi) qovurg'ani bosib, ohista, chuqur nafas olinadi va yana asta-sekin nafas chiqariladi. Bunda ko'krak qafasi va yelka ko'tarilmaydi. Chuqur nafas yetimcha qovurg'a ustiga qo'yilgan qo'lni ikki yonga ko'taradi. Mashq yaxshi o'zla hittirilgunga qadar muntazam davom ettiriladi.

J. Jumiddin Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Fadrlarasi nashriyoti. – Toshkent: 2007, 180-bet.

2. Qorinni tortish mashqi. Bu mashq chuqur nafas olib, o'pka havo bilan to'ldirilgach, nafasni chiqarmay, "ushlab" turgan holda, qorinni yuqoriga tortish mashqidir. Mashq qorinni tortib turish ko'mikmasi hosil bo'lgunga qadar davom ettiriladi.

3. Sanash mashqi. Bu diafragmal usulda nafas olib, erkin turgan holda, erkin ovoz bilan birdan beshgacha (1, 2, 3, 4, 5 deb) sanash mashqidir. Birdan beshgacha sanalgach, nafas olinadi va mashq yana davom ettiriladi. Keyin sanoq 10 gacha, 15, 20, 25 largacha oshirib boriladi. Mashq davomida ovoz va gavda erkmligi saqlanadi.

4. Musajia' mashqi. Bu mashq doston va ertaklardan olingen ravan, sodda va tasviriy xarakterdag'i saj' tekstlari asosida o'tkaziladigan mashqdir. Bunda matn erkin talaffuz etilgan holda, ikki-uch o'rinda nafas olib, keyin cho'ziq nafas olinadi. Masalan:

"Hasan shunday yigitdi: V husni to'lган oydayin, ming qo'y sotgan boydayin, V qoshu ko'zi yoydayin, qomatlari kelishgan, kiygan to'ni yarashgan, qaragan ko'z qamashgan, yigitlari so'rashgan. V Tomoshaga kelganlar, ancha qizu o'g'lonlar, Hasanxonday lochinni, qizlar to'nab sochini, gul ochilgan bahorda keldi bizning diyorga"

(“Hasanxon” dostonidan)

Bu parchani o'qishda “V” belgisi qo'yilgan o'rinda nafas olinib, keyin talaffuz qilish tempi tezlashtirilib, matn bir yoki ikki nafasda o'qiladi. Mashq paytida, erkin o'qishdan tashqari, talaffuzning aniqli-giga va matnning mantiqiy izchilligiga e'tibor beriladi.

5. She'r o'qish mashqi. Bu mashqda g'oyaviy-badiiy jihatdan yuskak bo'lgan uzun misrali she'rning oldin bir misrasi bir nafasda, keyin ikki misrasi bir nafasda va hokazo tarzda o'qiladi<sup>1</sup>.

## OVOZ

Ifodali o'qish san'atida ovozning ahamiyati beqiyosdir. Ovoz ham, nutq ham insonga Yaratguvchi Zot tomonidan berilgan ilohiy ne'mat hisoblanadi. Shunday ekan, ovozning yoqimli yoki yoqimsizligi bizning ixtiyorimizda bo'lмаган hodisadir. Lekin ovozni o'rniga qo'yish, shakllantirish va uning sohibi bo'lish – inson ixtiyoridadir. Ovozni

<sup>1</sup> Inomxo'jayev S. Zunnunov A. Ifodali o'qish asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1978. 14-15-betlar.

shakllantirish deganda maxsus mashqlar orqali muntazam shug‘ullanib, ovozni chiniqtirib borish tushuniladi.

Ovoz inson oliy asab tizimining mahsuli bo‘lib, uning manbai tomoqda joylashgan tovush psychalaridir. Bu psychalar juda harakatchan, sezgir shilliq pardalardan iborat. Ovoz psychalari inson gavdasiga nisbatan gorizontal holda joylashgan bo‘lib, ikkita yarim shardon iboratdir. Bu yarim sharlarning yoy qismi hiqildaq devorlariga yopishgan o‘rtasi esa uzunasiga ochiq bo‘ladi.

Oliy asab tizimining muayyan signali bilan tovush psychalari titrardi, cho‘ziladi, qisqaradi, g‘oyat nafis harakatlar kompleksini bajaradi, natijada ovoz paydo bo‘ladi. Tashqariga chiqqunga qadar turli qaytar-gichlarga urilib chiqqan tovush **ovozi** deyiladi.

**Ovoz yo‘li.** Psychalardan iborat bo‘lgan tovush chiqadigan bo‘shliq ovoz yo‘li deyiladi. Ovoz yo‘li tomoqning tovush psychalaridan yuqori qismi, og‘iz bo‘shlig‘i va burun bo‘shlig‘idan iborat. Ovoz yo‘lming toza, sog‘lom bo‘lishi ovozning ohangdor, jarangli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

**Qaytarg‘ichlar.** Qaytarg‘ichlar inson organizmidagi qattiq qismlardan iborat bo‘lib, ular **rezonatorlar** deb ham yuritiladi. Inson vujudidagi qaytarg‘ichlar jumlasiga tish, jag‘, tog‘ayning kemirchaklari, burun tog‘aylari, bosh suyagi, ko‘krak qafasi suyaklari va yelka kurakkleri kiradi. Psychalarda bo‘lgan tovush ovoz yo‘li orqali o‘tadi, o‘tish paytida ana shu qattiq jismlarga urilishi natijasida jarangdorlik va turli rang-baranglik kasb etadi.

**Ovoz turlari va tembr.** Inson ovozi baland-pastligi, yo‘g‘on-ingichkaligiga qarab bir necha turga bo‘linadi. Masalan, turlanish jihatidan erkaklar ovozi tenor (baland va ingichka), baraton (o‘rtacha) va bas (past va yo‘g‘on) ovozlarga, ayollar ovozi esa, soprano (o‘rtacha) va alt (past va yo‘g‘on) ovozlarga bo‘linadi. Ovozning “tembri chiroyli”, “tembri xunuk” degan iboralar aslida muayyan shaxsning ovozi sifatiga berilgan bahodir.

**Modulyatsiya.** Nutq so‘zlash jarayonida ovozning balandlashib va pasayib turishi **modulyatsiya** deb yuritiladi. So‘z ijrochiligi san’atida ovoz modulyatsiyasining ahamiyati juda katta. Chunki bir xil ohangdag‘i – monoton ovoz zerikarli bo‘lsa, modulyatsiyaga boy ovoz o‘zining ohangdorligi bilan tinglovchiga xush yoqadi. Ifodali o‘qish san’atini

egallashga kirishgan kishining ovozi tabiatan jarangdor, yoqimli va sog'lon bo'lishi lozim. Insonda quronch yoki g'amg'ilik tuyg'ularini uyg'otishda, qalbini to'qinlantirib, junbusha keltirishda hech narsa ovozchalik ta sirchanlik xususiyatiga ega emasdir, ehtimol.

So'z ustasi tomonidan ovoz toylanishlari orqali o'qilayotgan maz mundor she'r beixtiyor inson qalb torlarini chertib hayajonga soladi yoki mafunkor ovozda jiro etilayotgan qo'shiq tinglovchida yiqimli hissiyotlar uyg'otadi.

Xalq orasida yiqimli ovozning fuqat inson hissiyotigagina emas, balki boshqa jonzotturga ham ta'sir qilish xususiyati haqida aksona va rivoyatlar yaratilgan. Qadim rivoyatlarda ayttilishicha, Dovud payg'ambar dunyoda eng jozibador ovoz sohibi bo'lgan ekan. U kishi Zabur oyathlarini tilovat qilganlarida hatto osmondag'i qushlar ham payg'ambar boshi uzra gir-gir aylanh, ovozlanidan sarxush bo'lib uchib ketolmay qojar ekan.

“Qissai Rabg'uziy”da esa shunday hikoya uchraysi: “Rum viloya- tining odati bor, tevalari chalqliq (sho'x) burunduqlatmasalar yangi tushgan kelimlarni kelturub un tuzub yirayturlar. Tevalar ularning ovozlariga xushhanib o'zlarindan kecharlar – ilikka ilinurlar”. Darha- qiqat, inson ziyнати hisoblangan yiqimli ovozda sehru joziba bor.

So'z ijrochiligi bilan shug'ullanuvchi kishilar, xususan, o'qituvchilarning ovozida ham mana shunday joziba bo'lishi zarur. Jarangdorlik, keng diapazonlik, chidamlilik, o'zgaruvchanlik, tashqi shovqinlarga nishbatan barqarorlik kabi belgilari ovozning jozibadorligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi xususiyatlardir.

Qadimgi dunyoning mashhur notiqlariдан bo'lgan Mark Tulliy Sitseron ovoz toylanishlari va uning inson hissiyotlariga ta'siri haqida shunday deydi: «...agar kimda-kim suxandonlikda birinchini bo'lishni xohlasa, g'azabli joylarda tarang, keskin, sokin joylarda muloyim ovozda gapirsin; past ovoz unga salmoqdorlik, titroq ovoz, ko'ngilni yumshatuvchi kuch baxsh eradi. Faqat uchagina: past, yuqori va o'zgaruvchan ohanglar yordamida taronalarda shunchalik rangin va shunchalik lazzati barkamollikkha erishadigan ovoz tabiatи haqiqatan ham, g'aroyibdir». Boshq'bir o'rinda esa, Sitseron inson ovozin mu siqa asbobining torlariga o'xshatadi: «...inson ovozi har bir tegib keti-

shiga, baland yoki past, tez yoki asta, qattiq yoki sekin javob beradigan (tovush beradigan) torlarga o'xshab sozlangan, har bir turning oraliq tovushlari haqida gapirmasa ham bo'ladi; har bir tur o'z navbatida to-vushning rangin xillariga ega – mayin yoki qo'pol, ezilgan yo to'la, cho'zilgan yoki uziq-uziq, bo'g'iq yoki keskin, uchib borayotgan yoki kuchayib borayotgan tovushlar. Va ushbu tuslardan hech birini bilim va me'yor tuyg'usisiz boshqarib bo'lmaydis».

Vaholanki, inson ovozi musiqa torlariga o'xshar ekan, torlami harakatga keltirish, undan mazmuni ohang taratish yo'llarini o'rganish uchun bilim va to'xtovsiz mashq talab qilinadi. Darhaqiqat, ovozni, nafasni, gavda harakatlarni va nihoyat tilni rivojlantiruvchi mashqlar har bir kishining ovoz imkoniyatlarni chiniqirishga kaitta yordam beradi. Buning uchun esa ko'proq badiy asarlarni ovoz chiqarib o'qish, nafaqat o'qish, balki qayta-qayta mutolaa qilish lozim. Ayniqsa, nasriy yoki she'riy asarlardagi ovoz o'zgarishi bilan bog'liq o'rinnlarga, asar qahramonlarining ruhiy holatlari bilan bog'liq bo'lgan dramatik lavhalariga alohida e'tibor qaratish va ovoz chiqarib o'qish zarur.

Masalan: Asarda qahramonning keskin tug'yonи, g'azabi chitrosli shiddatlari, ba'zan uzug-yuhuq ovoz bilan ifodalanadi (o'qiladi).

Masalan, Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi” romanidan olin-

gan quyidagi parcha asarni o'qib ko'raylik:

– O'z qiblagohiga qilich ko'targan senday razil xunrezni nechun yer yutmaydi? Nechun osmon og'darilib boshingga tushmaydi? – Abdulaziz, taqir boshini sarak-sarak qilib, ko'zlarini sovuq chaqnaq yaqinlashib kelardi. Abdullaif devorga suyangancha qilichini ko'tardi, lekin Abdulaziz to'xtamadi, u hamon iyagi qaltilrab, tishlari shaqillab yaqinlashib kelardi, – mehribon, buzrukvorim!... Ne qilding, mal'un padarkush?... – Abdulazizing ko'zlanidan tirkirab oqqan yosh temechi-lari qorayib ketgan so'lgin yuzini selday yuvib taralmay patak bo'lib ketgani soqoliga quyillardi.

Qo'rqinch esa, ezilgan dovdiragan va g'amg'in ovoz bilan ifodala-mi.

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjiması). – Toshkent: Yangi asr avlodli, 2007. 346-bej.  
avlodli, 2007. 320-321-bellar.

Salohiddin zargar yuragi uvishib: – Pirim, – dedi ovozi qaltirab. – Shu kecha Ko'ksaroydin sipohlar kelib, yolg'iz farzandim... mavlono Muhiddinni olib ketgan edilar. Qaytib kelmadi, pirim... Hazratning lablariga bilinar-bilinmas kulgi yugurdi. – Qaytmasa... surriyotingiz mavlono Muhiddin shahzodaga yoqib qolgandur?... – Pirim... – Beayb parvardigor... osiy banda... gunohini afv etgaysiz, pirim!

**Dadillik** – tarang, qat'iy, jadallik va shafqatsizlikni bildiruvchi g'azabnok ovozda ijro etiladi.

Ali Qushchi omburday metin panjalari bilan uni bilaklaridan ushlab qattiq siqdi.

– Tort qo'lingni, shahzoda! – dedi hansirab. – Tilasang shamshiringni olib chopib tashlarsen, tilasang, zindoningda chiritarsen! Ammo qo'lingni tort yoqamdin!

U shahzodaning qo'llarini yoqasidan uzib, ko'kragidan itarib yubordi. Mirzo Abdullatif gandiraklab borib taxt oldiga, zinaga qoqilib ketdiyu, oltin kursini ushlab qoldi. U nima bo'lganini tushunolmay, bir zum talmovsirab turdi, keyin ovozining boricha: – Saroybon! Amir Jondor! Kim bor?! – deb baqirdi.

Asardagi quvonch tuyg'usini ifodalagan o'rinalar ochiq, yumshoq, nozik, shodon va yengil ovoz bilan o'qiladi.

Qalandar ko'zlarini ochishga majoli yo'q, o'zicha jilmaydi:

– Aytmishlarkim, ravzai rizvonda husnda tengsiz hurliqolar bo'lar emish. Bo'lsa bordur. Va lekin faqirga o'shal tengsiz jannatingni ato qilsang, husnda benazir hurliqolaringga qaramas edim.

– Nechun? – kuldi Bonu.

– So'rab ne qilasiz? Faqir barcha hurliqoyu farishtalarni tark etib, Ollordan yolg'iz sizni tilab olar edim.

Tushkunlik esa, bosiq, bo'g'iq va noxush, qattiq ovoz bilan ijro etiladi.

Mirzo Ulug'bek ko'zlarini yungancha sekin uf tortdi, peshonasida-gi ajinlari quyuqlashib, so'lg'in chehrasida bo'lakcha bir g'amginlik aks etdi. – Yo'q! – Mirzo Ulug'bek sekin bosh chayqadi. – Ali Qushchi yashirinmog'i lozim. Uni qidirmishlar. Va lekin... kitoblar qayda?

Men buni bilmog‘im darkor. Toki... musofir yurtga ketmoqdamen. O‘z elimga qaytmoq nasib bo‘lurmu, yo‘qmu – buni faqat Haq taolo bila-dur, darvesh...

Demak, ovoz o‘zgarishi asar voqealarining kechishi bilan, qahramonlar xarakteri va ruhiy holati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ifodali o‘qish jarayonida ovoz asta-sekin ko‘tarilsa maqsadga muvofiqdir, chunki dabdurustdan baqirib o‘qishdan boshlash – qo‘pollikdir. Ijroda ovozni asta-sekin ko‘tarish foydali, chunki ovoz bundan kuchayadi. Ammo ovozni ko‘tarishda chinqirib baqirishgacha yetib bormaydigan chegara bo‘lishi lozim. Taniqli tilshunos olim Hasanboy Jamolxonov nutqda ovoz tovlanishlari va uning gapdag‘i ahamiyati haqida shunday deb yozadi: ‘Nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to‘lqinlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa, gapning ifoda maqsadiga yoki emotsiyonallikka ko‘ra turlarini belgilashda, sintag-malarni, kirish so‘z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg‘u, intonatsiya, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilik maqsad-larda, ayniqsa, she’riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib top-tirishda foydalaniлади<sup>1</sup>. Binobarin, ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foy-dalamish ifodali o‘qishda beqiyos ahamiyatga egadir.

**Mashq.** She’rni o‘qing. Ovoz o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘rinlarni bel-gilang. Ovoz tovlanishlarining sababini tushuntiring.

### O‘zbekiston

Bu dunyoda chamanlar ko‘p,  
Bu dunyoda vatanlar ko‘p.  
Barchasida yashnar gullar,  
Barchasida yayrar dillar,  
Menim uchun aziz bo‘ston –  
O‘zbekiston, O‘zbekiston!

<sup>1</sup> Hasanboy Jamolxonov. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. –Toshkent: Fan, 2009. № 82-betlar.

Chorlar ezgu yo'llar meni,  
Ajdodlarim qo'llar meni.  
Bu Vatanda to'kmasman yosh,  
Bu Vatanda egmasman bosh.  
Mening uchun aziz bo'ston –  
O'zbekiston, O'zbekiston!

Sahrolar gul ochar senda,  
Samolar nur sochar senda.  
Yulduzlarining so'nmasin hech,  
Bag'ringga g'am qo'nmasin hech,  
Mening uchun aziz bo'ston –  
O'zbekiston, O'zbekiston!

(M. Mirzo)

### Ovoz va nafasni chiniqtiruvchi mashqlar

Ovoz va nafasni chiniqtirish uchun *m, n, ng, l, r* sonor tovushlariga unlilarni qo'shib talaffuz qilish mashqlari ham yaxshi natija beradi. Shuningdek, tez aytish mashqlari ham ba'zi tovushlarni to'g'ri talaffuz etish ko'nikmalarim hosil qiladi.

**Mashq.** Berilgan harf birikmalarini to'g'ri talaffuz bilan o'qing. Har bir qatorni bir nafasda o'qishga harakat qiling:

*mi, me, ma, mo, mo', mu, mi;*  
*ni, ne, na, no, no', nu, ni;*  
*li, le, la, lo, lo', lu, li;*  
*ri, re, ra, ro, ro', ru, ri.*

**Mashq.** Tez aytishni mashq qiling.

Durdonaning marjoni bir dona, u ming dona danak mag'zidagin tuzilgan.

*Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uzun quloq.*

*Tilim-tilim tilla qovunning to'rt tilimi tilimni tildi.*

Husayn Voiz Koshifiy inson hayotida ovozning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Hatto ovozining baland yoki pastligi, yo'g'on yoki ingichkaligiga qarab o'sha insonning xarakter xususiyatini

ham aniqlash mumkinligi haqida shunday ma'lumot beradi: “**Ovozning baland yoki yo‘g‘onligi shijoat nishonasidur, mo‘tadil ovoz tadbiru har ishga yaxshi saranjom bermakning mishonidur**”<sup>1</sup>. Xullas, inson ovozining sifati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, uni chiniqtirib va tarbiyalab borishi, ovoz imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishi lozim. Ay-niqsa, so‘z ijrochiligi bilan shug‘ullanuvchi kishilarning ovozi yoqimli, baland va jarangdor, talaffuzi aniq va ravshan, so‘zлari ma’nodor va ifodali bo‘lishi juda muhimdir.

## TALAFFUZ

Nutq texnikasida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish alohida ahamiyat kasb etadi. So‘zlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish uchun o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur billysh, ayniqsa, fonetika va fonologiya oid bilimlardan xabardor bo‘lish, adabiy til doirasida yagona talaffuz normalarini belgilovchi orfoepik qoidalarga amal qilish talab etiladi. Agar kimda-kim ushbu qoidalarni yaxshi bilmas ekan, to‘g‘ri talaffuz, nazokatli nutq haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Mark Tulliy Sitseron notiqlik san’atida talaffuzning beqiyos ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritar ekan, “Notiq” nomli asarida shunday deb yozadi: “...hatto so‘z ne’matidan benasib odamlar ham ifodali, yaxshi talaffuz tufayli suxandonlik mevasini terganlar, ko‘pgina suxanoro odamlar esa, yomon talaffuz tufayli no‘noq hisoblanganlar. Shuning uchun ham, Demosfen birinchi, ikkinchi va hatto uchinchi ish ham talaffuzdir, degan. Va agar talaffuzsiz suxandonlik yo‘q ekan, talaffuz suxandonliksiz ham shunday kuchga ega ekan, u holda so‘zsiz (albatta) notiqlik san’atida uning ahamiyati ulkandir”<sup>2</sup>.

Ba’zi so‘zlar yoki so‘z tarkibidagi tovushlar, qo‘sishchalar o‘zbek so‘zlashuv nutqida, ayniqsa, shevalarda turlicha talaffuz qilinadi. Shevalar ta’siridan qutulish uchun o‘zbek adabiy tilini yaxshi o‘rganish bilan bir qatorda, badiiy asarlarni ko‘proq o‘qish, ayniqsa, mumtoz asarlarni mutolaa qilish yaxshi natija beradi. Nutq jarayonida shevalar ta’siriga berilish ifodalni o‘qishga putur yetkazadi, qo‘pol va to‘pori talaffuz hilan so‘zlarni pala-partish ifodalash esa, tinglovchining g‘ashiga tegadi.

<sup>1</sup> Ravshanbek Mahmudov. Degonimni ulusqa marg‘ub et... –T.: O‘zbekiston, 1992, 87-bet.

<sup>2</sup> Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). –Toshkent: Yangi asr avlodli. 2007. 346-bet.

“Yozma matndagi so‘zlarni harflarga ko‘ra aynan o‘qish ham adabiy talaffuz me’yorlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, o‘qidengiz so‘z shaklini yozilganiday 9 ta emas, 8 ta tovush tarzida talaffuz qilish me’yor, ya’ni “n+g” ikki tovush emas, balki ng tarzidagi bir tovush. Shunga qaramay, aksariyat o‘qituvchilar ham *Uy vazifasini bajardin-giz-mi? O‘rtog ‘in-gizga yordam berdin-gizmi?* O‘rnin-gizdan turing! tarzida adabiy talaffuz me’yorlarini buzadilar. Yoki ba’zilar tonna, nota, tok, talon, tort, futbol, boks kabi o‘zlashma so‘zlardagi “o” harfini adabiy talaffuzga “o” emas balki “o” tovushi tarzida noto‘g‘ri talaffuz qiladilar”<sup>1</sup>.

Professor N.Mahmudov ta’kidlaganidek, hatto oliv ma’lumotli katta kishilar o‘rtasida ham so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish hodisasi uchrab turadi. Ayniqsa, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi “-ning” bilan tushum kelishigidagi “-ni” qo‘shimchalarini ajrata olmaslik yoki “h” va “x” harflarining farqiga bormaslik holatlari so‘z ma’nolarining buzilishiga, jumlalar tuzilishdagi g‘alizliklarga olib keladi. Qisqa qilib aytganda, qaysi so‘zning qanday talaffuz etilishi so‘zlovchiming savodxonlik darajasi, bilimdonlik saviyasi bilan bog‘liq. Chunki fikr ravshanligi ifoda ravshanligini ta’minlaydi.

Shartli ravishda talaffuzni ikki turga ajratish mumkin.

1. Kundalik hayotdagи oddiy so‘zlashuv talaffuzi. 2. Ifodali o‘qish san‘ati bilan bog‘liq ijrochilik talaffuzi.

Ifodali o‘qish san‘atidagi talaffuz kundalik hayotdagи oddiy so‘zlashuv talaffuzidan ohangdorligi, ta’sirchanligi ovoz tovlanishlari va adabiy til qoidalariga qat‘iy rioya qilinishi bilan ajralib turadi. Ifodali o‘qishda ijrochi nutqidagi tovushlar beqaror, ovoz tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Ijrochi ovozidagi ohangdorlik va so‘zlearning chiroyli talaffuz qilinishi kishining ruhiy holatiga ta’sir qilib, yaxshi kayfiyat uyg‘otadi.

Nafas olish, tovush hosil qilish va uning talaffuzi bir-hiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisalardir. Bularning har biri miyaning, oliv asab sistemasining faoliyati bilan boshqariladi. Ma’lum lug‘aviy ma’no tashuvchi yoki grammatik vazifa bajaruvchi so‘z shaklini talaffuz qilish uchun berilgan belgi nafas olishni, nafasni o‘pkadan chiqarish orqali unli va undosh tovushlar birikmasini yuzaga keltiradi. Tovushlarning

<sup>1</sup> Nizomiddin Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007, 59-bet.

sifati, jarangdorligi nutq a'zolarining tuzilishi va talaffuz jarayonida qanday ishtirot etganligiga bog'liq.

Nutq organlarining ma'luni bir tovushni hosil qilish paytidagi harakati va holati **artikulyatsiya** deyiladi. Nutq tovushlarining aniq yoki noaniq talaffuzi artikulyatsiya apparatining faol yoki nofaolligiga ham bog'liqdir. Ifodali o'qishni o'rganish uchun, avvalo, nutq tovushlari-dagi nuqsonlarni bartaraf etish lozim. Shundagina talaffuzda aniq va yorqinlikka erishish mumkin. Buning uchun quyida ko'rsatilganidek, xilma-xil diktsion mashqlar qilish ham yaxshi natija beradi:

#### **Unli tovushlar mashqi.**

**1-mashq.** Unli tovushlarni aniq-ravshan va adabiy talaffuz etish:

i-e-a-o-o'-u-i;

**2-mashq.** Unlilarни kombinatsion talaffuz etish.

i-e, i-a, i-o, i-o', i-u;

e-i, e-a, e-o, e-o', e-u;

a-i, a-e, a-o, a-o', a-u;

o'-i, o'-e, o'-a, o'-o, o'-u;

u-i, u-e, u-a, u-o, u-o'.

Shuningdek,

i-e, i-e, i-e;

i-a, i-a, i-a;

e-a, e-a, e-a;

o-o', o-o', o-o'.

**3-mashq.** Unli tovushlar ko'p uchraydigan tez aytish va she'riy, nasriy matnlarni o'qish.

#### **II. Undosh tovushlar mashqi**

**1-mashq.** P-B, K-G, T-D, S-Z kabi juft undoshlarni aniq different-siatsiya bilan talaffuz etish mashqi:

P-B, P-B, P-B.

Bu tovushlarni talaffuz etishda har bir tovushning fonetik xususiyati, uning jarangli va jarangsiz, portlovchi yoki sirg'aluvchi ekanligi hisobga olinadi.

**2-mashq.** Undosh tovushlarga unli tovush qo'shib, bo'g'in hosil qilish:  
Pi-pe-pa-po, po', pu, pi;

*Bi-be-bo-po'-pu-pi;  
Bippi, beppe, bappa, boppo, bo'ppo', buppu, beppe'*

8. So'zlarini to'g'ri talaffuz qilishga o'rGANISH, shevalar ta'siridan qutulish uchun nima qilish kerak?

9. Mark TULLIY SITSERONNING notiqligida takaftuzning ahamiyati.

### Adabiyotlar

1. N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
2. S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Sitserton. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimas). – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.
4. H.Jamolxonov. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
5. R. Mahmudov. Degonimni ulusqa marg'ub et... – Toshkent: O'zbekiston, 1992.

### Tayanch tushunchalar:

Nafas – ifodali o'qishning muhim vosisasi.  
Ovozni shakkantirish, ovoz turlari.  
Modulyatsiya – so'zlash jarayonida ovozning balandlab va pasayib turishi.  
Artikulyatsiya – nutq organlarining ma'lum tovushni hosil qilish paytdagi harakati va holati.

### Savol va topshiriqlar:

1. Nutq jarayonida to'g'ri nafas olishning ahamiyatini tushuntirin.
2. Nafas olishning qanday turlari mayjud?
3. Nafas faoliyatini yaxshilash uchun tavsiya qilingan mashqlar turini ayting.
4. Ovozni shakkantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Ovoz qaytarg'ichlari nimalardan iborat?
6. Modulyatsiya hodisasi nima, uning ifodali o'qishda qanday ahmiyati bor?
7. Mark TULLIY SITSERON ovoz tovlanishlari va uning nutqdagi ahamiyati haqida qanday fikr bildirgan?

<sup>1</sup> Dikision mashqlari // S.Inomxo'jayev, A.Zunnunovlarning "Ifodali o'qish asoslari" kitobidan olindi. 16-17-mashqlar.

### IFODALI O'QISH VOSITALARI

#### Reja

1. Urg'u va urg'u turlari.
2. Pauza. Pauza turlari.
3. Ifodali o'qishda pauzaning ahamiyati.

So'z bo'g' inlaridagi umli tovushlardan biriming yoki gap tarkibidagi ayrim bo'laklarning boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan alohida ta'kidlab aytishi urg'u deviladi. Urg'u so'zlarini to'g'ri talaffuz qilish va ma'noni to'g'ri anglashda muhim o'rinn tutadi. Ko'pgina lingvistik adabiyotlarda urg'u, asosan, ikki tipga ajratib ko'rsatiladi: So'z urg'usi va mantiqiy urg'u. Professor Hasanboy Jamolxonov "O'zbek tilining nazariy fonetikasi" kitobida urg'u haqidagi fiki-qarashlarga yanada aniqlik kirilib urg'uni quyidagicha uch tipga ajratadi:

- 1) So'z urg'usi; 2) Sintagma urg'usi; 3) Ayiruv (ta'kidlov) urg'usi.
1. **So'z urg'usi** tushgan bo'g'indagi umli shu so'zning boshqa

<sup>1</sup> Hasanboy Jamolxonov. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009, 164-169-betlar.

bo'g'inlaridagi unli tovushlarga qaratganda kuchliroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. O'zbek tilida so'z urg'usi, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Masalan: *yaproq*, *o'qituvchi*, *quyosh*, *bola*. So'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u ham so'z oxinga qarab ko'chadi: Masalan: *bola*, *bolalar*, *bolalarga*, *gulzor*, *gulzorlar*, *gulzorlarning*.

Kamdan-kam uchrasa-da, o'zbek tilida leksik urg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydigan so'zlar ham mayjud:

1. Olmosh turkumiga kiruvchi ba'zi so'zlarda: *hamma*, *barcha*, *jami*, *kimdir*. Ushbu so'zlarda qo'shimcha qo'shilganda ham urg'uning o'mi o'zgarmaydi: *hammasi*, *hammaga*, *hammadan*, *barchasi*, *barchadan*, *barchanining* va hokazo.
2. Ravish turkumidagi ayrim so'zlarda: *döim*, *hamista*, *äslö*, *yangi* (hozir ma'nosida), *mardarcha*.
3. Modal so'zlarda: *zero*, *aßuski*, *albatta*.
4. O'zbek tiliga cheitdan kirgan o'zlashma so'zlarda: *respülika*, *rúchka*, *radio*, *redaktor*, *kompuyuter*.

Ushbu so'zlardagi urg'u tushgan unli tovushlar biroz cho'ziq va aniq talaffuz qilinadi.

Matmi ifodalari o'qishda so'z urg'usining ahamiyatini katta. Birinchidan, so'z urg'usi to'g'ri talaffuz me'yorlarini belgilashda yordam beradi. Ikkinchidan, leksik urg'u so'z ma'nolarini farqlash uchun ham xizmat qiladi. Masalan: *Olma* (ot) inson salomatligi uchun *ni-hoyatda joydali bo'lgan mevadir*. *Sen hech qachon birovning narsasi ruxsasiz olma* (harakat). Ushbu jumlalardagi shakldosh bo'lgan olma so'zida urg'u turli o'rinnlarda tushadi va turlicha talaffuz qilinadi. Bunday holatni *atlas* (mato), *atlasm* (geografik atlas), *qishlogcha* (ot), *qishloqcha* (ravish) kabi so'zlarda ham kuzatish mumkin. Ba'zan xalq qo'shiqlarida, xalq dostonlarida, muntoz adabiyot namunalarida ham shakldosh so'zlar uchraydi. Bunday hollarda matnni ifodalai o'qishga kirishishdan oldin shu so'zlarning ma'nosini tushunish va urg'u tushgan bo'g'inni aniqlash lozim bo'ladi.

II. "Sintagma urg'usi – nutq oqimining ma'no jihatdan muhim bo'lgan qismini (sintagmani) alohida ta'kidlash, ajratish uchun qo'llanilgan urg'u. Sintagmani aniqlash mezoni ikkitadi: a) semantik mezon; b) sintaktik mezon. Bu mezonlar sintagmaning grammatik-se-

mantik jihatdan yaxlit, hir-butun konstruktsiya ekanligidan kelib chiqadi. Sintagma urg'usi fraza (gap) ichidagi mazmunun yaxlit, grammatik jihatdan bir butun bo'lgan qismni maxsus ta'kidlash, uni shu fraza (gap) ichidagi boshqa sintagmalardan ajratish uchun xizmat qiladigan fonezik visitadir"<sup>1</sup>.

Mana shu qoidaga asoslanib quyidagi gaplarni sintagmalarga ajratib ko'raylik:

1. "Ergash shoir qahramonlarning taqdiri xalq bilan bog'liq ekanligini o'zining Go'ro'g'li haqidagi termalariда juda yorqin ifodalagan"
- a) "Ergash shoir qahramonlarning taqdiri"; b) "xalq bilan bog'liq ekanligini"; v) "o'zining Go'ro'g'li haqidagi termalariда"; g) "juda yorqin ifodalagan".
2. "Ergash shoirdagi hofiza quvvatining kuchliligi kishimi hayratga soladi".
- a) "Ergash shoirdagi hofiza quvvatining kuchliligi"; b) "kishimi hayratga soladi".

Dastlabki gapdagisi sintagmalardan birinchisi alohida urg'u (sintagma urg usi) bilan yakunlangan bo'lib, uning fonetik tabiatini quyidagi belgilarga ega: sintagma oxiridagi "taqdiri" so'zining so'nggi bo'g'ini ochiq bo'g'in bo'lib, bu bo'g'indagi "i" unlisi cho'ziq talaffuz qilinmoqda, tovush tomi ko'tarilgan, kuchi esa intensivlashgan (zarb belgisi) bu hol shu sintagmaning ma'nosini alohida ta'kidlash lozimligidan dalolat beradi. Sintagma urg'usidan keyin kelgan qisqa pauza birinch va ikkinchi sintagmalarni bir-biridan ajratish vazifalarini bajargan. Kuzatilgan maqsadga ko'ra, sintagma urg'usining o'mi o'zgartirilishi ham mumkin. Bunday holatda sintagma urg'usining o'mi o'zgartirilishi bilan gapning mazmunida ham o'zgarish sodir bo'ladi.

Qiyoslang:

Ega

kesim

1. *Bu ollyjanob inson / Muhammadning ustozidir.*
2. *Bu / ollyjanob inson Muhammadning / ustozidir.*

Birinchi gapda ustoz ollyjanob, ikkinchi gapda esa Muhammad ollyjanob ekanligi anglashildi. Sintagma urg'usidan keyin ba'zan vergul qo'yiladi, ba'zan qo'yilmasligi ham mumkin. Ifodalai o'qishda sintagma

<sup>1</sup> Hasanboy Jomolxonov. O'zbek tilining mazary fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009, 167-bet.

urg'usining o'mini to 'g'ri belgilamaslik – gapning mazmuni va ifodali nutqqa jiddiy putur yetkazadi.

Sintagma urg'usining ahamiyati shundaki, u pauza, so'z yoki jumalarning bo'limib-bo'linib, tezyoki sekin o'qilishi, ovozning ko'tarilishi yoki pasayishi kabi intonatsiya vostitalarining reallashuviga imkon beradi.

III. "Ayriv urg'usi – gap bo'laklaridan birini alohida ta'kidlash uchun yoki so'zlovchining his-hayajoni, vogelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'u. U ikki turga bo'linadi: logik urg'u (mantiq urg'usi) va emfatik urg'u".<sup>1</sup>

I. Logik urg'u lingvistik adabiyotlarda ba'zan gap urg'usi, mantiq urg'usi, mantiqiy urg'u, ma'nou urg'usi nomlari bilan ham yuritiladi. Har bir nutq bo'lagi, misra yoki bandda shunday muhim so'zlar uchraydiki, ular shu bo'lak, misra va bandning mag'zini o'zida aks ettiradi. Bunday so'zlar mantiqiy urg'u olgan so'zlar bo'lib, ularni alohida ta'kidlash yoki ovozni kuchaytirish orqali ifoda qilinadi.

Matnda mantiqiy urg'u olgan so'zlar har doim ham aniq bilinib turmaydi. Shu boisdan ham, asarni ifodali o'qishga kirishishdan oldin, matnni bir necha marta o'qib, g'oyaviy-badiiy xususiyatini aniqlash, muanif maqsadini tushunish lozim bo'ladi. Mantiqiy urg'u olgan so'zni izlayotganda badiiy asardagi uyushib kelgan va ma'noni kuchaytirish uchun qo'llangan takroriy so'zlarga hamda ayrim gaplardagi ta'kidlovchi so'zlarga alohida e'tibor berish kerak. Odadta mantiqiy urg'u olgan so'zdan keyin qisqa pauza qilinadi. Masalan: Quyidagi she'riy parchalarni o'qib, mantiqiy urg'u olgan so'zlarga e'tibor beraylik.

Sen qalbimda o'chmas suratsan,  
Qanday qilib seni sog'inmay?  
Suvlar go'yo menga oqqanday,  
Qarayman-da, dil ovutaman!  
Ortiq chanqovlikda o'stingan  
**Gulzorim hor, oq gullarim hor,**  
Ular seni taniydi ko'pdan,  
Ular senga ko'pdan intizor.

\* \* \*

Jahonda ikki dillbarning  
Biri sensan, biri Laylo.  
Jahonda ikki oshiqning  
Biri menman, biri Majnun.

Jahonda ikki yulduz bor:  
Biri sensan, biri Zuhro,  
Misoli ikki nuqtamning  
Biri ostin, biri ustun.

(Erkin Vohidov)

She'riy parchalardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar, mantiqiy urg'u olgan so'zlar bo'lib, ular she'ming mazmun-yo'nalishini belgilab beradi. Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, lirk qahramonning kayfiyatini, ichki kechinmalarini ochishga xizmat qiladi.

**Quyidagi matnda mantiqiy urg'u qaysi so'zlarga tushishini aniqliqang Matnni Ifodali o'qing.**  
Mirzo Ulug'bek kechasi bo'lsa ham, Samarqandni bir aylanmoq, tanish ko'chalar, dahalardan o'tib, dorussaltana bilan vidolashmoq, Go'ri Amirga burrov kirib, bobosi bilan padari buzrukvorining sag'analarini tavof qilmoq, keyin yo'lga tushmoq niyatida edi. Lekin otga minishlari bilan ulami qurshab olgan suvoriylar pastga, Registon tomonga yo'i olishdi.

"Ne qilay? Bu ayovsiz shahzoda qalbringga sajda qilmoqqa ham ijozat bermadi. O'zing afv etgaysen, jannatmakon!" – Mirzo Ulug'bek, Go'ri Amir tomonga qaray-qaray, ichida tilovat o'qib, yuziga fotiha tortdi-da, otiga qanchi bosdi. Silliq tosh yotqizilgan jumjit ko'chalar laqa qoqligan ot tuyoqlaridan qarsillab ketdi..."

(Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi")

**II. Emfatik urg'u (emotionsal urg'u).** "Urg'uning bu turi ham bitor gap bo'lagini alohida ta'kidlashga asoslanadi, ammo logik urg'uda

<sup>1</sup> Hasanboy Jamolxonov. O'zbek tilining nazary fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009, 169-bet

bo'lakning (so'zning) ma'no tomoni ta'kidlansa, emfatik urg'uda shu ma'no bilan birga so'zlovchining his-hayajoni, voqelikka bo'lgan sub'ektiv munosabatini ifodalash ham maqsad qilinadi: bu urg'u gapdagi so'zning ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi”<sup>1</sup>.

Masalan: *Eh, qanday go'zal tog'lardagi qip-qizil lola.* Ushbu gapda *qanday go'zal* birikmasiga emfatik urg'u tushgan:

**Mashq.** Quyidagi matndan emfatik urg'u olgan so'zlarni aniqlang. Matn mazmunini yaxshi tushunib olganimizdan keyin, ifodali o'qishni mashq qiling.

Xurshida bonuming xayollari quyunday to's-to'polon bo'lib ketdi.

– Dadajon! – dedi u yuragidagi dahshatli shubha bilan olishib. – U bechora... bechora mavlononing ahvoli og'irmu? Mavlono Muhiddin qiziga qaramay bosh irg'adi.

– Og'ir, qizim, og'ir...

– Nechuk u bechorani qiyaydilar? Nechuk zindondan chiqarmaydilar, dadajon?

Mavlono Muhiddinin chehrasidagi qizillik ohista so'nib, yuzi yana oqara boshiadi, so'rrayib qolgan uzun burnining kataklari kerildi.

(Odil Yoqubov. “Ulug‘bek xazmasi”)

**Mashq.** She'rni o'qib, emfatik urg'u olgan bo'laklarni aniqlang. Ifodali o'qishni mashq qiling.

Ayting, nima qilay,  
Qanday yashayin?  
Nima qilib qo'ydim o'zimni?

Ko'chalarda itdek sang'idim.  
G'imgshidim o'tgan-ketganga,  
Bog'lab oling itingizni.

Ko'zimga bir yulduz yiqildi,  
Eridi, aylandi bir toshga.  
Teshib o'tdi kaftimni.

<sup>1</sup> Hasanboy Jamolxonov. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. –Toshkent: Fan, 2009, 169-bet.

Eh, qandayin kun edi, hilmam,  
Toshoynaga urilib sindi  
Uchib-uchib yurgan musicha.

Sahrolarning podshosi qani?  
Qani vishillagan yovuz ilonlar?  
Nahotki, bir o'zim qoldim sahroda.

(R.Parfi)

## PAUZA

Pauza (pausis) yunoncha so'z bo'lib, to'xtash, tinish degan ma'noni bildiradi. Demak, nutq davomidagi to'xtamlar pauza deyiladi. Pauza ifodali o'qishda eng muhim vosita bo'lib, u nutqning yorqin va ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi. Zero, to'xtovsiz, nafas olmay uzluk-siz qilinadigan nutq qo'pol va nazokatsiz bo'lib tuyuladi, chunki in-sonning eshitish qobiliyatida me'yor tuyg'usi mavjuddir. Har bir narsa yoki hodisada me'yor bo'lganidek, nutqning ham o'z me'yori va ma-romni mavjud. Nutq jarayonida so'zlarning ketma-ket oqimi davomida ma'lum bir bo'laklardan keyin to'xtab tin olish, nutqning bir me'yorda bo'lishiga, ravon va yoqimli kechishiiga xizmat qiladi.

Pauza she'riy asarlarda misralar orasidagi turoqlarning oxiriga tu-shadi, ayrim so'z yoki so'z birikmalarini bo'rttiradi, ularning ma'no va ahamiyatini ta'kidlaydi, she'riy nutqqa his-hayajon bag'ishlaydi.

Pauza asarning janr xususiyati, mazmuni va sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan hodisadir. Ayniqsa, she'rdagi bayt yoki bandlar she'riyatning tugallangan bir bo'lagi sifatida doimo pauza bilan bir-biridan ajraladi.

Nutqdagi o'rni va bajaradigan vazifasiga ko'ra, pauza bir necha tur-larga ajratiladi.

**Grammatik pauza.** Ma'lumki, o'zbek tilida nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, ko'p nuqta, vergul, ikki nuqta, tire, qavs, qo'shtironq kabi tinish belgilari mavjud. Gapirish jarayonida mazkur tinish belgilari-iga rioya qilgan holda nutq amalgga oshiriladi. Masalan, vergulda ozroq, nuqtada ko'proq, uch nuqtada yanada ko'proq pauza qilinadi. Shuning-dek, boshqa tinish belgilari pauzasi ham o'ziga xos. Demak, tinish belgilariiga asoslangan pauza grammatik pauza deb yuritiladi. Masalan:

### Nuqta qo'yilgan o'rirlarda pauza:

Har kim o'z baxti, o'z dardi bilan band,  
Tur mush qozonida qaynab yotamiz.  
Kuni kecha edik o'zimiz farzand,  
Bugun farzandlarga ona, otamiz.

(E. Vohidov)

Vaqt tun yarmidan oshgan. Rasadxona teran sukutda. Odatdagiday, kechasi samoviy holatlarni kuzatib o'tirgan mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi bir payt vujudida xiyol noxushlik sezib, o'rnidan turdi. Lekin qo'llaridagi olatlarni (asboblarni) joyiga qo'yib ulgurman-gan ham ediki, qayerdadir yuqorida, birinchi oshiyonada, oyoq tovush-lari eshitildi. Bu tovushlar rasadxona tolibi ilmlarining sharpasiz odim-lariga o'xshamas, sipohlarning betakalluf qadamlarini eslatardi.

(Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi")

Keltirilgan she'riy parcha ham, nasriy matn ham mazmunan darak gaplardan tashkil topgan. Darak gaplar, odatda, tinch ohang bilan o'qiladi va nuqtadan keyin ma'lum muddat pauza qilinadi.

**So'roq belgisi qo'yilgan gaplarda pauza.** So'roq gap orqali so'zlovchi o'zi bayon qilgan fikrga suhabatdoshini fikr bildirishga undaydi. So'roq gaplardagi pauzada so'roq ohangi ustivorlik qiladi:

– Bu yerni kim obod qilgan? Bu og'ir toshlarni kim olib kelgan? – dedi Asqar ota va o'z-o'ziga javob berdi. – Kim olib kelardi?! Bu yerga memi kim olib keldi? Shunday odamlar ham bo'ladiki, tug'ilganda hech kim sevinmagan bo'lsa ham, o'lganda butun yurt aza tutadi. Qizim, Bahri, shunaqami? Shunaqami, Sobiraxon?

(Abdulla Qahhor)

So'roq gaplarning yana bir turi ritorik so'roq gaplardir. Bunday gaplarda yashirin tasdiq, yashirin inkor, taajjub, tashvish, g'azab, gumon, kuchli hayajon ma'nolari ifodalanishi mumkin. Shuning uchun ham, ritorik so'roq gaplardagi pauza ifodali nutqqa kuchli emotsionalitik, yorqinlik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

O'rtada taloshdur kechmish va bu kun,  
Tuproq sochar, ingrар, qo'ltig'ida tig'.  
Axir haqiqat bor, valvala nechun?  
Buncha osmon yiroq, huncha yer qattiq?!

Aqlu hushdan ayro, vola munajjim,  
Rad bo‘lmish, olamdan ko‘zin yumdi jim.

Muhabbat ne o‘zi? Nadir sadoqat?  
O‘zingdan ming bora so‘rarsan o‘zing.  
Titrab toqatingga tilarsan toqat,  
Aytursan xilqatga ilohiy So‘zing.

(Rauf Parfi)

Alisher Navoiyning “Qoshi yosinmu deyin...”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Charxning men ko‘rmagan javru jafosi qoldimu!?” deb boshlanuvchi g‘azallari ritorik so‘roqning go‘zal namunalaridir.

**Undov belgisi qo‘yilgan gaplarda pauza.** Undov belgisi qo‘yilgan gaplarda kuchli his-hayajon tuyg‘ulari ifodalananadi. Ba’zan buyurish, tilak, orzu ma’nolari ham mujassamlashgan bo‘ladi. Og‘zaki ijroda mazkur holatlarni pauza orqali namoyon qilish nutqni yanada ta’sirchan qildi. Masalan:

Azizlar! Sizni yurtimiz mustaqilligining o‘n sakkiz yillik bayrami hilan qizg‘in tabriklayman! Osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch, mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

**She’rlar mazmunini izohlang va pauzalar o‘rnini belgilang.**

Bir to‘kilgin!  
Taningda o‘t yonsin, o!  
Ezgulikni yuragingga ayla jo!  
Nurin to‘kkay yo‘llaringga samolar,  
Otang ruhi bo‘lar sendan ko‘p rizo!

(Nurlan O‘razalin)

Sendanmu chu bezor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!  
Bir boshqasiga yor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!  
To bog‘i visolingda faqat gul ko‘rdim,  
Guldin kechibon, xor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!

(Jaloliddin Rumi)

Sen aytgan odaming, zolim, men emas,  
El farzandi, o‘limdan hech g‘am emas!  
Boshimni kes, o‘z elimdan kechmayman!

Oltin taxting tuprog'imga teng emas!  
Mard jonini o'z elidan ayarmi,  
O'laman deb, mard yo'lidan toyarmi?

(Ergash Jumanbulbul o'g'li. «Ravshan»)

**Ko'p nuqta qo'yilgan o'rinnarda pauza.** Fikrming tugallannaganligi, so'zlovlching yana nimadir aymoqchi ekanligini ko'rsatish uchun qo'llaniladi:  
... Uning qora zulfi par yostiqning turli tomoniga tartibsiz suralda to'zg'ib, quyuq,jingila kiprik ostidagi tim qora ko'zlar bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'tgan kabi... qop-qora kamon, osib keitan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lin oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizillikka aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi...

(Abdulla Qodiriy)  
Ba'zi hollarda ko'p nuqta so'zlovlching o'yashi, mulohaza qili-shini ham ko'rsatadi:

Yo'q, uning vijdoni qynaladigan yozug'i yo'q. U qirq yil saltanat tebratib, bobosi yanglig' jang-jadalning suronli nash'asini surmadи. Le-kin bular.. uning zuriyotlari, uzoq Hirotdagi ijyanchalar... Bular bobosining taxfiga minsа... Mavarounnahr va Xurosning holi ne kechadi?

(Odil Yoqubov. «Ulug'bek xazinasи»)

Hey, farzand dog'i, hey... achchiq jolalar,  
Ota-onangizdan xato o'tdi-ku...  
Yo'q, yo'q, xato qilmang, sizlar bolalar!-  
Sho'rlik bolalarning soyasidir u?...

Nutqda vergul va nuqtaga qaraganda ko'p nuqtada pauza uzoqroq davom etadi. Ko'p nuqtadagi pauza qahramoning ruhiy kechimmasini, hissiy-ta simy holatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

**Vergul belgisi qo'yilgan o'rinnarda pauza.** Ifodali o'qishda nuqta yoki nuqtaga qaraganda vergulda nisbatan qissaroq pauza qilinadi. Vergul belgisi gapda uyushiq bo'laklar orasida, undalmalarni ajratish uchun, kirish so'zlar va kirish gaplarni ajratish uchun, gapning ajratilgan bo'laklarini ta'kidlab ko'rsatish uchun, bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda ishlatalidi. Masalan:  
Ustod tanbur chertishda benazir edi. Shahodat barmog'iga oltin

noxin taqib, ko'zlarini yumib, qanday tiniq, kuz oftobiday mayin bir mung chulg'ab olar, kishi nechundir yig'lagisi kelar, lekin ko'zdan oqqan bu yosh yurakni ezmas, aksincha, butun andu, butun dard, butun g'uborni yuvib ketardi...

(Odil Yoqubov. «Ulug'bek xazinasи»)

Bolam, aytgan nasihatim unutmа, Bir g'anibni ko'rsang zinhor og'ritma, Quloq solgin, bir-bir aytay, Ravshanjon, Zinhor manmamlikning yo'lini tutmal!

Ko'ngli buzuq bo'lsa, bolam, shod ayla, Yiqilganni, bolam, sen tepib o'tma, Qo'lingdan kelgancha yomonga ketma, Zinhor-zinhor bir miskinni yig'latma!

(«Ravshan» dostonidan)

**Nuqtali vergul belgisi qo'yilgan gaplarda pauza.** Odatda, o'z ichida verguli bo'lgan, mazmumun biroz farqlanuvchi gaplardan iborat bo'lgan qo'shma gaplarda nuqtasi vergul qo'llanadi.

Yobonlarning cheksizligi, Ham samumi, ham hovuri, Onajonhar allasidan, Ko'z yoshidan, oq sutidан; To'qaylarning temsizligi, Jilg'alarming sho'x g'ovuri,

Yigitlarning yallasidan, Suluvlarning sukutidan – Yo'g'rilgan til –

Ona tilim.

Daryolarning toshqin payti Arslon yanglig' arillashi,

Dovonlarning ko'k qiyosi, Qorli tog'lар jilosidan; Cho'ponlarning qamish bayti, Childirmanning darillashi, Go'ro'g'lining alp siymosi,

Alpomishning da'vosidan –  
Tug'ilgan til –  
Ona tilim.

(Mirtemir)

**Ikki nuqta qo'yilgan o'rnlarda pauza.** Uyushiq ho'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi va og'zaki nutqda shu o'rinda ma'lum muddat to'xtalish bo'ladi. Shuningdek, bog'lovchisiz qo'shma gaplarda biror gap boshqa gapni izohlasa, uning sababi yoki natijasi ko'rsatilsa ham, ikki nuqta qo'yiladi. Massalan: *Men bu yil universitetga o'qishga kira olmadim: imtihonlarga yaxshi tayyorgarlik ko'ra olmaganim menga pand berdi.*

**Mashq.** She'rni o'qib, pauzali o'rnlarni belgilang va ifodalni o'qishni mashq qiling.

Qodir Egam bandalariga  
Etmoq bo'ldi g'ussani tasvir:  
Kechdi yozning xandalaridan –  
Kuzni bu tong ayladi asir.  
G'ira-shira tong quchog'ida  
Hayron boqqa haydadi kuzni.  
Jim sozida, mungli sozida  
Bir ayriliq dunyosin tuzdi.  
O, ayriliq! Bepoyon hijron!  
O'zing menda saltanat o'rnat! –  
Yuragimdan, qara, bepaymon  
G'amlar borar ruhimga o'rlab,  
Tugab barcha savolu so'roq,  
Charx tangriga some bu chog'da:  
Panjarasiz qoldi yurak, bog' –  
Taqdir kirdi yuragu boqqa.

(Usmon Azim)

**Tire belgisi qo'yilgan o'rnlarda pauza.** Gap tarkibida tire qu-yidagi hollarda qo'llanadi:

- Ega kesim bilan bog'lamasiz birikkanda;
- Zidlik, shart, o'xshashlik mazmuni ifodalangan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda;

- v) Kirish gaplar, ajratilgan bo‘laklar o‘rtasida;  
g) Uyushiq bo‘lakdan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin;  
d) Ko‘chirma gap bilan muallif gapi orasida. Masalan:

Zamin bilan osmon – senu menman,  
Sahar bilan oqshom – senu menman.  
Yeru osmon aro bir ishq bordir –  
Ishqdan bunyod hijron – senu menman.

(Usmon Azim).

Vatan – ona,  
Vatan – jannat.  
Vatan – iqbol chirog‘i.  
Vatan jahon yuragidir.  
Vatan – hayot bulog‘i.

(Amin Umariy)

**Qavs ichida berilgan gaplarda pauza.** Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘srimcha izoh beruvchi so‘zlar, kirish gaplar qavsga olinadi va ifodali o‘qish jarayonida qavsga olingan bo‘lak alohida pauza bilan ajratib aytildi. Masalan:

Mirzakarimboy boshqalarga maqtansa ham (maqtanchoqlikni yomon ko‘rardi), ba’zi vaqt ichida faxrlanardi.

(Oybek)

**Qo‘shtirnoq belgisi qo‘yilgan gaplarda pauza.** Qo‘shtirnoq belgisi ko‘chirma gaplarni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘yilladi. Ba’zi hollarda ayrim so‘z va so‘z birikmalarini ham qo‘shtirnoqqa olinadi. Qo‘shtirnoqqa olingan so‘z va birikmalar ko‘chma ma’noda, yoki kinoya ma’nosida bo‘ladi. Bunday so‘z, birikma yoki gaplar alohida pauza bilan o‘qiladi. Masalan, quyidagi she’rni og‘zaki ijroda mashq qilib ko‘raylik.

Ovuldan-chi, darak yo‘q,  
Oppoq edi qir-qiya,  
“Adashib ketdikmikin,  
Kuppa-kunduz kuni-ya?  
Gap bosdimi, yo g‘aflat  
Tavba, bu qandoq o‘yin?”

Qor tindi-yu, chollarning  
Ichiga kirdi quyun.

(Abdulla Oripov)

**Mantiqly pauza.** Badiiy nutqda mantiqiy va ta'sirchan mazmun asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun nutqda emotsiyonal ifoda vositasi si-fatida mantiqiy pauza katta rol o'ynaydi.

So'z guruhlarini bir-biridan ajratib, matn ma'nosini aniq va to'la ifodalashga xizmat qiluvchi pauzaga mantiqiy pauza deyiladi. Mantiqiy pauza nutqning mantiqiy tomoni bilan bog'liq bo'lib, u faqat mantiq qonunlariga bo'ysunadi, zarur bo'lganda sintaktik talablarni ham chetlab o'tadi. Masalan:

Otam / eski kitoblarni ham, / zamonaviy adabiyot va gazetalarni ham muntazam o'qib borar, / o'ta haqparast, / nohaqlikni ko'rsa yonib ketar edilar.

Ba'zi hollarda mantiqiy pauza gapning mazmunini o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Masalan:

1. Alisher / akang ishdan keldimi?
2. Alisher akang / ishdan keldimi?

Har lahza / zamonlar umriderk uzun,  
Asrlar taqdiri / lahzalarda hal.  
Umrdan o'tajak har lahza uchun,  
Qudratli qo'l bilan / qo'yaylik haykal.

(G'afur G'ulom)

**Psixologik pauza.** So'zlovchining kuchli his-hayajonini, ruhiy holatini ifodalovchi, vaqt birligi jihatidan misbatan katta bo'lgan pauza *psixologik pauza* deyiladi. Psixologik pauza notiq nutqiga jonlik kiritib, asarning ta'sirchanligini oshiradi. Psixologik pauza asarni o'qishda personaj xarakteri, tasvirlanayotgan voqealar rivojining eng keskin, hayajonli tus olgan o'rniغا to'g'ri keladi. Masalan, quyidagi matndan psixologik pauza olgan o'rnlarni aniqlab ko'raylik.

—O'z qibiagohiga qilich ko'targan senday razil xunrezni / nechuk yer yutmaydi?! Nechuk osmon ag'darilib / boshingga tushmaydi?! — Abdulaziz taqir boshi sarak-sarak qilib, ko'zlari sovuq chaqnab, yaqinlashib kelardi. Abdullatif devorga suyanganicha qilichini ko'tardi, lekin Abdulaziz to'xtamadi, u hamon iyagi qaltirab, tishlari shaqillab yaqin-

lashib kelardi. – mehribon, buzrukvorim!... / Ne qilding uni? / Ne qilding, mal'un padarkush?!... – Abdulazizning ko'zlaridan tirqirb oqqan yosh tomchilari qorayib ketgan so'lg'in yuzini selday yuvib, taralmay patak bo'lib ketgan soqoliga quyilardi.

(Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi")

Asar voqealarining bunday shiddatli tus olgan o'rirlarini tinch va sekin ohangda, bir tekis o'qib bo'lmaydi. Ifodali o'qish jarayonida qahramonning bunday junbushga kelgan ruhiy holatini, ro'y berган fojeali voqeani ovozni ko'tarish, ritorik 'so'roq olgan o'rirlarni bo'lib-bo'lib o'qish va psixologik pauzalar orqaligina aks ettirish mumkin. Shunday ekan, psixologik pauza og'zaki ijrochining nutqiga ta'sirchanlik bag'ishlaydi, eshituvchilarni zavqlantiradi va hayajonga soladi:

Yo'q, / halovat istamayman,  
Orom bilmas / yosh jonim,  
To'lqin urgan ummoneha bor  
Yurakdagi / tug'yonim!...

Tinchlik bilmas / odatimdan  
Ozor cheksam / mayliga.  
Olov bo'lib / bir dam yonsam,  
So'ng o'chsam ham / mayliga...

(Erkin Vohidov)

### Tayanch tushunchalar

Urg'u – so'z, sintagma yoki gapdag'i supursegment elementlardan biri.

Sintagma urg'u – nutq oqimining ma'no jihatidan muhim bo'lgan qismini (sintagmani) alohida ta'kidlash, ajratish uchun qo'llanadigan urg'u.

Logik urg'u – tinglovchining e'tiborini gap bo'laklaridan biriga alohida jalb etish uchun qo'llanadigan urg'u.

Emfatik urg'u – (emotsional urg'u) so'z ma'nosi bllan birga, zo'zlovchining his-hayajonini, vogelikka bo'lgan sub'ektiv munosabatlari ifodalash.

Pauza – nutq oqimidagi ayrim to'xtalishlar.

## Savol va topshiriqlar:

1. Ifodali o'qishda so'z urg'usining qanday ahamiyati bor?
2. Sintagma urg'usining o'ziga xos xususiyatini izohlang.
3. Matndagi mantiqiy urg'u olgan so'z qanday aniqlanadi?
4. Emfatik urg'u deganda nimani tushunasiz?
5. Logik urg'u bilan emfatik urg'uning qanday farqi bor?
6. Odatda, matnning qaysi o'rinnlarida pauza bo'lishi lozim?
7. Og'zaki nutqda grammatic pauzaning qanday ahamiyati bor?
8. Tinish belgilardagi pauzaning bir-biridan farqi bormi?
9. Mantiqiy pauza deganda nimani tushunasiz?
10. Psixologik pauzaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

## Adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. –Toshkent: Fan, 2009.
2. S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Nizomiddin Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007

## INTONATSIYA, TEMP VA RITM – IFODALI O'QISHNING ASOSIY VOSITALARI SIFATIDA

### Reja

1. Intonatsiya va intonatsion vositalar.
2. Ritm. She'riyatda ritm turlari.
3. Temp. Nutq tempini belgilovchi vositalar.

Qadimgi dunyoning mashhur so'z ustasi Mark Tullyi Sitseron nutq jayronida ohang eng muhim va eng ta'sirchan vosita ekanligini ta'kidlab bunday deydi: "... Shunday nutq ohangi tanlanishi zarurki, u tinglovchilarning e'tiborlarini o'ziga jalb etib tursin va u nafaqat huzurbaxsh, balki jonga tegmaydigan, ko'ngil qolmaydigan huzurbaxsh bo'lsim"!

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjiması). – T.: Yangi asr avlodı, 2007, 282-bet.

Shu ma'noda intonatsiya ifodaviylikning asosiy vositasi bo'lib, inson hissiyotlari holatining rang-barang tovlanishlarini aks ettirishga xizmat qiladi. Nutqda intonatsiya orqali eng murakkab tuyg'ular, nozik kechinmalar va kayfiyat, holatlarini ham ifoda qilish mumkin.

Nutq jarayonidagi fikr-tuyg'ular, maqsad va intilishlar, hls-hayajonlar boshqalarga ovoz tovlanishlari orqali yetib boradi. Muayyan istak, niyat, intilish, harakat natijasida yuzaga keluvchi ana shu ovoz tovlanishlari (ovozi o'zgarishi) *intonatsiya* deyiladi.

Badiiy asar matnida intonatsiya turli tinish belgilari, she'riy asarlarda misralarning joylashishiga qarab belgilanadi, shuningdek, u asar mazmuni, muallif maqsadi, fikr-tuyg'usi va kayfiyatidan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Asar g'oyasini tushunishda intonatsiyaning o'rni, ayniqlsa, dramatik asarlarda o'ziga xoslik kasb etadi. Badiiy asarlarda intonatsiyaning savol, xitob, darak, kinoya, g'azab, ta'kid kabi turli his-tuyg'ularni ifodalaydigan ko'rinishlaridan foydalaniladi. Yozuvchi va shoirlar ko'pincha nutqning emotsiyalni ta'sirchanligini yanada os-hirish uchun xitob, undov va so'roq mazmunini ifodalaydigan intonation-sintaktik gap qurilishlaridan foydalanadilar. Shuning uchun bunday nutq emotsiyalni intonatsiyali nutq hisoblanadi. Agar jonli nutqda qo'yilgan so'roqlarga notiqning o'zi javob bersa, badiiy nutqda emotsiyalni intonatsiyali nutq hisoblanadi. Shoир ritorik so'roq va ritorik undovdan hayajonli intonatsiya yaratish uchun foydalanadi. Bu turdag'i asarlarni ifodali o'qish ijrochidan puxta tayyorgarlik va aktyo'rlik mahoratini ham talab qiladi. Masalan, quyida keltirilgan doston parchasi emotsiyalni intonatsiyali nutqning yorqin namunasidir:

Nazrul  
Johil olomonga  
Qaradiyu oh chekib,  
O'zni otdi tik maydonga  
Yoqasini chok etib.  
Faryod qildi:  
"Ne wahshat bu?!"

tavi jumlaning boshida, kesim sostavi esa, oxirida kelishi lozim.  
Ammo ba'zi hollarda muallif ma'lum so'zlarini ta'kidlash va ular-  
ning ta'sirchanligini oshirish niyatida nutqda so'zlarining grammatic  
qoidaga muvofiq bo'lgan o'mini ataylab almashtirib qo'llaydi. Shu  
ma'noda, ta'kidlanmoqchi bo'lgan fikrغا mantiqiy urg'u berish, uni  
kuchaytirish va asar ta'sirchanligini oshirishda inversiyaming ahami-  
yati kattadir. Masalan:

Seni deb etaging tuidim men endi,  
Boshqanining bahridan o'ldim men endi,  
Sen na yo'lda bo'lsang, ketdim men endi,  
Sening bilan vatan etdim men endi.

(“Ravshan” dostonidan)  
Keltirilgan misralarning odatdagagi taribi quyidagicha bo'lishi lozim  
edi:

Men endi seni deb etaging(ni) tutdim.

Men endi boshqanining bahridan o'ldim.  
Men endi sen na (qaysi) yo'lda bo'lsang, (o'sha yo'ldan) ketdim.

Men endi sen bilan bir vatan etdim.  
She'riyatdagi bu usul tasodifiy bo'llmasdan, balki shoirning asar

g'oyasini yorqin aks ettirish niyati bilan, shuningdek, qofsiya, radif,  
turoq, vazn talabi bilan ham chambarchas bog'liqdir.  
Takror san'ati ham intonatsiyani yuzaga keltiruvchi badiiy vosita-  
lardan biridir. Badiiy asarda bir so'z yoki bir necha so'z, ba'zan esa,  
butun bir satr takrorianadi. Bu usul ma'lum bir fikr va tuyg'uni yorqin  
isodalash bilan birga, ta'sirni kuchaytirish va intonatsiyani bo'rttirib  
ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan:

(Erkin Vohidov. “Ruhlar isyon”)  
Parchadagi *Qotillikni to'xtat, hindu! Haq oldida barobarmiz, Aying ne bor nizoga?!* Tig' uradi nega hindu, Bosh kesadi musulmon? Kabi undov va so roq gaplar hayajonli intonatsiyani yuzaga keltiradi.

Shuning uchun ham ushbu misralarni ifodali o'qiyotganda bo'layotgan xunrezliklarga kuchli taassuf, afsus va nadomat ohanglari sezilib tunishi lozim.

Badiiy asarda syujet voqealari, personajlarning ruhiy holatlari o'zgarib, goh osoyishta, goh jo'shqin bo'lib turgani uchun, badiiy tilda bayon ohangi ifoda etilmochchi bo'lgan mazmunga qarab turlanib turadi. Bayon ohangining o'zgarib turishini ta'kidiyadigan bunday vostalariga inversiya, takror, anafora, parallelizm, ritorik murojaat, ritorik xitob kabi stilistik usullar kiradi.

Intonatsiyani yuzaga keltiruvchi vositalardan biri **inversiya**. Inversiya lotincha so'z bo'lib, joyni almashtirish degan ma'noni bildiradi. Inversiya — nutq bo'laklarining grammatic normadan tashqari holatda qo'llanishiga asoslangan stilistik usullardan biri hisoblanadi. O'zbek tili stilistikasi qoidalariiga binoan, ega sos-

Bas, xaloyiq!  
Qotillikni to'xtat,  
hindu,  
G'azotni qo'y, muslimmon!  
Hind, muslimmon –  
Birdarmiz,  
Farzand Odam Atoga!  
Haq oldida  
barobarmiz,  
Ayting,  
Ne bor nizoga?!

Xunrezlik qil demagan-ku,  
na Vedayu,  
na Qur'on!  
Tig' uradi  
nega hindu,  
Bosh kesadi  
musulmon?

(Erkin Vohidov. “Ruhlar isyon”)

Parchadagi *Qotillikni to'xtat, hindu! Haq oldida barobarmiz, Aying ne bor nizoga?!* Tig' uradi nega hindu, Bosh kesadi musulmon? Kabi undov va so roq gaplar hayajonli intonatsiyani yuzaga keltiradi.

Shuning uchun ham ushbu misralarni ifodali o'qiyotganda bo'layotgan xunrezliklarga kuchli taassuf, afsus va nadomat ohanglari sezilib tunishi lozim.

Badiiy asarda syujet voqealari, personajlarning ruhiy holatlari o'zgarib, goh osoyishta, goh jo'shqin bo'lib turgani uchun, badiiy tilda bayon ohangi ifoda etilmochchi bo'lgan mazmunga qarab turlanib turadi. Bayon ohangining o'zgarib turishini ta'kidiyadigan bunday vostalariga inversiya, takror, anafora, parallelizm, ritorik murojaat, ritorik xitob kabi stilistik usullar kiradi.

Inversiya lotincha so'z bo'lib, joyni almashtirish degan ma'noni bildiradi. Inversiya — nutq bo'laklarining grammatic normadan tashqari holatda qo'llanishiga asoslangan stilistik usullardan biri hisoblanadi. O'zbek tili stilistikasi qoidalariiga binoan, ega sos-

Seni deb etaging tuidim men endi,  
Boshqanining bahridan o'ldim men endi,  
Sen na yo'lda bo'lsang, ketdim men endi,  
Sening bilan vatan etdim men endi.

(“Ravshan” dostonidan)

Senda, senda, sendadir yurak,  
Ammo dilni tank etmas havas.  
Botimi, ayt, qanaqa ko'mak  
Yovlaringandan aylaydi xalos?

(Usimon Azim)

Suvviz cho'lda mard Hasan  
Yakka kerib boradi;

Suvviz cho'lda mard Hasan  
Obro' ber deb keladi.

(“Ravshan” dostonidan)

**Asablar,**  
**Asablar,**  
**Asablar...**  
Sababsiz sochilgan g'azablar.  
Gunohsiz chekilgan azoblar.  
Ko'z yoshiar...  
Bariga sabablar  
Asablar, asablar, asablar.

(Erkin Vohidov)

Demak, ifodali o'qish jarayonida asar tarkibidagi bunday mantiqiylar urg'u olgan takroriy so'zlarga alohida e'tibor va ularni o'ziga xos intonatsiya bilan talaffuz qilish lozim bo'ladi.

**Ritorik murojaat** nido, xitob shaklidagi stilistik usullardan biri bo'lib, shoirning poetik nutqda tantanavorlik, ko'tarinkilik, g'azabkorlik, kesatish ohanglarini ifodalashga xizmat qiladi.

Fikrimizning dalili sifatida Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dos-tonidan bir pacha o'qib ko'raylik.

Jangni qo'ying,  
odamlar!  
Sizning asli yovingiz kim?!

Bilib qo'ying,  
odamlar!  
Ular  
uzoq yurtdan kelib,  
Yerga bukib shonimiz,  
Bizni bizga  
dushman qilib,  
So'rmoqdadir  
qonimiz.

Bosqinchining  
Qadimdan oq  
Falsafasi ayondir,  
El ichida  
bo'lsa nifoq,  
Demak,  
zolim omondir.

(Erkin Vohidov)

**Parallelizm.** She'riy asarlarda parallelizm ikki yoki undan ortiq hodisani yonma-yon qo'yish orqati poetik mazmunni ochishda xizmat qiladi. Parallelizmlar, asosan, xalq she'riyatiga xos usul bo'lib, ular keyinchalik yozma adabiyotga ham o'tgan. Parallelizm mazmunan hamda vazifasiga ko'ra, to'rt turga ajratiladi: tematik-psixologik, ritmik-sintaktik, intonatsion va leksik-morfologik parallelizmlar.

Masalan: Intonatsion parallelizmlar – talaffuzda bir xil ohangdorlikka asoslangan usul bo'lib, bir necha gap yoki bo'laklar bir xil ohangda o'qiladi. Masalan:

O'z oldiga, ishadi,  
Yo'lsiz cho'lga tushadi,  
Issiq kunga pishadi  
Kuyib Hasan jo'nadi.

(“Ravshan” dostonidan)

Mazmunan bir-biriga yaqin hodisalar va narsalar yonma-yon qo'yilgan holda qiyosiy tasvirlansa, bu – tematik parallelizm deyiladi. Masalan:

Bu tog'lar qanday tog'lar,  
Toshi bor, tepasi yo'q.  
Va'dasida turmagan yorning  
Dardi bor, vafosi yo'q.

Parallelizmnning barcha turlari poetik nutqning ifodali, tasvirning jonli va yorqin bo'lishiga xizmat qiladi.

**Anafora** yunoncha so'z bo'lib, yuqoriga chiqarish degan ma'noni bildiradi. Anafora – she'riy misralarning boshida yoki nasriy asardagi gaplarning boshida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishidan iborat stilistik usulla dan biridir. Masalan:

Bir xil tovushlarning takrorlanib kelishi:

Yo'ilbars yurmas yo'llardan  
Yo'rtib ketib boradi.

Bir xil so'zlarining ohangdosh bo'lib kelishi:

Qaysi bir ozorin aytay jonima ag'yoming,  
Qaysi bir og'ritqonin ko'nglimi dey dildorning.  
Qaysi bir berahmilingini tolei gumrohning.  
Qaysi hasrat birla armonin vafoziz vasliring.  
Qaysi mehnat birla ranjin surqati xunxonning.

(Bobur)

Shoir "qaysi bir" birikmasini har bir misraning boshida qayta qayta takrorlar ekan, inson boshiga tushadigan dunyo sitamlarining beadaqligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Ayni payda g'azalda anafora bo'lib kelgan takroriy so'zlar lirik qahrannomining hasrat va nadomat tuyg'ularning pog'ona yuqoriga ko'tarib avj nuqlasiga yetka-zgan va, shu bilan bir qatorda, she'ning badiji yukummal chiqishiga hun yordam bergan.

Demak, anafora badiji asarda lirik qahrarnom kayfiyatni, ichki kechimlari, ruhiy holatini ochishda muhim vosita sanaladi. Shunday ekan, misralar boshida takrorlandigani so'z yoki so'z birikmlari asarning g'oyaviy mazmuni, mualif maqsadi bilan chambarchas bog'liq holda o'ziga xos intonatsiya bilan o'qilishi zarur.

## RITM

Mark Tully Sitserton nutqda ritmning o'rni va ahamiyatini ta'kidlar ekan, shunday deb yozadi: "Nutqda go'zallik bag'ishlaydigan ikkita vosita bor: So'zlar va ritmlarning yoqimiligi. So'zlar go'yoki qandaydir ashyo (material), ritm (usul) esa, uning bezagidan iboratdir"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, nutqni, ayniqsa, she'riy nutqni ritmsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki she'r ohang jihatidan ma'lum bir taribga solingan o'ichovli ritmik nutqdir.

Ritm (*rhythmos*) yunoncha so'z bo'lib, vazndosh, ohangdosh degan ma'nolarni bildiradi. She'riy nutqdagi muayyan, bir-biriiga monand kichik bo'laklarning izchil va bir o'ichovda takrorlanib kelishi ritm deyiladi. Chunonchi, barmoq vaznidagi she'rarda ohangdoshlik mis-

<sup>1</sup> Sitserton. Notiqlik san'ati haqidagi ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 385-bet.

ralardagi hijolarning bir tekisda takrorlanishidan, turoqlar, qofya va radiflardan hosil bo'ladi. Masalan:

His etib dunnyoning shodligin, g'amin,  
Ulug'bir hikmatga bo'lganman amin;  
Yaxshiyu yomonni ko'tararkan teng,  
Shu bois, ona deb nom olgan zamin.

Ushbu to'rtlikning har bir misrasi ma'lum bir o'ichov asosida yaratilgan. Misralar bir xil sondagi 11 bo'g'indili hijolardan tashkil topgan, ohang jihatidan ma'lum bir taribda tuzilgan.

Aruz vaznidagi she'rarda ritm cho'ziq va qisqa hijolarning ma'lum taribda takrorlanib kelishi natijasida hosil bo'ladi. Erkin vazndagi she'rarda esa har misradagi so'zlarining mazmuniga muvofig intonatsiya bilan ayubishidan ritm-ohang paydo bo'ladi. Ifodalı o'qish jarayonida she'riy asarning g'oyaviy yo'nali shinga qarab so'zlashuv ohangzidan, lirk va dramatik obangdan foydalaniadi, finish belgilariiga qarab pauzalarga alohida e'tibor beriladi. Shundagina asardagi har bir so'z chuqur ma'no va emotsiyal ta'sir kuchiga ega bo'ladi. "Zero, har qanday san'at tabiat tomonidan bunyod etilar ekan, u bizning tabiatimizga ta'sir o'ukazmasa va huzur baxsh etmasa, u hech narsaga arzimas edi. Bizni ham to'iqinlanitiruvchi, ham jo'shqin etuvchi va ko'pincha, bizda ham quvonch, ham g'amginalik keltilrib chiqaruvchi vazn (ritm, marom)lar va ovozhalik hech narsa bizning ongimiziga tabiatan yaqin emasdir"<sup>2</sup>. Darhaqiqat, badiji asarning inson ruhiga o'ukazadigan hissiy ta'sirida so'z ijrochisining yoqimli ovozi bilan birga intonatsiya, vazn va ritunning ahamiyati becqiyosdir.

Binobarin, ritm she'r musiqiyligi va ohangdorligini ta'minlovchi, lirk qahramonning his-tuyg'ularini badiji ifodalashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biridir. Ba'zi adabiyotlarda ritmni band ritmi, alliterations ritm, anafora ritm, intonatsion ritm kabi turlarga ajratib ko'rsatilgan<sup>3</sup>. Shu o'rinda ushbu ritm turlarining o'ziga xos jihatlari bilan qisqacha tanishib chiqaylik.

Band ritmi. She'riyatda band tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ritm band ritmi deb yuritiladi. Band mazmunning shartli tugalligi bilan farqlanuvchi she'r misralari yig'indisidan iberat bo'lib, u poetik fikr, ritm jihatidan tugal bo'lgan va qofya tartibi bilan birlashgan she'riy lan qisqacha tanishib chiqaylik.

<sup>2</sup> Sitserton. Notiqlik san'ati haqidagi ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 314-bet.

<sup>3</sup> Q.Oripov, M.Obidova. Ifodalı o'qish. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. 60-bet.

bo'lkardan tashkil topadi. She'r bandlarning qofiyalanish taribi har xil bo'lib, ular o'ziga xos ritm hosil qiladi.

Masnavy:

Kimsa necha zebu tama'din yiloq,

- a

Zimmida osoyish etur yaxshiroq.

- a.

Gavharu durni qulinq ozori bil,

- b

So'zni qulinqing durri shahvori bil.

- b

Olinn isirg'aki qulog' og'ritur,

- v

Zauhal etukdurki, ayog' og'ritur.

- v

Toqatim toq o'ldi to bo'ldim talabgoring sening.

Nukta durrin, bil, quilog' oroyishi,

- g

Keng etuk o'ldi oyoq osoyishi...

- g

Murabba':

Ko'may yuzimi devona bo'idum.

- a

Xalqi jahondin begona bo'idum.

- a

Yuz dartu g'amg'a hamxona bo'idum,

- a

Ey bod, yetkur yora salomim.

- b

Yordin judo men o'lguncha bo'idum,

- v

Qonlarni yutdum, hasratga to'idum.

- v

Dardi g'amningdin, vallohki, o'idum,

- v

Ey bod, yetkur yora salomim.

- b

(Mashrab)

Muxammas-dan parcha:

Xonunomidin judo bo'lgan kishidin dard so'rang,

- a

O'rtanib qaddi duto bo'lgan kishidin dard so'rang,

- a

Yuz alamga osno bo'lgan kishidin dard so'rang,

- a

Bekasu bermuttako bo'lgan kishidin dard so'rang,

- a

Misli men, bedastu po bo'lgan kishidin dard so'rang.

- b

Telmirib qoldim bu yo'lda hamsafardin ayrilib,

- v

Yo'l adashib g'amdadurman rohbardin ayrılib,

- v

Baxt qaro keldim bu yo'lda yaxshillardin ayrılib,

- v

Andalib erdim, qolibman bolu pardin ayrılib,

- v

Men kabibaxti qaro bo'lgan kishidin dard so'rang.

- b

(Mashrab)

**Alliteratsion ritm.** Alliteratsiya lotinchcha so'z bo'lib, *harf* degan ma'nini bildiradi, ya'n'i alliteratsiya she'riyat harflar – tovushlar takroriga asoslangan badiiy san'atdir. She'rla bir xildagi ohangdosh tovushlarning takorlanishi natijasida *alliteratsion ritm* hosil bo'лади va badiy nutqining intonatsion ifodavyligini kuchaytiadi.

Alliteratsiya mumtoz adabiyotda *tarzi san'ati* deb yuritilgan. Klassik adabiyot namoyandalari misra yoki baytda tovushdosh so'zlardan mahorat bilan foydalaniб, she'rlarning badiiy ta'sirehlanligini oshirganlar. Masaian:

Toqatim toq o'ldi to bo'ldim talabgoring sening.

Misra davomida so'zlarda "t" tovushining bir matonda qayta-qayta takorlanishi natijasida o'ziga xos ritm va ohangdorlik yuzaga kelgan.

Quyidagi baytda ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin.

Ganja ganjurikim, chekib ko'p ranj,

Qo'yimish erdi Jainonda besh ganj.

Hozirgi zamон adabiyotida alliteratsiyaning eng go'zal namunasini yüksak iste'dod sohibi E'kin Vohidov ijodida uchratamiz.

Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilmqa qoshing, qiz,  
Qilib qatlimga qasd, qayrab qilich qotil qaroshing, qiz,  
Qafasda qalb qushin qiyab qanoq qoqmoqqa qo'yimaysan,  
Qarab qo'ygil qiyokim, qalbni qizdirsin quyoshing, qiz.

**Anafora ritm.** Misralar boshida ma'lum bir so'z yoki so'z birikma-larinin takorlanib keishi *anafora ritmini* yuzaga keltiradi.  
Masalan: Abdulla Oripovning "Bir qarasam..." deb nomlangan she'ri anafora ritmining yorqin namunasidir:

Bir qarasam, do'stu yordan ko'nglim to'qday,  
Bir qarasam, atrofimda hech kim yo'qday.

Bir qarasam, suyanchiqday bolalarim,  
Bir qarasam, ular siniq lolalarim.

Bir qarasam, bu dunyoda baxtim borday,  
Bir qarasam, butun olam menga lordanay.

**Bir qarasam**, murodimga yetgandayman,  
**Bir qarasam**, ko‘zim ochiq ketgandayman.

**Bir qarasam**, shon-shuhratga yo‘g‘rilganman,  
**Bir qarasam**, endigina tug‘ilganman.

She’rda anafora san’atining qo‘llanilishi ritmik ohangdorlikni yuzaga keltirish barobarida lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini yorqin ifodalashda ham asosiy vosita bo‘lgan.

Mark Tulliy Sitseron o‘zining “Notiq” nomli asarida ritm o‘zini nima? U qachon paydo bo‘lgan? degan savollar ustida fikr yuritar ekan, ritmnинг dastlabki ixtirochisi sifatida Frasimax<sup>1</sup> va Gorgiy<sup>2</sup> nomlarini tilga oladi. Lekin ritmnini amaliyotga tadbiq qilib, uni mu-kammallashtirgan kishi Isokrat<sup>3</sup> ekanligini ta’kidlaydi: “Kimda-kim Isokratdan hayratlansa, o‘sha odamlar uni tartibsiz nutqqa ritm (usul)larni kiritgan, deb bu xususiyatni uning oliy fazilati sifatida ko‘radilar. Aytishlaricha, u notiqlarni qanchalik ortiqcha jiddiylik bilan, shoirlarni esa qanday huzur bilan eshitayotganlarini ko‘rib ritm (usul)larga murojaat qildi va nutqlarda yoqimlilik uchun ham, har xiltik bilan zerikishni yo‘qotish uchun ham ulardan foydalana boshladи”<sup>4</sup>.

To‘g‘ri, Yunonistonda so‘z san’ati, shuningdek, chiroyli nutq so‘zlashni o‘rgatuvchi ritorika ilmi antik davrlardayoq rivojlangan. Badiiy adapbiyotni, so‘z san’atini tadqiq qiluvchi “Poetika”, “Ritorika” kabi maxsus asarlarning yaratilishi eramizdan oldingi, qadimgi davrlarga borib taqaladi. Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, turkiy xalqlarda so‘z san’atining paydo bo‘lishi, xalq qo‘shiqlari, xalq she’riyatining yuzaga kelishi, ehtimol, undan ham qadimiyoqdir. “Devonu lug‘otit-turk” asarida keltirilgan ko‘plab qo‘shiqlar buning yorqin namunasi hisoblanadi. Masalan:

---

<sup>1</sup> Frasimax Xalkidoniлик (eradan old. 430 y) – Afinada falsafa va ritorika o‘qituvchisi.

<sup>2</sup> Gorgiy Leontinlik – mashhur ritor-sofist.

<sup>3</sup> Isokrat (436 – 388) – afinalik mashhur notiq; “Fasohat otasi”.

<sup>4</sup> Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). – T.: Yangi ast avlod, 2007, 381-bet.

Turli chechak yarildi, (7)  
Barchin yazim qarildi. (7)  
Uchmoq yari ko'ruldi, (7)  
Tutlug' yana kalgusuz. (7)

Mazmuni:

Turli chechaklar ochlldi,  
Yer yuzi ko'k gilamlarga burkaldi.  
Jannat yeri ko'rindi,  
Sovuq qaytmas bo'lib ketdi.

She'rda yetti bo'g'inli vazn, qofiya va ritm mavjud. Qofiya va ma'lum o'Ichov asosidagi ritmnning mavjudligi esa, muayyan ohang-dorlik va musiqiylikni yuzaga keltirgan. Binobarin, turkiy adabiyotda xalq she'riyatining paydo bo'lishi qanchalik qadimiy bo'lsa, ritmnning paydo bo'lishi ham shunchalik qadimiyyidir.

Ritm haqida gap borar ekan, shunday savol tug'ilishi ham tabiiy: Ritm faqat she'riy asarlargagina xos hodisami? Nasriy asarda ham ritm bo'lishi mumkinmi? Ha, nasriy asar tilida ham ma'lum darajada ritm mavjuddir. Lekin nasriy asarlardagi ritm, she'riy asarlardagidan boshqa qonunlar asosida yuzaga keladi. Har qanday nasr ham o'ziga xos ritmga ega bo'ladi.

Ritmlar asosiga qurilgan nasr dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lib, keyinchalik yozma adabiyotga o'tgan. Xalq dostonlari yoki ertaklari tarkibidagi ritmik-sintaktik parallelizmlar asosiga qurilgan lavhalar buning yorqin dalilidir. "Hasanxon qanday o'g'lon? – so'ylaydi alvon-alvon, yag'rini yoziq polvon, toza bir bilak arslon". Bu o'rinda har bir saj'langan bo'lak bitta ritmik guruhni tashkil etadi, guruhlar orasida esa, qat'iy vazndoshlik mavjud, ya'ni har bir ritmik bo'lak yetti hijodan tashkil topgan. Bilga Qoon, Kul Tegin sharafiga qo'yilgan yodnomalar matni, "O'g'uznama" kabi asarlar ritmli nasrning yorqin namunalaridir.

O'zbek klassik adabiyotida Alisher Navoiyning "Munshaot", "Mah-bub ul-qulub" kabi nasriy asarlarining ko'pgina o'rirlari ham ritm asosiga qurilgan. XX asr o'zbek adabiyotida O'Imas Umarbekovning "Bolgar qo'shiqlari" turkumiga kirgan "Muhabbat qo'shig'i", "Gayduk qizi", "Cho'pon Vasil va uning farzandlari", "Gul vodiysi", "Ota" kabi asarları ham ritmli nasrning o'ziga xos ko'rinishidir.

“Gul vodiyisi” asaridan olingan parchani quyidagicha ritmik bo‘laklarga ajratish mungkin:  
“Men tug‘ildim go‘zal voha / Gul vodysi qo‘ynida / quloq soling,  
so‘zlab beray / bu vodiy qissasini / so‘zlab beray, nega bu yurt / Gul  
vodiyisi atalmish”<sup>1</sup>.

**Temp.** Temp lotincha (tempus) – so‘zidan olingan bo‘lib, sur‘at, daraja, vaqt, tezlik degan ma‘nolarni bildiradi. Demak, o‘qish tempi deganda o‘qish sur‘ati, o‘qish tezligi tushumiladi. “Bunday tezlik gap tarkibidagi tovushlar talaffuziga sarflangan vaqt bilan belgilanadi. Bunday vaqt gap bo‘laklari, ularning o‘rni, gapning turli, situatsiya kabi omillar ta’sirida har xil bo‘ladi. Masalan, darak gaplarda gap boshida kelgan ega talaffuzida temp sekinoq bo‘ladi, bu temp kesim sostavida tezlashadi. Agarda ega logik urg‘u olsa, uning talaffuzida temp kuchayadi.

So‘roq gapda eganing talaffuzidagi tezlik darak gapdagi eganikidan bir oz ortiq bo‘ladi, kesim talaffuzidagi tezlik esa nisbatan kamayadi. Buyruq gaplarda temp gap oxiriga tomon tezlashib boradi, ammo oxirgi so‘z talaffuzidagi tezlik keskin pasayadi”<sup>2</sup>.

Professor Jamolxonovning fikrlariga asoslangan holda quyida keltirilgan matning o‘qilish tempini belgilab chiqaylik.

O‘rtacha temp Qobilboy bu so‘zni eshituvchi qulqlariga ishommagandek, Anvarning yaqinrog‘iga surildi.

Temp ko‘tariladi – Nima deyapsiz, Anvar, men yaxshi anglamadim?

O‘rtacha temp Anvar yana o‘sha so‘zini takrorladi. Qobilboy, endi bir oz orqasiga tisarilib, ko‘zini katta ochdi va bir necha vaqt qotib turdi...

Temp yanada ko‘tariladi – Siz nima qimmoqchisiz, uka. O‘z oyog‘ingiz bilan... Yo‘q, bu bo‘lmagan gap! Balki bu – xonning unga po‘pisasidi, shu hiyla bilan maqsadga erishmoqchidir.. Qo‘ying bu gapni, uka, qo‘ying!

(Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon”)

Nutq sur‘atining tezlashishi yoki sekintashishi, so‘roq va undov shakllarining kiritilishi badiyiy nutq ruhini o‘zgartirib turadi, so‘zning ma‘nosi bilan bog‘liq holda, uning ifodaviyligini kuchaytiradi.

Dialogik nutqda temp personajlarning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan quyidagi parchada Xudoyorxonning nutqi shiddati, g‘azabkor, yuqori tempda, mirzo Anvarning so‘zleri esa, ancha bosiq va pastriq tempda o‘qiladi:

- Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!  
Anvar bosh irg‘atdi.
- Iqrorman.  
– Tuzumni unording!  
– Tommayman!
- Iqorsan, tomaysan, o‘bdon ish! – dedi zaharxanda qilib xon, – o‘luvdan ham qayymaysan!
- Men sizdan marhamat so‘rab kelgan emasman! – dedi ijayib Anvar, – o‘zimni o‘limnga berib, bir gunohsizni qutqarish uchun kelgamman!  
Hamishinlar tablarini tishladilar. Xudoyor istehzoli kuldil.
- Pusulmonchilik qig‘onsan-da!
- Albatta! – dedi Anvar, – boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonchilik bilan o‘ishni o‘bdan bildim!
- Bu javob Xudoyorni qip-qizil tusga qo‘yib, manglayida terlar ko‘rindi, g‘azab o‘ti alanga oldi.

<sup>1</sup> O‘imas Umarbekov. Oltin yaproqlar. – Toshkent: 1970. 194-bet.

<sup>2</sup> Hasanboy Jamolkonov. O‘zbek tilining nazarli fonetiği. – Toshkent: Fan, 2009. 171-bet.

- Sening qig' on ishing pusulmonchilikda bormi, it uvli?!

- Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga, bir kambag'al uylammoqchi bo'lgan qizga ham zo'rlik qilish bormi, qiblai olam!

- Chiqar buni, jallodi!!!

Jaloddalar harakatlandilar.

Demak temp qahramonlarning ichki kechimmlari, his-hayjon, voqealar rivojining keskinligi darajasiga ko'ra o'zgarib turadi. She'riy asarlarda tempning tezlashishi, ko'tarlishi yoki pasayishi band tuzilishi bilan ham bog'liqdir. Masalan, xalq doslonlaridagi yetti hijoli bandlar tezlik talab etilgan o'rinalarda ishlataladi. Qahramonlarning ot bilan safari ko'pincha yettilik bilan beriladi:

Ot boradi arillab,	- 7
Otgan o'qday sharillab,	- 7
Ot algimi tong shamol,	- 7
Mis karnayday zarillab,	- 7
Borayotir parillab,	- 7

(“Ravshan”)

Bunday vazniy o'zgarishlar mazmun bilan aloqador bo'lib, ko'pincha voqealari, qahramon xatti-harakati tempini ifodelaydi. Qisqa vaznli she'rlar tezlikni ifodalasa, 11, 12, 13 hijoli uzun vaznli she'rlar harakating tinch va ohistalgini ifodelaydi.

Bekastlar uchrasa, tumshuq turmagin,	- 11
Hajv aylab zimhor labing burnagin,	- 11
Oting o'ynoqlasa, ketma o'zingdan,	- 11
Kuchim bor deb kuchsizlarni urmaganin.	- 11

(“Ravshan”)

Yugorida keltirilgan yetti bo'g'linli she'riy parchani og'zaki iyo qilganda o'qish tempi (sur'ati) tezlashadi, keyingi o'n bir bo'g'linli, didaktik ruhdagi she'riy parchada esa, o'qish sur'ati nisbatan sekinlashadi. Shunday qilib, nutq tempi gapning ma'no jihatdan turlari, asar maznumi, band tuzilishi va muallif maqsadiga ko'ra ba'zan tezlashib, ba'zan esa pasayib, o'zgarib turadi.

Ifodali o'qishga kirishishdan oldin, muayyan asar matnini o'rganib chiqish, uning temp va ritmini aniqlash lozim. Shundagina temp va ritm

asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi, nutqning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

### Tayanch tushunchalar

Intonatsiya – og'zaki nutqning ritmik-melodik tomoni, undagi ovoz toylanishlari

Darak intonatsiyasi – tinch ohang.

So'roq intonatsiyasi – ko'tariluvchi ohang.

Undov intonatsiyasi – emotsiyal gaplarga xos ohang.

Temp – nutq oqiminining sur'ati, tezlik darajasi.

Nutq ritmi – urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning qo'llanilishida, ulardagi unllarning cho'zish va qisqa talaffuz etilishida vazndoshlik, ohangdoshlilikning mavjud bo'lishi.

### Savol va topshiriqlar

1. Sitseronning ritm haqidagi fikrini izohlang.

2. Ritm deganda nimani tushunasiz?

3. Rimning turlari haqida nima deya olasiz?

4. Sitseronning paydo bo'lish tarixini kimlarning faoliyati bilan bog'laydi?

5. Nasriy asarlarda harn ritm mayjudni?

6. Temp nima? O'qish tempi deganda nimani tushunasiz?

7. Nutq tempini belgilashda nimallarga e'tibor berish lozim?

### Adabiyotlar:

1. Sitseron. Notiqlik san'sati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimas). – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.

2. Q.Oripov, M.Olibdova. Ifodali o'qish. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.

3. O'Umarbekov. Oltin yaproqlar. – Toshkent: 1970.

4. H.Jamoixonov. O'zbek tilining nazzaryi fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.

# IFODALI O'QISHDA YUZ IFODASI

## VA HARAKAT

### Reja

1. Ifodali o'qishda yuz ifodasi.
2. Ijrochining o'zi o'qiyotgan voqealarga munosabati.
3. Ifodali o'qishda ko'z, qosh, qo'l va bosh harakatlari.
4. Ifodali o'qishda ijroning ahamiyati.

Ifodali o'qishda notiqning ovozi bilan bir qatorda, uning tashqi ko'rinishi – bo'y-basti, qiyofasi, yuz ifodasi, so'zlash jarayonidagi xatti-harakatlari ham juda muhim ahamiyatga ega.

"O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu va material o'quvchilarga to'la yetib borishi, ularning xulqiga ta'sir etishini ko'zda tutgan holda ayt- layotganlarga mos harakatlar ham qlladi: ko'z, qosh, qo'l, yuz, bosh, kift harakatlarini ishga soladi. Bunday harakatlar tasdiqni, inkorni yoki mammunlikni va hokazolarni ifodalashi mumkin. Harakat o'z o'mrida bo'lsa, yoqimli kechsa foyda keltiradi. Ammo hadeb o'rinli-o'rinsiz harakatlar qila berish o'quvchini zeriktiradi"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, notiqning boshqałarni ishontirish va to'lqinlantirish uchun so'zlagan nutqi, avvalo, uning o'zini ko'proq to'lqinlantirishi kerak.

Bu haqda Mark Tulliy Sitseron nihoyatda obrazli bir fikr bildirgan: "... agar sen hakamga o'zingdag'i g'am-anduh belgilarini so'zlar, fikrlar, ovoz, yuz ifodasi va nihoyat ho'ngrab yig'lash orqali izhor etmasang, uning hamdard bo'lishiga erishish mumkin emas. Olovsiz o'z-o'zidan yonib ketadigan yoqilg'i yo'q; agar sen o'zing huzurida yonib va alan-galanib turmasang, shunday bir aql yo'qki, u sening nutqingdan yonib ketadigan bo'lsa"<sup>2</sup>.

Sitseron notiqning fidoyiligi, aktyo'rlik mahorati haqida fikr-mulohaza yuritar ekan, o'z kuzatishlaridan kelib chiqib, shunday bir voqeani misol keltiradi: "Uni tashlab o'zing Salaminga kirishga jur'at qildingmi? Yana otang yuziga qaraysanmi? Ushbu "yuziga" so'zini u shunday aytar ediki, har safar buni eshitganimda, ko'zimga

<sup>1</sup> T.Qudratov. Nutq madaniyati asosları. – Toshkent: O'qituvchi, 1993, 28-bet.

<sup>2</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). – T.: Yangi asr avlodи, 2007, 193-194-bet.

g'azablangan va o'g'lini deb, g'amginlikdan o'zini yo'qotgan Telamon ko'rinish ketardi. Ana shu aktyo'r o'z ovozini mahzunlikka almashtirganida:

*Farzandsiz qariyaning  
Bag'rini qon qilding, ezzding, qiynding!  
Akangning vafoti,  
Ishonib topshirilgan go 'dagining  
Qismati senga hech, -*

Ushbu so'zlarni aytayotganida, u ham yig'laganday, ham ich-ichidan dard chekayotganday bo'lib tuyular edi. Shunday qilib, aktyo'r har kuni shu rolni ijro etayotganida g'amsiz, dardsiz o'ynay olmasa, nahotki siz Pakuviy (asar muallifi) umi yozayotib xotirjam va loqayd bo'lgan, deb o'ylaysiz? Bu mutlaqo mumkin emas. Men ko'p marta eshitgan edim, hech kim, dilidan yonmagunicha va qandaydir ilhomsiz yaxshi shoir bo'lolmaydi. Aytishlaricha, Demokrit va Platonning kitoblarida shunday deb yozilgan"<sup>1</sup>.

Buyuk notiqning (Sitseronning) san'at asarlarini yaratish va ularni ijro qilish mashaqqatlari haqidagi ushbu mulohazalari shu qadar teran, shu qadar hayotiyki, bu fikrlar go'yo ikki ming yillar oldin emas, xuddi yaqindagina aytigelidek. Haqiqatan ham, hech bir ijodkor o'z asarini loqayd yoki xotirjam holda yarata olmaydi. Muayyan asar to nihoya-siga yetguncha, ijodkor voqealar oqimida o'z qahramonlari bilan birga kurashadi, ularning shodligidan quvonib, qayg'usidan iztirob chekadi. Bu holatni ba'zida so'z san'atkorlarining o'zlarini ham asarlari tarkibida lirik chekinish tarzida qayd qilib o'tishadi. Masalan, Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonini tugallar ekan:

*So'ngin nechakim uzottim oxir,  
Yig'lay-yig'lay tugattim oxir, -*

deb o'sha paytdagi ruhiy ahvolini bayon etadi. Yoki Pushkinning ko'pgina ertaklarida qahramonlar murod-maqsadlariga yetib, voqealar to'y bilan tugallanganida shoir shunday misralarni qistirib o'tadi:

*To'yda men ham bor edim,  
Sharob ichdim, bol yedim.*

<sup>1</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urton Otajon tarjimasi). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 193–194-betlar.

Endi aytinq-chi, Navoiy yig'lab-yig'lab tugatgan anduh to'la dostoni yoki Pushkining samimiyumor bilan sug'orilgan ertaklarini hech qanday his-tuyg'usiz, ta'sirlanmasdan, beparvolik va loqaydlik bilan o'qib bo'ladimi? Fahm-farosati joyida bo'lган har qanday odam badiy asarning dillarni to'lqinlantiruvchi joyzibasidan ta'sirlanadi. Mana shu ta'sirlanish og'zaki ijro – ifodali o'qish jarayonida namoyon bo'lishi lozim. Aniqroq qilib aytganda, ijrochining o'zi o'qiyotgan voqealarga munosabatini yuz ifodasi, ovozi, ko'z qarashari, bosh va qo'l harakatlari orqali aks ettirib turishi lozim.

Masalan, qayg'uli yoki musibatlilavhalarini o'qiyotganda ijrochi yuzida g'am-alam ifodasi, ovozida chhuqur izirob ohanglari, yoki ak-sinch, xursandlik tasvirlangan o'rinnarni yuzda shodlik ifodasi, ovoz-da ishonch va qat'iyat ohangfari bilan o'qish mantiqan to'g'ri bo'jadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, har qanday badiy asarni ifodali o'qishga kirishgan ijrochida birozgina bo'lsa ham, aktyo'rlik mahorati bo'lishi zarur. Zero, asarda ishtirok etuvchilarining xarakter xususiyatlari, ichki kechimmalarini og'zaki ijroda aks ettilish uchun asarning umumiyyutini his qilish bilan bir qatorda, qahramonlar holatiga kimish ham talab etiladi. Qahramonlar holatiga kirishda esa, ikki narsa juda muhindir: bulardan birinchisi – ovoz<sup>1</sup>.

Ifodali o'qishda ovoz shunday bo'lishi kerakki, g'azabli joylarda tarang, keskin, shiddatkor, sokin o'rinnarda muloyim, his-hay-ajonli lavhalarda esa, ehtirosli, titroq holda o'zgarib tursin. Asar mazmunidan kelib chiqqan holda, ovozning past, baland yoki o'racha ohangda tovlanib turishi asar mohiyatini tushunish, ta'sirchanligini os-hirish barobarida, eshituvchiga cheksiz zavq-shavq ham bag'ishlaydi. Ikkinchidan, ifodali o'qishda og'zaki ijrochining yuz ifodasi va harakatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qish davomida ifodalardan shunday foydalananish lozimki, bu harakatlar aytilayotgan fikrlarni yanada to'ldirishga, bo'layotgan voqealarni ko'z oldimizda yorqin jonlantirishga yordam bersin.

Notiq qaddini to'g'ri va raso tutishi, yursa – ozgina va ba'zan yurishi, oldinga chiqsa – me'yorida va ba'zida chiqishi, bo'yinni bo'shashfirmasligi, barmoqlarini o'ynatmasligi, lozim bo'lgan o'rinnarda, qo'llarini cho'zishi, osoyishsha joylarda tushirishi, ba'zan

qaddini egishi, xullas, asardagi vaziyat va qahramonlar holati bilan uyg'ur ravishda bunun tanasini to'g'ri idora qila olishi kerak. Shuning-dek, yuz ifodasi, ko'z parashlarining o'zgarib turishi, lozim bo'lganda, ko'zlar mungli, g'amgin boqishi lozim bo'lganda, shodlikdan porlashi kabi harakatlar ham ifodali o'qishning samaradorligini belgilaydi.

“... men olim va shoni ustoz sifatida sizlarga o'git berib aytaman-ki, siz o'z nutqqaringizda g'azablanish, achchiqjanishni ham, g'amgin bo'lishni ham, yig'lashni ham biling”, – deydi Sitseron!

Demak, notiq o'zi so'zlayotgan fikrlarga befarq bo'lmastigi hissi-yot bilan so'zlashi lozim ekan. Buning uchun esa o'z galarning dardi, eltirosi va ruhiy holatini qalban his qila olishi zarur. Shundagina nutq jozibali va nutq mazmuniga uyg'un harakatlar o'rini kechadi.

“Majolis un-nafois” asarida ana shunday hissiyot bilan so'zlab, kishitarning qalbini to'lqinlantiruvchi notiqlardan biri Mavlono Ri-yoziy haqida Navoiy shunday yozadi: “... va'z ayтиb, minbarda o'z ash'орин o'qub, yig'lab vajdu hol qilur erdi”<sup>2</sup>.

To'g'ri, yuzakqi qaraganda, ko'philik oldida o'z hissiyotlarini jilovlay olmaslik, asar voqealaridan ta'sirianib, hatto yig'lash darajasiga borib yetish erish tuyulishi mumkindir. Lekin shunday asarlар ham borki, bu asarlarda inson qalbini junbushga keltiradigan ayrim voqealarni, ta'sirli lavhalarni, hissiyotsiz yoki ko'zga yosh olmasdan o'qish aslo rasmunkin emas. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Layli va Maj-nunning o'rini bilan bog'liq lavhalarni, yoki "Shohnoma" dostonida Rustamning bilmasdan o'z o'g'lini o'ldirib qo'yib, boshiga tuproq sochib yig'lashni bilan bog'liq epizoddalarni larzaga tushmasdan o'qib bo'lmaydi. Üshbu asarlar qanchalik san'atkorlik va mahorat bilan yaratilgan bo'lsa, uning o'qilishi, og'zaki ijrochiligi ham san'atkorlik va mahoratni talab qiladi. Aks holda, “Eng ajib fikr ham, agar yomon ifodalansa, o'z qimmatini yo'qtotadi, agar takrorlanaversa, odamni diqqinfas qiladi” (F.Volter).

Binobarin, mavlono Rivoziy nutq payrida ko'z yoshi qilish daraja-siga yetib borar ekan, uning nuqida yoki she'rlarida bunga asosli sabab bo'lgan. O'z nutqidan o'zi shunchalik ta'sirianishi va boshqalarni ham shunchalik hayajonga solishi, ishonitishi va hamdardlik tuyg'usini 'Sitseron. Noticlik san'ati haqida ikki isosa (Urfon Otajon tarjumasasi). – T.: Yangi asti avlod, 2007, 195-bet.

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Maolis un-nafois. Asarlar. O'n besh tomlik. 12-to'm. 101-bet.

uyg'ota olishi mavlono Riyoziyning chinakam notiq, yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

So'zlovchi o'zining gapirish ohangi, ko'z qarashlari, yoqimli xatti-harakati, xullas, butun qiyofasi bilan eshituvchilarini o'ziga maftun etishi lozim. Zero, ba'zan aytayotgan fikrlarga mos "**go'zal xatti-harakat – go'zal so'zdan a'lo**" (S.Smays). Ana shundagina, notiq o'z nutqidan ko'zlagan maqsadiga erishadi, shu bilan birga, eshituvchilarning mehrim qozonadi. O'tmis tariximizda bunday notiqlar ko'p bo'lgan. Mavlono Husayn Voiz Koshify, mavlono Riyoziy, Xoja Muayyad Mehnagiy, Mulla Kalon Voiz Samarqandiy kabi ko'plab ulug' kishilarning faoliyati buning yorqin dalilidir. "Makorim ul-axloq", "Latoyif ut-tavoif" kabi manbalarda hikoya qilinishicha, Husayn Voiz Koshify qayerda nutq so'zlasa, shu yerda odamlar soni nihoyatda ko'payib ketar ekan. Minglab xalq to'plangan maydonlarning oxirida turgan odamlarga uning ovozi yetib bormasa ham, muxlislari bu zotning nurli siymosini uzoqdan bo'lsa ham bir ko'rishga ishtiyoqmand bo'lganlar, so'zlariga monand chiroyli xatti-harakatlarini zavqlanib kuzatib turganlar.

Husayn Voiz Koshify "Axloqi Muhsiniy" asarida kishilar bir-biri bilan so'zlashganda o'zini qanday tutishi lozimligi haqida yoki notiq ko'pchilikka va'z aytayotganida uning gapirish yo'sini (mimikasi) bosh va yuz, tana va qo'l harakatlari muhim ahamiyat kasb etishi haqida nihoyatda ibratli fikrlar bildirgan. Mashhur axloq targ'ibotchisi bu fikrlarni o'z hayotiy kuzatishlaridan og'zaki ijrochilik faoliyatidan kelib chiqqan holda yozgan. Darhaqiqat, ijro – so'zning tanho hukmdoridir. Nutqning qanday chiqishi, ya'ni eshituvchilar tomonidan yaxshi yoki yomon qabul qilinishi birinchi navbatda ijrochiga, uning mahoratiga, yanada amiqroq qilib aytganda, so'zlar mazmuniga monand xatti-harakatlariga ham bog'liqdir.

Aytishlaricha, Demosfen "**Suxandonlikda eng muhim narsa nima?**" degan savolga: "**Birinchidan – ijro, ikkinchidan – ijro, uchinchidan – ijro**", deb javob bergen ekan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, notiqqlikda ijro eng muhim narsa bo'lishi bilan birga, eng murakkab jarayon hamdir. Masalan, muayyan bir nutq matnnini yoki she'rni har kim o'z iqtidori va qobiliyalidan kelib chiqib har xil o'qishi, har xil ijro qilishi mumkin. Kimdir asar ruhini tushunib, qalban his qilib, mahorat bilan ijro qilsa, ikkinchi birov hech

narsani tushunmasdan, shunchaki o‘qish kerak bo‘lgani uchungina, ni-hoyatda g‘aliz va g‘ashga tegadigan tarzda ijro qiladi.

Mark Tulliy Sitseron notiqlar haqida, har bir notiqning o‘ziga xos ijro mahorati haqida fikr yuritar ekan, Katulga<sup>1</sup> murojaat qilib, shunday deydi: “Sen Katul, mendan yaxshiroq biladigan Grakxni<sup>2</sup> yoshlik paytlarimda nega bunchalik ulug‘lashardi! – *“Men baxtsiz qayerga boray? Qayerga? Kapitoliygami? Ammo Kapitoliy akamning qoniga bo‘yalgan. Uygami? Tashlab qo‘ylgan, nola chekayotgan baxtiqaro onamni ko‘rish uchunmi?”* ushbu ijroda uning nigohi, ovozi, tana harakatlari shunday ediki, hatto dushmanlar ham yig‘lagan”<sup>3</sup>.

Yuqoridaq fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ifodali o‘qish hech qanday tayyorgarliksiz, shunchaki o‘z-o‘zidan amalga oshadigan oson jarayon emas. Ifodali o‘qish og‘zaki ijrochidan chuqur bilim, fahm-farosat, qobiliyat va mahorat talab qiladigan san‘atdir.

**Mashq.** Quyidagi matnni ifodali o‘qing. O‘qish davomida ko‘z, yuz, hosh va qo‘l harakatlariga e’tibor bering.

### Zolning tug‘ilgani

Qadim zamonlarni etib namoyon,  
So‘zlab beray endi ajib bir doston.

Somga qanday o‘yun ko‘rsatdi falak,  
So‘zlab beray qulq sol, o‘g‘lim, andak.

Farzandsizlikdan ko‘p azob chekib Som,  
Dard chekib, diliqa istardi orom.

Shabistonida bor erdi nigori,  
Yonog‘i gulbargu mushkinmo‘y yori.

<sup>1</sup> Katul Kvint Lutatsiy – konsul. 102 yili “Notiq haqida” dialogi qatnashchilaridan biri.

<sup>2</sup> Grakx Gay Semproniy – mashhur notiq (154 – 121).

<sup>3</sup> Sitseron. Notiqlik san‘ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjiması). – T.: Yangi asr avlod, 2007, 320-bet.

Farzand orzu qilar erdi shul oydan,  
Yurak arzandası xurshid chiroydan.

Ayolning ham Somdan yuki bor edi,  
Bu yukdan joniga ko‘p ozor edi.

Chaqaloq tug‘ildi oxir onadan,  
Quyoshdek nur sochar yotgan xonadan.

Husnda, chiroyda olam ichra toq,  
Ammo bir aybi bor, sochlari oppoq.

Bunday oq soch bola kelgan olamga,  
Hafta o‘tdi, hech kim aytolmas Somga.

Ayollar g‘uj-g‘uj Som shabistonida,  
Go‘dakka boqishar, hadik jonida.

“Jufti halolingdan tug‘ilmish, deb chol”  
Somga aytmoqqa yo‘q kimsada majol.

Doyalari ichida bitta kanizak  
Bor erdi, hayiqmas, botir, sher yurak.

Bu mujdani Somga yetkazdi o‘sha,  
Lab ochib ofarin deb qo‘sha-qo‘sha.

So‘ng dedi: “Som baxti ochilib kulsmi,  
Hasadchilar dili yorilib o‘lsin.

Yazdon istagingni ayladi bajo,  
Orzuying ushaldi, dil top mish davo.

Pushti kamaringdan, ayo, hojatmand,  
Tug‘ildi oy yuzli pokiza farzand.

Pahlavondek bola botir va sherdil,  
Halitdan u arslon nigohli o‘g‘il.

Tana nuqra misol, yuzi bir jannat,  
Birorta xunuklik topilmas, faqat.

Faqat oq soch bilan tug‘ilmish bola,  
Ne derdik tangriga bu ish havola.

Xudo bergani shu, shukr qil, shukr,  
Olmasin dildan joy hech yomon fikr!”

Taxtidan ohista tushib botir Som,  
Yor yoniga kirib bordi shul hangom.

Keksa o‘g‘lin ko‘rdi, sochlari oppoq,  
Na ko‘z ko‘rgan ish bu, na tuygan quloq.

Tanda butun mo‘yi oppoq misli qor,  
Chiroyi barq urar misoli bahor.

Farzandini ko‘rgach, choldek mo‘ysafid,  
Jahondan bir yo‘la uzildi umid.

Mardum ta’nasidan tap tortib qoldi,  
Avzoyi o‘zgardi, xayolga toldi.

Qulochin osmonga yozib Som faqir,  
Yaratganga nido qilardi haqir.

“Ey to‘g‘ri-egridan baland xudoyim,  
Yaxshilik tug‘ilar ra'yimgdan doim.

Agar qilgan bo‘lsam men og‘ir gunoh,  
Devlarga ergashgan bo‘lsam gar, e voh,

Karamli tangridan kutardim karam,  
Qilmayin oshikor kechirar egam.

Bu sharnandalikdan siqilib jonioim,  
Uyatdan tanamda qaynaydi qonim.

Bu bola misoli kichik Ahriman,  
Ko'zları qora-yu, sochlari suman.

Botirlar bul tomon yo'l olib agar,  
Badnishon bolani ko'rib qolsalar,

Ne derman, desalar: "Bu qanday bola?  
Parimi, yo'lbarsmi, nechun bu ola?"

Bu bola deb mendan oshkoru nihon  
Kulajak kiborlar, amiru sulton.

Bu isnoddan tashlab ketay Ernonni,  
Yurtimdan begona kezay jahonni!"

### Tayanch tushunchalar

Ifodali o'qishda yuz ifodasi. Ijrochining voqealarga munosabati.  
Demokrit – (V asrning ikkinchi yarmi) mashhur yunon faylasufi.  
Platon (Aflatun) (429–348) – mashhur yunon faylasufi.

### Savol va topshiriqlar

1. Sitseroning notiqlik mahorati haqida fikrlarini izohlang.
2. Asar ruhini his qilish, qahramonlar holatiga kirish deganda niman tushunasisiz?
3. Ifodali o'qishda yuz ifodasi, bosh va qo'l harakatlarning qanday ahamiyati bor?
4. Hissiyot bilan so'zlash yoxud hissiyot bilan o'qish deganda niman tushunasisiz?
5. "Ijro – so'zning tanho hukmdoridir" degan fikrniz izohlang.

6. Suxandonlikda eng muhim narsa nima? degan savolga Demosfen qanday javob berган?

7. "Shohnoma" dan olingan Zolning tug'ilishi haqidagi hikoyat sizda qanday taassurot uyg'oldi?

8. Bu voqealarga mualifining munosabati qanday, sizning-chi?

### Adabiyotlar

1. T.Qudiatov. Nutq maddaniyati asoslari. –Toshkent: O'qtuvchi, 1993.
2. Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarji-masi). – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.
3. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. // Asarlar. O'n besh to'mlik. 12 to'm. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Firdavsiy. Shohnoma (forsiyidan Shoislom Shomuhamedov tarjimasi). Birinchi kitob. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1975.

### LIRIK TURDAGI ASARLARNI

#### IFODALI O'QISH

##### Reja

1. Lirik turdag'i asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari.
  2. Barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish.
  3. Erkin vaznidagi she'rlarning o'ziga xos jihatlari.
- Lirik turdag'i asarlar, odatda, kichik hajmli bo'lib, biror voqe'a-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali hayotni aks ettradi. Shoir lirkizada ayrim shaxsnинг bevosita hayotiy kechinmasini beradi, bu bilan lirk asarda xarakter va kechinmani individuallashtiradi. Shu bilan bir qatorda, ijodkor lirk asarda faqat o'zfikri, hisi-tuyg'ularinigina emas, balki umuminsoniy lipik kechinmalarni ham ifodalaydi. Demak, shoir voqeylikni ilg'or ijitnoiy ideallar bilan yoritadigan kechinmalar, fikr-tuyg'ularini taramum etadi, natijada kichik lirk asar katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati kaisb etadi. She'riy shakl lirkaning xarakterli xususiyati bo'lib, u kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirli ifodalashda qo'l keladi. She'riy

nutq mama shu xususiyati bilan ham nasiy nutqdan farq qiladi. Nasr nisbatan tinch-osoyishta nutq bo'lsa, she'r – hayajonli, to'lqinli va ehtirosli nutqdir. Zero, she'r oddiy holatni emas, favqulodda holatni, qattiq hissiyorli, hayajonli tarakkurni ifoda etadi.

Erkin Vohidovning "O'zbekiston" she'ri lirik tur haqida aytilgan fikr-mulohazalarimizning yorqin dailidir.

Yurtim,  
Seni yana oldim qalanga,  
To'ying, shodiyonang bahona bo'lib.  
Yana kelib qo'nding tonggi misramga,  
Falak nisor elgan durdonna bo'lib.  
Iqbol peshonamga bitgan oshiyonim –  
O'zbekistonim.

Tolein bor ekan,  
Seiga hamnafas  
Otashin quyooshing bilan yo'g'ridim.  
Yuz yil avval emas, yuz yil so'ng emas,  
Tug'yonli asrda senda tug 'ildim.  
Gullar sochding men ilk bosgan qadamga,  
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib.  
Jahon ichra mening tengsiz jahonim –  
O'zbekistonim.

Yuksaq ehtiros bilan bitilgan ushbu misralar ona-Vatanga cheksiz mehru muhabbatning badiy ifodasi sifatida yuzagakelgan. Yurtimizning o'imishi va buguni, jahonni lol qoldirgan mutafakkir o'g'lontari shoirni hayajonga soladi, unda ifixor tuyg'ularini uyg'otadi, shu quyosholi o'lkanning farzandi ekanligidan faxrlanadi. She'mi o'rganib chiqqan o'quvchi ham xuddi shoir kabiy hayajonlanadi, yurisevarlik tuyg'usini yana bir maria boshdan kechiradi.

Lirik turning barcha janrlarida inson hayoti, muhabbat va nafrati, sevinch va iztirobi o'zining badiiy ifodasini topadi. Zero, har qanday badiiy asarning markazida inson va uning hayoti, krashti, jamiyat va tabiat hodisalariga munosabati asosiy ob'ekt bo'lib turadi. Insoning xilma-xil hayot hodisalariga munosabatidan rang-barang lirik lavhalar bunyodga keladi.

She'riy asarning g'oyaviy mazmuni, lirik qahramonning ichki hissiyyotlarini tinglochiga to'la yetkazishda ifodali o'qish muhim ro'li o'ynaydi. Shu boisdan ham har bir talaba ijrochilik mahoratini, ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarni mukammal o'rganishi lozim. Har qanday assarni ifodali o'qish uning janr xususiyatlari va kompozision tuzilishiha ko'ra belgilanadi. Xususan, lirik turdag'i asarlarini ifodali o'qishiga kirishishidan oldin, uning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarni atroficha o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Og'zaki ijrochi she'mi qalban his qilib, tushunib o'qisagina, eshituv-chini zavqlantira oladi.

XV asrning mashhur so'z ustasi Husayn Voiz Koshify "Futuvvatnomai sultoniy..." asarida she'r o'qishning o'ziga xos qonun, qoidasi haqida fikr yuritish shunday deydi: "Agar she'rxonlik odobi nechta, deb so'rasalar, oltita deb aygil; birinchidan, she'rni ohang bilan o'qisin, ikkinchidan, she'mi odamlar qalbiga joylay olsin. Uchinchidan, agar biror mushkol (tushunlishi og'ir) bayt bo'lsa, yig'ilganlarga uni sharhlab, mazmuni izohlab bersin. To'rtinchidan, eshituvchiga malol keladigan ish qilmasin. Beshinchidan, gadoylik qilmasin, mubolag'ali qasamlar ichmasin. Oltinchidan, o'qigan she'rening muallifini maraka oxiri yoki boshida tilga olib, duo qilsin".<sup>1</sup> Husayn Voiz Koshifyning ushbu o'gillari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

<sup>1</sup> Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai saltoniy yoxud javomardlik tariqati (fors-tojik nashriyoti, 1994. 57-82-betlar).

Yuksaq ehtiros bilan bitilgan ushbu misralar ona-Vatanga cheksiz mehru muhabbatning badiy ifodasi sifatida yuzagakelgan. Yurtimizning o'imishi va buguni, jahonni lol qoldirgan mutafakkir o'g'lontari shoirni hayajonga soladi, unda ifixor tuyg'ularini uyg'otadi, shu quyosholi o'lkanning farzandi ekanligidan faxrlanadi. She'mi o'rganib chiqqan o'quvchi ham xuddi shoir kabiy hayajonlanadi, yurisevarlik tuyg'usini yana bir maria boshdan kechiradi.

Lirik turning barcha janrlarida inson hayoti, muhabbat va nafrati, sevinch va iztirobi o'zining badiiy ifodasini topadi. Zero, har qanday badiiy asarning markazida inson va uning hayoti, krashti, jamiyat va tabiat hodisalariga munosabati asosiy ob'ekt bo'lib turadi. Insoning xilma-xil hayot hodisalariga munosabatidan rang-barang lirik lavhalar bunyodga keladi.

She'riy asarning g'oyaviy mazmuni, lirik qahramonning ichki hissiyyotlarini tinglochiga to'la yetkazishda ifodali o'qish muhim ro'li o'ynaydi. Shu boisdan ham har bir talaba ijrochilik mahoratini, ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarni mukammal o'rganishi lozim. Har qanday assarni ifodali o'qish uning janr xususiyatlari va kompozision tuzilishiha ko'ra belgilanadi. Xususan, lirik turdag'i asarlarini ifodali o'qishiga kirishishidan oldin, uning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarni atroficha o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Og'zaki ijrochi she'mi qalban his qilib, tushunib o'qisagina, eshituv-chini zavqlantira oladi.

XV asrning mashhur so'z ustasi Husayn Voiz Koshify "Futuvvatnomai sultoniy..." asarida she'r o'qishning o'ziga xos qonun, qoidasi haqida fikr yuritish shunday deydi: "Agar she'rxonlik odobi nechta, deb so'rasalar, oltita deb aygil; birinchidan, she'rni ohang bilan o'qisin, ikkinchidan, she'mi odamlar qalbiga joylay olsin. Uchinchidan, agar biror mushkol (tushunlishi og'ir) bayt bo'lsa, yig'ilganlarga uni sharhlab, mazmuni izohlab bersin. To'rtinchidan, eshituvchiga malol keladigan ish qilmasin. Beshinchidan, gadoylik qilmasin, mubolag'ali qasamlar ichmasin. Oltinchidan, o'qigan she'rening muallifini maraka oxiri yoki boshida tilga olib, duo qilsin".<sup>1</sup> Husayn Voiz Koshifyning ushbu o'gillari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

<sup>1</sup> Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai saltoniy yoxud javomardlik tariqati (fors-tojik nashriyoti, 1994. 57-82-betlar).

She'rxonlik odobi haqidagi mazkur qoidalar har bir talaba uchun dashturulamal bo'lib xizmat qilishi lozim.

### Barmoq vaznidagi she'rлarni o'qish

Vazn she'riy nutqni nasriy nutqdan farglovlchi she'riyat asoslaridan biri bo'lib, o'lichov ma'nosini bildiradi. Binobarin, she'r ritmik nutq ekan, she'r tuzilishining asosini ma'lum ritmik birlik (o'lichov) – hijotashkil etadi. She'r misralaridagi hijolarning miqdoriga qarab she'r tuzilishi ko'rinishlari va vazn turlari aniqlanadi. Chunonchi, o'zbek adabiyotining qadimiy she'r tuzilishi turilaridan bo'lgan barmoq vaznidagi she'rlar ritmi uchun hijolarning soni va turoqlar asos bo'lsa, aruz vaznidagi she'r tuzilishi uchun qisqa va cho'ziq hijolarning bir taribda kelishi asos bo'ladi.

Hijo – bir nafas olish bilan aytildigan tovush va tovushlar birikmasidir. Hijo (bo'g'in) she'riy nutq o'lichovida dastlabki ritmik birlikhisoblanadi. Masalan, ma' – na – vi – yat to'rt hijoli so'zdir. Aruz vaznidagi she'rлarda hijo cho'ziq va qisqa bo'lsa, barmoq vaznidagi she'rлarda hijo urg'uli va urg'usiz bo'ladi. Ifedali o'qishda hijoning mana shu xususiyatlariga alohida c'tibor qaratish lozim bo'ladi. O'zbek she'riyatida barmoq tizimining to'rt hijoli vaznidan tortib, o'n olti hijoli vaznigacha bo'lgan o'n uch turi mayjud. Masalan,

### To'rt hijoli vazn:

Ko'ngil berdim,  
Umrim berdim,  
Jonim berdim –  
Yotsan mango.

### Yetti hijoli vazn:

Najot kabi,  
Umid kabi,  
Hayot kabi –  
Yodsan mango.

Tonglar kuychisi,  
Jannatiy isi,  
Samoviy tusi,  
Yoshlikday suluv –  
Binafsha-da shu.  
(Mirtemir)

Go'zallik bir guldir,  
Muddati – fasldir.  
Yashamoq – asldir,  
Siz, biz bor – u yashar.

Go'zallik qizlarda,  
U qora ko'zlarda,  
Soz kabi so'zlarda –  
Deganlar yanglishar.  
Go'zallik ishlavish,  
Manglayin terlatish,  
Go'zaldir ungan ish,  
Maqtansa yaratshar.

(G'afur G'ulom)  
(Usmon Azim)

### Besh hijoli vazn:

Nozik va tam-tam,  
Hiyla tortinchoq,  
Jimillar biram,  
Inju taqinchoq,  
Ko'klam elchisi,

Jannatiy isi,  
Samoviy tusi,  
Yoshlikday suluv –  
Binafsha-da shu.  
(Mirtemir)

### Olti hijoli vazn:

Go'zallik qizlarda,  
U qora ko'zlarda,  
Soz kabi so'zlarda –  
Deganlar yanglishar.

Go'zallik ishlavish,  
Manglayin terlatish,  
Go'zaldir ungan ish,  
Maqtansa yaratshar.

Osmonning sinqlari  
Qonatdi oyog 'imni.  
Osmon uzilib tushdi –  
Sarg'aytdi siyog 'imni.  
(Usmon Azim)

### Sakkiz hijoli vazn:

Yurak, sensan mening sozim,  
Tilimni nayga jo'r eidind.  
Ko'zimga oyni berkitding,  
Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko'krak,  
Sevinching toshdi qirg'oqdan.

Tilim charchar, ajab, gohi  
Seni tarjima qilmoqdan.

(Usmon Nosir)

**To‘qqiz hijoli vazn:**

Na oltin, na javohir edim,  
Armonli bir yosh shoir edim,  
Zuhro bo‘Imasang-da husnda,  
Men ishqingda naq Tohir edim.

(Mirtemir)

She’rni sevib o‘qiymen, ammo  
Hayron qilar bir holat meni.  
“Men” deb yozar shoir doimo,  
Kimdir o‘sha shoirning “men”i?

Goh muhandis ul, munajjim goh,  
Goh o‘zini tolib deb atar.  
Goh muallim, goh sohib dastgoh...  
Kasbi ko‘pmi uning shu qadar?

(Erkin Vohidov)

**O’n hijoli vazn:**

Gulshanda chechak yondi, ko‘rindi:  
Mas’ud edi, g‘amsiz va alamsiz.  
Qalbimda amal yulduzi kuldi,  
Yer qo‘ynida erkin va kadarsiz.

(Hamid Olimjon)

**O’n bir hijoli vazn:**

Yellar, bir daqqa to‘xtang esishdan,  
Sernavo bulbullar, sayramang bir oz.  
Karbalo dashtida yayov kezishdan  
Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.

(Erkin Vohidov)

### O'n ikki hijoli vazn:

Biz yaratish davrining qahramonlari,  
Quyosh alangalari qonlarda yonar.  
Asrlarning ishini yilimiz qilar,  
Yillar bilan o'zishar kurash onlari.

(Oybek)

### O'n uch hijoli vazn:

Mening sevgim har xil gulga o'xshainas aslo,  
Xazon bo'lmas gullar kabi kuz bo'lgan chog'da.  
Meni sevgan yor bulbulga o'xshamas aslo,  
Bahor kelib, tashlab ketmas kuz bo'lgan chog'da.

(Sobir Abdulla)

### O'n to'rt hijoli vazn:

Qayda, qayda qoldingiz, yoshlikdagi orzular  
Va qalbning sokinligi erkalatgan kezлari!  
Qani, avvalgi otash, ilhom baxsh etgan zavqlar,  
Keling, keling, mushtoqman, bahorimning yillari.

(Pushkin)

### O'n besh hijoli vazn:

Kulrang tog'lar etagidan asta yuksaldi quyosh,  
Paxtazorda chulg'ab oldi kokili lenta kabi.  
Vodiy bo'ylab mehr bilan bisot yoygan kuz-naqqosh  
Har yaproqqa tegib o'tgan yozning olovli labi.

(Saida Zunnunova)

### O'n otti hijoli vazn:

Birin-ketin o'tib borar asrlarning karvonlari,  
Oh, nechog'lik xatarlidir uning oshar dovonlari.  
Inson zoti murodiga azal-abad yetar edi,  
Ushalsa gar umidvor zot – Navoiyning armonlari!

Fursat keldi, do'stu g'anim kimligini bilay bu kun,  
Jami bashar farzandiga saodatlar tilay bu kun,

Ko'kka boqib sahar chog'i, iltijolar qilay bu kun,  
Nurga to'sin aziz bobom Alisherning makonlari.

(Abdulla Oripov)

Kuzatganimizdek, barmoq vaznidagi she'rlarda hijolar soni xilmashdir. Lekin o'zbek she'riyatida hijolar eng ko'p qoladigan yetti, to'qqiz, o'n bir bo'lmashin, bular orasida eng ko'p qoladigan yetti, to'qqiz, o'n bir hijoli vaznlardir. Tabiiyki, har bir she'r vazniga ko'ta har xil o'qiladi. Qisqa hijoli she'rler nishbatan tezkorlikni talab qilsa, hijolar misqdorining ko'pligi she'r tempi va intonatsiyasining vazminligini taqozo qiladi.

**Turoq.** Turoqlar hijolardan tashkil topadi va she'r misralarida muayyan ritmik bo'lakni hosil qiladi. Turoq – hijolarning misralar bo'yicha ma'lum tartibda takrorlanib kelishdir. Turoq she'rda ritm, intonasiya va musiqiylikni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan binidir. She'riy misralarda ikki va undan ortiq turoq bo'lishi mumkin. Har bir turoqda esa ikki, uch, to'rt, besh va ba'zan undan ham ortiq hijo bo'sladi. Fikrimizing dalili sifatida quyidagi she'mi turoqlarga ajratib ko'raylik.

Uyg'onish yellari / esmoqda takror,	6+5
Tabarruk ajoddalar / ruhi senga yor.	6+5
Ulug' daholari / paydo bo'lgan chog'	6+5
Olamni o'ziga / qaratgan diyor.	6+5

(Abdulla Oripov)  
Ushbu she'riy parchadagi turoqlar 6+5 shaklida bo'lib, birinchisi turoq olti hijodan, ikkinchi turoq esa, besh hijodan tashkil topgan.

She'mi ifodalni o'qishga kirishishdan oldin uning g'oyaviy mazmunini tushunish bilan bir qatorda, shakliy tuzilishini ham o'rganib chiqish maqsadga muvoqiq bo'ladi. Buning uchun, avvalo, she'ming vaznini va turoqlarini aniqlash lozim. O'qish jarayonida har bir turoq dan keyin nafas rostlanib qisqa pauza qilinadi.

Endi navbaldagi she'ming turoqlanish tartibini ko'rib chiqaylik:  
Tug'ilgandan / men sho'rlikning / bag'rim qon, 4+4+3  
Bir jismimda / talashadi / ikki jon. 4+4+3  
Jon talashsam, / tepamda charx / urgan ul 4+4+3  
Kapalaklar, / odamlardan / mehribon.

Muhammad Yusufning "Kapataklar" deb nomlangan she'rica misralardagi hijolar 4+4+3 shaklida guruhlanib, turoqlarni vujudga keitir-

gan. Ko'rib o'tganimizdek, she'ming har bir misrasida uchtedan turoq mavjud. Demak, ijrochi she'mi o'qiyotganda har bir misrada uch mara qisqa tim olib, pauza qiladi. Shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, nuqta qo'yilgan o'rnillarda pauza nisbatan uzqoq davom etadi.

**Mashq.** Quyidagi she'ming vaznni aniqlab, turoqlarga ajrating.  
Ifodalni o'qistini mashq qiling.  
O'ylab qara, tarixda bor ibrat doimo:

Ne-ne zotlar, gar o'zlar topsa ham to'zim,  
Odamzodga ko'rmaganlar yomonlik ravo.  
Ezgulikning yo'li og 'ir, serg'alva garchand,  
Yuksak larga ko'taradi sohibin hiroq.  
Mayli, mening ruhini simiq, xayolim parkand,  
His qilurman, egzilikning ostobi porloq.

(Abdulla Oripov)  
O'zbek she'riyatida sodda vaznlar bilan bir qatorda, qo'shma va erkin vazndagi she'rler ham mayjud. Sodda vazniga kiruvchi she'r misralarining barchasida yuqorida kuzatilganidek hijolar sonida o'zaro tenglik saqlanadi. Qo'shma vaznda yaratilgan she'rlerda bunday qaf'iy tenglik ho'lmaydi, balki misralardagi hijolar soni xilma-xil ho'ladi. **Masalan:**

Bog'larga namozgar	- 6
Salqini tushdi,	- 5
Gullar nam bargini	- 6
Qayirdi asta.	- 5
Oftob ham suv ichar	- 6
Tog'lardan pastda.	- 5

(Usmon Nosir)  
1. Agar vazn ikki turkumga kiruvchi bo'g'indilar sonini bir she'nda berish tartibida yaratilgan bo'lsa, bunday vazn qo'shma vazn deyildi. Quyidagi she'ming birinchisi misrasi to'qqizlik turkumga, ikkinchi misrasi esa yettilik turkumga kiradi.

Chuldiraydi qush, soy, shabada,	- 9
shirin go'dak so'ziday.	- 7
Teraklardan to'kilgan soya	- 9
Notinch chashma yuziday.	- 7

(Zulfifya)

Qo'shma vaznda yaratigan she'rлarning turoqlanish tartibi ham o'ziga xos bo'ladi. Masalan, Erkin Vohidovning quyidagi she'rida misralardagi turoqlar soni teng bo'lмаганidek, turoqlarni tashkil etган hijolar miqdori ham har xil:

Oydin kecha /

Yonar ko'kda zar. /

O'ya cho mib deding, / gul yuzim. 6+3

"Osmon to'la/ sonsiz yulduzar, 4+5

Qaysi ekan / mening yulduzim?". 4+5

She'rning birinchi misrasida bitta turoq yoki bitta ritmik bo'lak, ikkinchi misrasida ham bitta turoq mayjud bo'lgani holda, uchinchini, to'rtinchi va beshinchisi misralarda ikkitadanuroq bor. Og'zaki ijro jarayonida mana shu ritmik bo'laklarga e'tibor berib o'qish she'rma'nosini oydindinlashtirishga va ifodalni o'qishga xizmat qiladi.

**Mashq.** Quyidagi she'rni o'qib, mazmunini tushuntiring. She'rning vaznini aniqlab, hijo va turoqlarga ajratting, mantiqiy urg'u olgan so'zlarini aniqlang va she'rni ifodalni o'qishni mashq qiling.

### Hozirgi yoshlar

Qari tolga suyab  
Irg'ay asoni,

Oqsoqol so'riga asta yonboshlar.  
Xayoldan o'tkazar kori dunyon:

"Eh, hozirgi yoshlar,  
Hozirgi yoshlar!"

Yoshligini eslar,  
Uf tortar seklin.  
Salgina chimirilar oq tushgan qoshlar.  
"Biz ham yosh bo'lganmiz bir mahal,  
Lekin

Boshqacharoq chiqli hozirgi yoshlar".  
"Bizga xayol edi,  
Tush edi faqat

To'kin dasturxonu lazzatli oshlar.  
Baxti boqiy bo'lsin,  
Ammo bu jannat  
Qadrin bilarmikin hozirgi yoshlar!"

4  
"Kiyimlar-chi...  
Qiziq bularning didi.  
Ola-chipor ko'ylik...  
Nimasi ko'rkam?  
Rost aytasam, unchalik yoqrnagan edi  
Otalariga bizning charni kamzul ham.  
Endi bularga ham har qalay og'i,  
Zamon shitobi tez, parvozi tikka.  
Kecha tili chiqqan Nargiza o'qir  
Birinchi sinifa matematika.  
Bizlar haftiyakdan boshlagan edi,  
Bular iks bilan igrikdan boshlar.  
Durust, zehni o'tkiz, qadami tetik,  
O'zimizga tortdi hozirgi yoshlar".

(Erkin Vohidov)

### Erkin vaznidagi she'rларни о'qish

Erkin vaznidagi she'rлар tuzilishiga ko'ra barmoq va aniz vaznidagi she'rлardan tubdan farq qiladi. Erkin she'rда misralardagi hijolarning soniga, urg'uli yoki urg'usiz bo'lishiga emas, balki ohang, ritm va intona siyasiغا katta ahamiyat beriladi. Bunday she'rлarda qaysi so'zni ajratib, ta'kidlab aytish zarur bolsa, shu so'z alohida mistraga chiqariladi. Erkin she'rda shoir qaysi tarтибда his-hayajon va fikrni ifoda etishga intilsa, so'zarni shu tarтибda misralarga tizadi. Zerio, fikrning jo'shqinligi va publisistik ruhda bayon etilishi erkin she'rga xos muhim xususiyatlardan biridir:

Osyo so'zlaydi,  
Tinglang ovozin!  
Jo'shqin daryo mayjin,

Hayqiriq sozin.  
Osiyo uyg'ondi,  
    uxlamas, uyg'oq.  
Rostlik, do'stlik bo'ldi  
    u bilan o'rtoq.

(Mirzo Tursunzoda)

Erkin vazndagi she'rlar o'zbek adabiyotiga o'ttizinchi yillarda Yevropa adabiyoti ta'sirida kirib keldi. Minbarlardan turib omma oldida o'qishga mo'ljallab yozilgan bunday she'rlar dastlab G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi ustoz shoirlar ijodida kamol topdi. Keng ommaga bevosita murojaat etish va shoir ruhiyatida paydo bo'ladigan ko'tarinki hissiyot, pafos ko'p jihatdan erkin vaznning xususiyatlarini belgilaydi.

Erkin vaznda she'rning musiqiyligi saqlangan holda, bu musiqiylik turlicha parchalarda o'zgarib, tovlanib turadi. Shoir bir she'riy parchanning o'zida bir necha ritmik o'Ichovlarni qo'llaydi, bir turoq tartibidan ikkinchi turoq tartibiga o'tadi, misralarni erkin ravishda zinapoya shaklidagi bo'laklarga ajratadi. Bunday paytda shoir ba'zan misralarning qofiyalanishi bilan cheklanmasdan, misra bo'laklarini ham qofiyadosh qilishga intiladi:

Ey, Farg'ona!  
Mushkul kunlar bolasini  
tishbida tishlab,  
Yuvib,  
tarab,  
sevib,  
o'pib,  
quchib,  
opichlab,  
Ey, baxtlarni balog'atga yetkazgan ona!

(Hamid Olimjon)

She'r misralarining hijolari turlicha bo'lib, turoqlar bir necha misralardan keyin takrorlanadi, pauza va intonatsiya esa ritmnini vujudga keltirishda muhim rol o'ynaydi. Erkin she'rlar pauzalarga boyligi bilan ajralib turadi. Pauza she'rdagi ayrim so'z yoki so'z birikmalarini

bo'rttiradi, ularning ma'no va ahamiyatini ta'kidlaydi, she'riy nutqqa xos his va hayajon bag'ishlaydi. She'rdagi nafosat, noziklik, g'azab yoki istehzo ma'nolarini ifodalaydigan so'zlarni alohida pauza bilan bo'lib-bo'lib aytish asarning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Demak, misralari turli miqdordagi hijolardan tashkil topgan, turoqlari alohida-alohida bo'rttirib berilgan she'r tuzilishi *erkin she'r* deyildi. Quyida berilgan she'riy parcha ham erkin vaznda yaratilgan asarning yorqin namunasidir:

Bong uring,  
hammanni  
uyg'oting,  
Bong uring  
shahar-u  
qishloqda.  
Hayajon  
ko'taring,  
to'p otting,  
O't ketdi  
hammayoq  
yonmoqda,  
Ovozlar boricha  
baqiring,  
Odamlar!  
Yo hayot,  
yo mamot!  
Sim qoqing!  
Nol birni chaqiring:  
Yong'in, deng  
kerak, deng,  
tez najot!  
Dod soling,  
ne kechar holimiz,  
Alamdan  
jonimiz  
qiynoqda.  
Olamda

topilmas molimiz –

Vaqtimiz Yonmoqda

Undov, chaqiriq, murojaat ohanglari bilan to'lib toshgan bu she rda shoirning kuchli his-hayajoni mujassamlashgan. Inson zotining vaqt atalmish qimmatbaho ne'malga loqaydlik bilan qarashi, demakki, umrining oltin daqiqalarini yelga sovurishi shoirinda afsus va nadomat tuyg'ularini uyg'otadi.

Umruga

o't ketdi  
insonlar!

U yonar  
biz majlis  
qilamiz, –

deya vaqtini soydali ishga bag'ishlash o'miga, quruq safsatobozlik, majlisbozlik bilan o'tkazayotganlarga qaratqa chuquq taassuf bilan bong uradi. She'r misralaridagi deyarli har bir so'z alohida urg'u, o'ziga xos intonaasiya bilan o'qiladi.

Mashq. Quyida berilgan she'mni o'qib, g'oyaviy mazmunini tushuntirish. She'mning vaznnini aniqlang, turoqlarga ajratib, ifodali o'qishni mashq qiling.

### Kechikish

Na to'yu na aza,  
na ish, na bayram,  
Hech qayga,  
hech qachon,  
hech bir holatda –  
Vaqtida kelmagan  
bu sho'rlik odam.  
Bir soat kechikar  
kami, albatta.

Unda sira ayb yo'q,

yugurik davr

Mos kelmadi uning

sustkash joniga,

Taqdir kechiktirdi

bir soat nadir,

Kamida bir ast

o'z zamoniqa.

(Erkin Vohidov)  
Mashq. G'afur G'ulomning "Vaqqt" she'ridan olingan quyidagi par-chalarni o'qib mazmunini tahlil qiling. Sizningcha, Erkin Vohidovning "Bong uring", "Kechikish", G'afur G'ulomning "Vaqqt" she'r harini o'zaro birlashtirib turuvchi mushtarak jihatlar nimada?

Yashash soatining oltin kapgiri  
Har borib kelishi bir olam zamon.

Koinot shu danda o'z kurrasidan  
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug 'ilib, o'sib,  
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;  
Ko'z ochib yunguncha o'tgan dam – qimmat,  
Bir lahma mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun,  
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.  
Nurlar qadami-la chopgan sekundning  
Barini tutolmas ayyuhannos ovoz.

Har lahma zamonalr umridek uzun,  
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,  
Umrdan o'tajak har lahma uchun  
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

She'rmning vaznnini aniqlang, turoqlar o'rnmini belgilab, ifodali o'qishni mashq qiling.

## Tayanch tushunchalar

She'riy nutq va hayajonli tafakkur. She'riy nutq va hayotiy kechima.

She'rxonlik odobi.

Vazn – she'riy nutqni nasriy nutqdan farqlovchi she'riyat asoslari dan biri bo'lib, o'lchov ma'nosini bildiradi.

Hijo – bir nafas bilan aytildigan tovush va tovushlar birikmasi.

Turoq – hijolardan tashkil topadi va she'r misralaridagi muayyan ritmik bo'lakni hosil qiladi.

## Savol va topshiriqlar

1. Lirik turga xos asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
2. Husayn Voiz Koshifiy she'rxonlik odobi deganda nimalarni nazarda tutadi?
3. Vazn deganda nimani tushunasiz?
4. Barmoq vazniga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
5. Turoq haqida tushuncha bering.
6. Ifodali o'qishda turoqning qanday ahamiyati boi?
7. Qo'shma vaznli she'r deganda nimani tushunasiz?
8. Erkin vaznga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
9. Barmoq vaznidagi she'r bilan erkin vazndagi she'rlarning o'qilishida qanday farq bor?

## Adabiyotlar

1. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Nujmuddin Komilov tarjimasi). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
2. Abu Ali ibn Sino. She'r san'ati. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
3. S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.
4. Sitseron. Notiqlik san'ti haqida ikki risola. (Urfon Otajon tarjimasi). – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2007.

## ARUZ VAZNIDAGI SHE'RLÄRNI O'QISH

### Reja

1. Aruz vazni va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Hijo va uning turlari.
3. Ifodali o'qishda hijo va ruknning o'rni.
4. "Shifo'i vasl qadrin..." g'azali tahlili.
5. G'azalni ifodali o'qish.

Aruz vaznidagi asarlarni ifodali o'qish uchun, avvalo, ushbu o'lchov tizimiga xos xususiyatlar haqida ma'lum darajada bilimga ega bo'lish lozim.

Aruz vaznida yaratilgan xilma-xil janrdagi lirik va epik asarlarni ifodali o'qish, ularning vazn xususiyatlarini tahll qilish va turli-tuman o'lchovlarni aniqlash malakalarini egallash uchun ham, mazkur tizimning nazariy jihatlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish talab etiladi.

"Vazn – badiiy shaklning eng muhim qismlaridan biri. Asar mazmuni, tanlangan mavzu, ijodkor dilini to'lqinlantirayotgan muammolar, badiiy timsollarda mujassamlashtirilayotgan umumbashariy g'oyalarni jozibali, ta'sirchan, o'qishli qilib ifodalashda vazn alohida aliamiyatga egadir"<sup>1</sup>. Uzoq tarixga ega bo'lgan aruz vazni Sharq xalqlari adabiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aruz Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgach, bu she'riyat nazariyasini qabul qiluvchi har bir xalq uni o'z tili qonun-qoidalariga moslashga harakat qilgan. Shu sababdan ham, fors-tojik aruzi, turkiy aruz nomi bilan milliy tillar fonetikasiga asoslangan aruzlar vujudga kelgan. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarining yaratilishi esa, o'zbek milliy aruzining shakllanishida muhim voqeа bo'ldi.

Aruz terminining kelib chiqishi va lug'aviy ma'nosi haqida aruz nazariyasida turli fikrlar mavjud. Bu haqda Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida shunday ma'lumot beradi: "Bas sobit bo'ldikim, aruz fani sharif fandur. Va bukim, ul ilmni nevchun "aruz" dedilar, muxtalif ahvol bor. Va ul budurkim, Xalil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fanning voziidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiylar ermishki, ani "Aruz" derlar ermish va ul vodiyya a'rob uylarin tikib, jilva berib, ba-

<sup>1</sup> Anvar Hojiaemedov. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – Toshkent: O'qituvchi. 1995, 3-bet.

hoga kiyururlar, go'yoki, qiymat va bahosi ma'lum bo'lur, bu munosabat bila "aruz" debturlar"<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, Navoiy aruz terminining kelib chiqishi haqida turli-tuman fikr-mulohazalar mavjudligini ta'kidlab, shulardan biri sifatida aruz so'zi Xalil ibn Ahmad yashagan joy yaqinidagi Aruz vodiysi nomidan olinganini qayd etadi. Va bu vodiyda arablar chodir uylar tikib, ularni bezatib, bahosini aniqlab sotar ekanlar. Xullas, VIII asrda yashab, ijod qilgan arab adabiyotshunos va musiqashunos olimi Xalil ibn Ahmad asos solgan aruz vazni ming yillardan beri arab, fors va turkiy adabiyotlarining asosiy she'riy mezoni sifatida qo'llanib keldi. Aruz vazninining keng tarqalishi va umrboqiyligiga sabab, avvalo, uning insoniy hissiyotlarni yoqimli musiqiylik va ohangdorlik bilan ifodalash imkoniyatlарining kengligi bilan belgilanadi.

Aruz arab zaminida shakllangan ekan, u arab adabiyotining aza-Hly an'analari, arab tilining xususiyatlari mos kelardi. Lekin boshqa xalqlar orasiga tarqalganda aruz ham nazariy, ham amaliy jihatdan ba'zi o'zgarishlarga uchragan. Turkiy tillarning arab va fors tillariga nisbatan o'zgachaligi, xususan, unda cho'ziq hijolarning nisbatan kamroq qo'llanishi, qisqa hijolarning ketma-ket kelishi kabi xususiyatlар turkiy aruzning shakllanishiga sabah ho'lgan. Aruz nazariyasiga oid atroflicha kuzafishlar olib borgan adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedov o'zbek aruziga xos maxsus jihatlar sifatida quyidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatadi. "1. O'zbek aruzida 19 bahrdan 11 tasi qo'llanadi. Ular: hazaj, rajaz, ramal, munsarih, muzori', mujtass, hafif, sari', mutaqorib, mutadorik, komil bahrlaridir. Arab she'riyatiga xos bo'lgan vofir, tavil madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, muqtazab bahrlari o'zbek aruzida qo'llanmaydi. 2. O'zbek aruzida qo'llanadigan bahrlarning o'zbek tili xususiyatlari bilan belgilanadigan vaznlar doirasi mavjud. Binobarin, she'riyatimizda qo'llanadigan vaznlar soni va turlari jihatidan arab va fors-tojik she'riyatidagi vaznlardan farqlanishi mumkin. 3. O'zgarishlarning barchasi ham o'zbek aruziga mos kelavermaydi, shuning uchun arab va fors-tojik aruziga xos jami 44 xil o'zgarishning 23 turigina she'riyatimizda qo'llanadi"<sup>2</sup>.

**Hijo. Aruz vazninining asosini hijolarning sifati tashkil etadi. Shunga**

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. // Mezon ul-avzon. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1967. 137-bet.

<sup>2</sup> Anvar Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznni o'rGANISH. – Toshkent: O'qituvchi. 1995. 10-bet.

ko'ra, aruz tizinidagi she'rlarda hijo dastlabki o'lchov birligi sanaladi. Aruz she'riy o'lchov tizimi misralarda qisqa va cho'ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslanadi. Demak, aruz vaznida hijolar goh cho'ziq, goh **qisqa** talaffuz qilinadi. Aksariyat hol-larda "o" tovushidan boshqa unlilar bilan tugallanuvchi hijolar qisqa, barcha undosh tovushlar va "o" bilan tugallanuvchi hijolar cho'ziq hijo bo'lib keladi. Tarkibida cho'ziq unli bo'lgan (*zor, yor, shod kabi*), shuningdek, qo'sh undosh bilan tugallangan (*mehr, xalq, ilm kabi*) yopiq hijolar o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi. Aruz ilmiga doir adabiyotlarda qisqa hijo "V" shaklida, cho'ziq hijo "—" va o'ta cho'ziq hijo esa "~~" shaklida belgilangan. Hijolarning cho'ziq va qisqaligi she'riy mis-ralarning yozilishiga qarab emas, balki vazniga muvofiq, o'qilishiga qarab aniqlanadi. Masalan, quyidagi bayt misolida hijolar sifatini aniqlab ko'ramiz:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog',  
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.

Ja-hon-sho-ir / la-ri ey-gul / sha-ni-bog'  
V - - - V - - - V - ~  
*Ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy*

Ki-mi-bul-bul / du-rur-so'z-da / ki-mi-zog'  
V - - - V - - - V - ~  
*Ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy*

Ba'zi hollarda vazn talabiga ko'ra, qisqa hijolarning cho'ziq hijoga yoki cho'ziq hijoning qisqa hijoga o'zgarishi ham mumkin. Bu aruzda *imola* deb nomlanadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, imola hodisasiga ko'ra a unlisi bilan tugagan ochiq bo'g'inlar so'z o'rtaida qisqa, so'z oxirida esa, cho'ziq va qisqa bo'lib kelishi mumkin. Shuningdek, qol-gan boshqa unli tovushiar bilan bitgan ochiq hijolar ham qisqa yoki cho'ziq bo'lishi mumkin.

Aruz tizimi, eng avvalo, hijolarning sifatiga asoslanganligi uchun bu tizimga xos juda ko'p murakkabliklar va o'ziga xosliklar mavjud. Vazn taqozosiga ko'ra, ayrim so'zlar odatdagidan boshqacharoq tarzda o'qilindi. Masalan, ikki hijoli so'zlar uch-to'rt hijoli shaklida o'qilishi ham mumkin:

*Of-tob so'zi o-f-to-b, pod-shoh so'zi po-d-sho-h,  
Iz-hor so'zi iz-ho-r, mash-hur so'zi ma-sh-hur* kabi.

Aruzdagi she'rlarni ifodali o'qishning nozik jihatlaridan biri misralardagi o'ta cho'ziq hijolarni to'g'ri talaffuz qilishdir. Badiiy so'z ustalari ham, adabiyot o'qituvchilari ham, ko'pincha shunday hijolarni o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ta cho'ziq hijolar yo tarkibida cho'ziq unli bo'lgan yopiq hijodan, yo qo'sh undosh bilan tugallangan yopiq hijodan tashkil topadi.

Tarkibida cho'ziq unli kelgan yopiq hijo shaklidagi o'ta cho'ziq hijoning unlisi ancha cho'zib talaffuz qilinishi shart. Masalan, Boburning *Yoz fasli, yor vasli, do'st larning suhbat, She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfyati*, - baytidagi "yoz", "yor" hijolari o'ta cho'ziq bo'lgani uchun ularning unlilari cho'zib talaffuz etiladi.

Aruz tiziminining xarakterli xususiyatlaridan yana biri shundaki, ba'zi hollarda unli bilan bosblanadigan so'z undosh bilan tugagan so'zdan keyin kelsa, vazn talabiga ko'ra qo'shib o'qiladi. Masalan:

Kel-di-lar / ka-ra-may-lab / kul-ba-mich / ra-jo-non-lar,

Har-bi-ri / si-jo-nim-din / ham-a-zi / z-meh-mon-lar.

Tiy-ra-sho / mi-hij-ro-mim / rav-sha-net / ti-lar-kun-dek,

Yuz-la-rin / o-chib-har-yon / ne-cha-mo / hi-to-bon-lar.

**Mashq.** Quyida keltirilgan g'azalmi hijolarga ajrating. Qisqa va cho'ziq hijolarga e'tibor bergen holda, ifodali o'qishni mashq qiling.

Qon yutub umri jahon ahliga bir yor istadim,  
Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim.

Kimga-kim jonim fido aylab sog'indim dam-badam,  
Ermas erdi yorlikda chun vafodor istadim.

Bilmadim olam elida yo'qturur mutlaq vafo,  
Vahki, umri ulcha yo'qtur sog'inib yor istadim.

Ulki, topilmas bashar jinsida, vah, g'aflat ko'rung,  
Kim pari xaylida men devonai zor istadim.

Sirri ishqimni ko'ngul ko'z birla fosh etmak, ne tong,  
Qalbu tardomanni men chun sohib asror istadim.

Shayx birla xonaqahdin chun yorug'luq topmadim,  
Dayr piri xizmatig'a ko'yи xammor istadim.

Ey Navoiy, chun rafiqi topmadim, bu g'ussadin  
O'zni bekaslik balosig'a giriftor istadim.

**Rukn.** Aruz tizimidagi ikkinchi o'lchov birligi rukndir. She'riyatda misralar ma'lum tartibda bo'lganligi uchun, ular bir necha hijodan iborat bo'laklarga bo'lib talaffuz etiladi. Misraning ana shu bo'laklari *rukн* deyiladi. Rukn arabcha so'z bo'lib, ustun ma'nosini ifodalaydi. Mazmun va shakl jihatdan uzviy bog'langan tugal ikki misra *bayt* deyiladi. Baytning asl ma'nosini *uy* bo'lib, go'yo ikki misra bir she'riy uyni tashkil etadi. Uyning ustuni bo'lganidek, she'riy baytning ham ustuni – ruknlari bo'ladi. Rukn bittadan tortib besh hijogacha bo'lishi mumkin. She'riy asarni o'qish jarayonida har bir misradagi ruknlarni bir-biridan ajratish uchun qisqa pauza qilinadi. Masalan, Atoyining quyidagi baytini ruknlarga ajratib ko'raylik:

**Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lтурur,  
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur.**  
Ul-sa-nam-kim / suv-ya-ko-sin-da / pa-ri-tek / o'l-tu-rur,  
G'o-ya-ti-no / zuk-lu-kin-din / suv-bi-la-yut/ sa-bo'-lur.

Rukn aruz tizimida she'r vaznni tashkil etuvchi asosiy o'lchov birligi sifatida asrlar davomida mustahkam qonunlashib ketgan. Shu boisdan ham, har bir asar ana shu ruknlar asosida yuzaga keluvchi muayyan vazn bilan o'lchanadi. Ruknlar ma'lum qoidalar asosida o'zgarmas tabiatga ega bo'lganligi tufayli, so'zlarni ham ana shu qoidalar asosida talaffuz qilishni taqozo etadi.

Aruz tizimida rukn asosiy o'lchov birligi sifatida g'oyat muhim o'rinn tutadi. Shunday ekan, har bir o'qiladigan asar oldindan ruknlarga ajratib olinadi. Zero, ruknlar takrori, bir tomondan, muayyan asarning vaznnini amqlab olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, asarning ritmikasini, o'ziga xos musiqiy tabiatini his qilishga imkon yaratadi. Fik-

rimizning dalili sifatida quyidagi baytni ruknlarga – ritmik bo‘laklarga ajratib ko‘raylik.

**Mastu bexudlik bila umrungni o‘tkazding darig‘,  
Ey ko‘ngul, mundin beri bo‘l bir nima hushyorroq.**

Mas-tu-be-xud / lik-bi-la-um / rung-ni-o‘t-kaz / ding-da-rig‘,  
*Fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lun*  
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Ey-ko‘-ngil-mun / din-be-ri-bo‘l / bir-ni-ma-xush / yo-r-roq  
*Fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lun*  
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Kuzatganimizdek, she’rda ritm-ohang baytdagi ruknlarni tashkil et-gan cho‘ziq “–” va qisqa “V” hijolarning bir tekisda takrorlanishidan hosil bo‘lib, bu ohang o‘z navbatida rukn deb nomlangan hijolarning turli ritmik guruhiariga tayanadi.

Ruknlar hijolarning miqdori va sifatiga (cho‘ziq-qisqaligiga) qarab sakkiz aslga bo‘linadi va ularning har biri maxsus nom bilan yuritiladi:

1. **faulun** – uch hijoli rukn: *fa-u-lun*;
2. **foilun** – uch hijoli rukn: *fo-i-lun*;
3. **foilotun** – to‘rt hijoli rukn: *fo-i-lo-tun*;
4. **mafoiylyn** – to‘rt hijoli rukn: *ma-fo-iy-lun*;
5. **maf’ulotu** – to‘rt hijoli rukn: *maf-u-lo-tu*;
6. **mustaf’ilun** – to‘rt hijoli rukn: *mus-taf’-i-lun*;
7. **mutafoilun** – besh hijoli rukn: *mu-ta-fo-i-lun*;
8. **mafoilotun** – besh hijoli rukn: *ma-fo-i-lo-tun*.

Mana shu sakkiz ruknning turlicha birikishidan bahrlar vujudga keladi. Bahrlar esa, aruz tizimidagi she’r o‘lchovlarining asosi hisoblanadi. Ruknlar o‘zgarishsiz takrorlansa, solim (asliy), ruknlarning takrorlanishida o‘zgarishlar paydo bo‘lsa tarmoq (far’iy) bahrlari hosil bo‘ladi.

Aruz tizimining bir-biriga yaqin yazn turkumlari bo‘lib, bu turkumlar *bahr* deb nomlangan. Bahrlar asllarning va far’larning takroridan yoki bir-biriga aralashtirib olinishidan vujudga keladi. Bu haqda Ali-sher Navoiy “Mezon ul-avzon”da shunday deb yozadi: “... buhereki **ba’zisining takrori va ba’zisining tarkibi ha’zi bila hosil bo‘lur,**

o'n to'qqizdur, ba'zi arabqa maxsus va ba'zi ajamga maxsus va ba'zi mushtarak"<sup>1</sup>. Hazrati Navoiy ta'kidlagan o'n to'qqizta bahr quyidagicha nomlangan: tavil, madid, basit, vosir, komil, hazaj, rajaz, ramal, munsarih, muzore', muqtazab, mujtass, sare', jadid, qarib, hafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik. Bahrlar odatda baytdagi ruknlarning miqdori bilan birga aytildi. Masalan, hazaji musaddas – olti ruknli hazaj, hazaji musamman – sakkiz ruknli hazaj, ramali murabba' – to'rt ruknli ramal va hokazo.

Demak, ramal, hazaj va boshqa bahrdagi bayt to'rt ruknli bo'lsa – murabba', olti ruknli bo'lsa – musaddas, sakkiz ruknli bo'lsa – musamman sanalib, vazn nomi bilan qo'shib aytildi. Masalan, *ramali musaddas, ramali musamman* kabi.

Bahrlarning o'ziga xos xususiyatlardan biri, har bir bahrning o'z ichida bir necha tarmoqlarga bo'linib ketishidir. Masalan, ramal bahri 15 tarmoqqa va rajaz bahri 9 tarmoqqa, hazaj bahri 10 tarmoqqa va boshqa bahrlar ham shu tariqa bo'linib ketadi. Masalan, quyidagi ramal bahrining bir-biridan farq qiluvchi uchta tarmog'ini o'rganib chiqaylik.

### 1. Ramali musammani maqsur:

*Foilotun / foilotun / foilotun / foilun*

– V – – – V – – – V – – – V –

### 2. Ramali musammani mahbun:

*Foilotun / foilotun / foilotun / foilotun*

– V – – – V – – – V – – – V – –

### 3. Ramali musaddasi maqsur:

*Foilotun / foilotun / foilun*

– V – – – V – – – V –

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, aruz vazni bahrlari qanchalik ko'p va rang-barang bo'lmasin, o'zbek klassik adabiyotida eng ko'p qo'llanadigan bahrlar bu – ramal va hazaj bahrlaridir. Ayniqsa, ramali musammani mahzuf vazni mumtoz adabiyot namoyandalarining eng sevimli vazni hisobiangan. Shu boisdan ham g'azallarning katta qismi shu vaznda yaratilgan. Adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedovning ma'lumotlariga qaraganda, "Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-moni" lirik kulliyotidagi 3132 she'rdan 1156 tasi, jumladan, 2600

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. 142-bet.

g'azaldan 1089 tasi, ya'ni 42 foizi mana shu vaznda bitilgan. Shu vaznda Boburning 113 g'azalidan 42 tasi, Muqimiyning 226 lirik she'ridan 117 tasi yozilgan. Boshqa shoirlar ijodida ham bu vaznda yaratilgan lirik she'rlarni ko'plab uchratamiz. Buning sababi mazkur vaznning o'ynoqiligi, jozibadorligida, insonning rang-barang ichki kechinmalarini ifodalash uchun qulaylidadir”<sup>1</sup>.

Aruz tizimidagi asarlar qaysi bahrda yozilganligidan qat'iy nazar, ularni maxsus tayyorgarliksiz o'qib o'rganishning, ayniqsa, ifodali o'qishning hech ham iloji yo'q. Maxsus tayyorgarlik deganda, biz shartli ravishda quyidagi qoidalarga amal qilishni nazarda tutdik:

1. Dastlab lirik she'r yoki epik asardan olingan matndagi arabiy va forsiy so'zlarning mazmuni lug'at yordamida aniqlanadi. Lug'atda muayyan so'zning bir necha ma'no qirralari ko'rsatilgan bo'ladi. O'rganilayotgan baytda (kontekstda) mazkur so'zning qaysi ma'nosi nazarda tutilganligi belgilanadi.

2. Matndagi notanish so'zlarning mazmumi oydinlashtirilgandan keyin har bir baytni sinchkovlik bilan o'rganib, uning nasriy bayomi ni tuzib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki nasriy bayon baytdagi tashbehu tamsillar qobig'iga o'ralgan purma'no so'zlarning mazmunini ma'lum darajada anglab olishga yordam beradi.

3. Baytlar mazmuni ma'lum darajada o'rganilgandan keyin she'rning umumiylig'oyasi, shoirlarning maqsad va muddaosi, nima demoqchi ekanligi aniqlanadi. Bunda asarning tub mohiyatini talqin qiluvchi baytlarga alohida e'tibor beriladi.

4. Asarning g'oyaviy xususiyatlarini o'rganish barobarida, badiiy tasvir vositalariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bunda tashbehu tamsil, majozu istiora kabi badiiy san'atlarning she'riy asardagi asosiy g'oyani yorqin ifodalashda muhim o'rin tutganligini tushunib olish ham maqsadga muvofiqdir.

5. Muayyan she'riy asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ma'lum darajada o'rganilgandan keym, endi uning shakliy tuzilishiga e'tibor qaratiladi. Masalan, o'rganilayotgan g'azal aruzning qaysi bahrida yaratilganligini aniqlash uchun, dastlab hijolarga va ruknlarga ajratib chiqiladi. She'rning ruknlar tartibi va chizmasini belgilash uni to'g'ri o'qishga yordam beradi.

<sup>1</sup> Anvar Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznni o'rganish. – Toshkent: O'qituvchi. 1995, 41-bet.

6. She'rni ifodali o'qishda qisqa "V", cho'ziq "—" va o'ta cho'ziq "—" hijolar talaffuziga alohida e'tibor qaratish lozim.

7. She'rning shakliy tuzilishini o'rganish jarayonida vazn talabi bilan biri ikkinchisiga qo'shilib ketadigan so'zlarni belgilab chiqish ham she'rni to'g'ri va ifodali o'qishni osonlashtiradi.

Sharq xalqlari orasida qadim-qadimdan to'g'ri so'zlash va fikrni chiroqli ifodalash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Til qoidalariga to'la amal qilgan holda so'zlash va yozish bilan bog'liq fan "ilmi balog'a" deb, chiroqli, yoqimli so'zlash va yozishni o'rgatadigan fan sohasi esa, "ilmi fasohat" deb atalgan. Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Oghahiy kabi buyuk san'atkorlarning beqiyos ijod mahsuli sifatida yaratilgan asarlari balog'a va fasohat ilmining yorqm namunalaridir. Biror fikrni oddiy so'zlar bilan jo'ngina ifoda qilish bilan uni badiiy bo'yoqlar, go'zal tashbehlar, rang-barang obrazlar, jozibador vazn va ohangdosh qofiyalar vositasida ifodalash o'rtasida katta farq bor. So'z san'atkorlarning asarlarida talqm qilingan umumbashariy g'oyalar yuksak badiylikda ifodalangani uchun ham mangulikka daxldor bo'lib qolgan.

Mumtoz adabiyot namunalarining tarovatiyu jozibasi, ayniqsa, ifodali o'qish paytida yanada ko'proq namoyon bo'ladi va eshituvda zavq uyg'otadi. **Zavq bu insonning yetuklik va go'zallikdan lazzatlana olish qobiliyatidir.**

Abu Ali ibn Sino "She'r san'ati" risolasida "she'r uch xil narsa bilan xayolga ta'sir etadi" deydi. Bulardan birinchisi lahn – garmoniya bo'lib, bu bilan she'r kuylanadi. Kuy va ohang, shubhasiz, inson ruhiga ta'sir etadi.

Ikkinchisi obrazli va tashbehli aytilgan so'zlardir. Uchinchisi esa vazn bilan bo'ladigan taqliddir. Shuning uchun kimda-kim she'r aytilib kuylamoqchi bo'lsa, albatta, uni ohangli lahn bilan bajo keltiradi<sup>1</sup>. Ming yillar oldim aytilgan ushbu fikrlar kishini hayratga soladi. Buyuk qomusiy olimning she'r va unimg inson ruhiga ta'siri, she'rni qanday aytish haqidagi mulohazalari ayni kunlarda ham nihoyatda muhimdir.

**Mashq.** Muhammad Fuzuliyning "Shifoyi vasl qadrin..." deb boshlanuvchi g'azalini ifodali o'qish.

<sup>1</sup> Abu Ali ibn Sino. She'r san'ati (Abdusodiq Irisov tarjiması). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980. 99–100-betlar.

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,  
Zuloli zavq-shavqin tashnai diyordi o'landan so'r.

Labing sirrin gelub guftora bandan o'zgadan so'rma,  
Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o'landan so'r.

Go'zi yoshlularing holin na bilsun mardumi g'ofil,  
Kavokib sayrini shab to sahar bemor o'landan so'r.

G'amindan sham'tak yondim, sabodan so'rma ahvolim,  
Bu ahvoli shabi hijron banim-la yor o'landan so'r.

Xarobi jomi ishqam, nargisi masting hilur holim,  
Xarobat ahlining ahvolini xummor o'landan so'r.

Muhabbat lazzatindin bexabardir zohidi g'ofil,  
Fuzuliy ishq zavqin, shavqi ishq vor o'landan so'r.

### **G'azaldagi notanish so'zlarning izohi**

*O'landan – bo'lгandan  
Zulol – tiniq  
Guftor – so'zlash  
Nukta – sir  
Kavokib – yulduzlar  
Fatton – fitnachi  
Banim-la – men bilan  
Xarobot ahli – iloh oshiqlari  
Shabi hijron – hijron tuni  
Nargisi masting – mastona ko'zing*

### **G'azalning nasriy bayoni**

Ayriliq azobiga shifo bo'lувчи vasl qadrini hijron dardida kuygan-dan so'ra.

Yor labining qadriga ham yorning diydoriga tashna bo‘lganlar yetadi.

Labing sirlaridan so‘z ochmoqchi bo‘lsang, buni mendan o‘zgadan so‘rama,  
Bu pinhona so‘zni sirlardan voqif bo‘lgan odamdan so‘ra.

Ko‘zi yoshlilarning holini g‘ofil olomon qayerdan ham bilsin,  
Ko‘kdagi yulduzlar sayrini ham tunlarni bedor o‘tkazgan bemorgina biladi.

Fitnachi ko‘zlar jahrini chekkanlardan xabarsiz bo‘lma (oshiqlardan)  
O‘zidan bexabar mastlar bedodligini hushyor bo‘lgandan so‘ra.

G‘amingda shamdek yonganimni saboden so‘rama,  
Bu ahvolni hijron tumida menga yor bo‘lgandan so‘ra.

Ishq mayini ichib harob bo‘lgan holimni mastona ko‘zlarining biladi,  
Ishq ahlining ahvolini ham ishqqa giriftor bo‘lgan oshiqlidan so‘ra.

G‘ofil zohid muhabbat lazzatidan bexabardir,  
Fuzuliy, ishq zavqini faqat ishq-shavqi bor odamdan so‘ra.

Muhammad Fuzuliyning ushbu g‘azali o‘tmishda xalq o‘rtasida  
nihoyatda mashhur bo‘lgan. Fuzuliyxonlik kechalarida shoir  
she‘riyatining ixlosmandlari uning mana shunga o‘xshagan g‘azallarini  
qayta-qayta o‘qib bahra olganlar. G‘azalni bir boshdan imkon daraja-  
sida o‘rganib chiqib, nima uchun uning bunchalik mashhur bo‘lgani sa-  
babini anglaganday bo‘lasiz. G‘azal an‘anaviy yor va oshiq, oshiqning  
ishqiy kechinmalari tasviriga bag‘ishlangan. Mavzu an‘anaviy, lekin  
tasvir uslubi nihoyatda o‘ziga xos bo‘lib, g‘azal “Kim tabib, boshidan  
o‘tkazgan tabib” degan hayotiy haqiqat asosiga qurilgan. G‘azal qah-  
ramoni fikricha, visolning qadrini, visolga erishganlar emas, hijron  
azobini chekkanlar biladi. Vasl – shifo, hajr – bemorlikdir. Shunday  
ekan, shifoning qadrini bemordan, zilol suvning qadrini tashna odam-  
dan so‘ramoq lozim.

“Dilda darding bo‘lmasa, sardaftarimni kovlama” deydi Mashrab.  
Fuzuliy mana shu fikrlarga jo‘r bo‘lib, ishq ahlining ahvolini faqat  
ishqqa giriftor bo‘lganlargina biladi deya o‘git beradi. Ko‘zi yoshli-

larning holini g'ofil kimsalar anglay olmaganidek, kechalari yulduzlar sayrini ham tunlarni bedor o'tkazuvchi bedorlar biladi.

Shu tariqa g'azalda Fuzuliyning lirik qahramoni – mutafakkir, hayot haqiqatini chuqur anglab yetgan mushohadakor faylasuf sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu g'azal Sharq klassiklarining shu mavzudagi eng yaxshi she'rlari bilan hamohangdir. Biroq har bir buyuk shoirning iste'dodi har qanday mavzuni o'ziga xos tarzda yoritishni taqozo etadi. Fuzuliy ham barcha shoirlar kuylagan muhabbat mavzusini o'z qarashlaridan kelib chiqib, o'ziga xos shoirlilik ehtirosi hilan talqin etadi.

G'azalni o'rganar ekansiz, an'anaviy ishq mavzusi baytma-bayt tadrijiy rivojlanib teran falsafiylik, ijtimoiylik, ilohiy sirlilik darajasiga ko'tariladi. G'azaldagi "shifoyi vasl", "tashnai diydor", "labing sirri", "voqifi asror", "xarobot ahli" kabi istilohlar g'azalni tasavvufiy nuqtai nazardan chuqurroq o'rganishni, baytlar zamiridagi ma'no qatlamlarini teranroq talqin qilishni taqozo etadi. Biz faqat ifodali o'qish nuqtai nazaridan, g'azalni imkon darajasida o'rganishga harakat qildik. Bunday g'azallar oddiy she'r sifatida o'qilmaydi, balki o'quvchini inson va insонning ko'ngil olami haqida, hayot va hayotning sirli hodisalari haqida fikr yuritishga undaydi.

Shoir oshiqning ichki kechinmalari, dardu hasratini o'git va nasihat tarzida bayon etar ekan, she'r mazmuniga uyg'un mahzun ohang va ta'sirchan uslub tanlagan. G'azaldagi *bemor*, *diydor*, *asror*, *bemor*, *hush-yor*, *yor*, *xummor*, *vor* kabi qofiyadosh so'zlar va misralararo takrorlanib keluvchi "o'landan so'r" radifi g'azalning musiqiyiligini yanada oshiradi. G'azaldagi tazod san'atiga asoslangan hajr va vasl, tashbehu istioralar asosiga qurilgan *fatton ko'z*, *nargisi mast* kabi so'z va so'z birikmalari g'azaldagi asosiy g'oynani yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

Muhammad Fuzuliyning "Shifoyi vasl qadrin..." deb boshlanuvchi ushbu g'azalining vaznnini aniqlash uchun uni hijo va ruknlarga ajratib chiqamiz.

**Shi-fo-yi vas /- l qad-rin, baj / -ri-la be-mo / -ro'-lan-dan so'r,**

V - - - V - - - V - - - V - - -

*Ma fo iy lun ma fo iy lun ma fo iy lun ma fo iy lun*

**Zu-lo-li zav /- q shav-qin tash /- na-i diy-do /- ro'-lan-dan so'r.**

V - - - V - - - V - - - V - - -

*Ma fo iy lun ma fo iy lun ma fo iy lun ma fo iy lun*

**La-bing sir-rin / ge-lub guf-to / ra ban-dan o'z / ga-dan so'r-ma,**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**Bu phi-hon nuk / ta-ni bir vo / qi-fi as-ro / ro'-lan-dan so'r.**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**Go'-zi yosh-lu / la-ring holi / n na bil-sun / mardumi g'ofil,**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**Ka-vo-kib say / ri-ni shab to / sa-har be-do / ro'-lan-dan so'r.**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**G'a-ming-dan sham' / tak yon-dim, / sa-bo-dan so'r / ma ah-vo-lim,**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**Bu ah-voli / sha-bi hij-ron / ba-nim-la yo / ro'-lan-dan so'r.**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**X-aro-bi jo / mi ish-qam, nar / gi-si mas-ting/ bi-lur ho-lim,**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**Xa-ro-ba-tah / li-ning ah-vo / li-ni xum-mo/ ro'-lan-dan so'r.**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**Mu-hab-bat laz / za-tin-din be / xa-bar-dir zo / hi-di g'o-fil,**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

**Fu-zu-liy ish / q zav-qin, zav / qi shav-qi vo / ro'-lan-dan so'r.**  
V - - - V - - - V - - - V - - -

Yuqorida kuzatganimizdek, hijo va ruknlar tartibidan ma'lum bo'ladiki, ushbu g'azal aruzning hazaji musammani musabbag' vaznida yaratilgan ekan. Har bir baytda sakkiz rukn mavjud. Demak, g'azalni o'qish jarayonida sakkiz o'rinda qisqa tin olib (pauza) to'xtab o'tiladi.

G'azalda qisqa va cho'ziq hijolardan tashqari, o'ta cho'ziq hijolar ham mavjud. Chunonchi, birinchi baytdagi *bemor*, *diydar* so'zlarining ikkinchi bo'g'ini cho'zib talaffuz qilinadi. Shuningdek, keyingi baytlardagi *bemor*, *hushyor*, *yor*, *xummor*, *vor* kabi qofiyadosh bo'lib kelgan so'zlar tarkibidagi o, yo tovushlari ham cho'zib talaffuz qilinadi.

Ushbu g‘azalda vazn talabiga ko‘ra, ayrim yopiq hijolar oxiridagi undosh tovush o‘zidan keyingi unli bilan boshlangan so‘zga qo‘shtilib o‘qiladi. Masalan, birinchi baytidagi “*hajr ila*” birikmasi *haj-ri-la* tarzida, “*bemor o‘landan*” birikmasi *be-mo-ro ‘lan-dan* tarzida o‘qiladi. Bundan keyingi baytlardagi *bemor o‘landan* deb takrorlanuv-chi so‘zlarning barchasi ham shu tarzda o‘qiladi. Vazn talabiga ko‘ra, undosh bilan tugagan so‘zning unli bilan boshlangan so‘zga qo‘shtilib ketish hodisasi “*vasl*” deb ataladi.

**Mashq.** Alisher Navoiyning quyidagi g‘azalini o‘qib nasriy bayonini tuzib chiqing. Hijo va ruknlarga ajratib vaznnini aniqlang. G‘azalni ifodali o‘qishni mashq qilmg.

Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar navro‘z ila bayram,  
Chaman sarvi yashil xil‘at, mening sarvi ravonim ham.

Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,  
Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bori olam.

Chaman sarvi qolib bebar, mening sarvim bo‘lub dilbar,  
Ani el aylabon muztar, bu yeldek sekratib adham.

Qo‘nub ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidan g‘ulg‘ul,  
Bu sarv uzra ochilib gul, anga terdin tushub shabnam.

Qilib ohim sari parvo, bu yon mayl etmading qat’o,  
Sabodin, ey qadi ra’no, bo‘lur ham sarv gah-gah ham.

Bu bog‘ ichra may, ey soqi, ki bormen asru mushtoqiy,  
Ki anda sarv ham boqiy emas, gul ahdi ham mahkam.

Navoiy, kuyin et manzil, yuzu qaddig‘a bo‘l moyil,  
Ki bog‘ etmas seni xushdil, gulu sarv aylamas xurram.

## **“Saddi Iskandariy” dostonidan Luqmon hikoyatini o‘qish**

Eshittimki Luqmong‘a davron aro,  
Sukun erdi bir kunji vayron aro,

Buzug‘ni makon aylab andoqli ganj,  
Topar erdi issig‘-sovug‘ bo‘lsa ranj.

Yog‘in yo ko‘nasdan ul oromgoh,  
Aning jismig‘a bermas erdi panoh.

Yoshi mingga yetguncha erdi bu hol,  
Birov qildi hayrat yuzidin savol.

Ki: “Ey yorutub yer yuzin donishing,  
Nedin yo‘q jahon ayshi birla ishing?”

Vatan aylamay turfa koshonae,  
Qilib sen makon kunji vayronae?”

Javob aytti piri omuzgor,  
Ki: “Vayrona ichra uzun ro‘zgor.

Bukim chug‘z yanglig‘ basar ayladim,  
Sog‘indimki, daf‘i zarar ayladim.

Ki chun qilmadim mayl olamg‘a hech,  
Meni ul dog‘i solmag‘ay g‘amg‘a hech.

Muni ko‘rki davrondin eltur chog‘i,  
Olur mendin ushbu buzug‘ni dog‘i.

Chu oxir adam sori qo‘yg‘um qadam,  
Manga bordur ortug‘ bu vayrona ham.

Jahondin necha el haroson erur,

Aning ranjidin maxlas oson erur.

### G“azaldagi notanish so‘zlearning izohi:

Sukun – tinchlik, osoyishitalik

Kunji – o‘rin, joy

Ganj – xazina

Ranj – mashaqqat, azob

Piri omuzgor – donishmand qariya (pir)

Ro‘zgor – turnush, hayot, taqdir

Chug‘z – boyqush

Basar – ko‘z, ko‘rish, ko‘ra olish

Adam – yo‘qlik (o‘lim)

Haroson – qo‘rqinch

Maxlas – xalos bo‘lish, qutulish

### HIKOYATNING NASRIY BAYONI

Eshidimki, Luqmon o‘z zamoniда

Bir vayronada osoyishta hayot kechirardi.

Issiq-sovuqdan mashaqqat tortsa ham,

Xazina topganday vayronani o‘ziga makon qilgan edi.

Bu joy qoru yomg‘irildan

Uni panoh qilolmas edi.

Ming yoshga yetguncha shu ahvolda yashadi,

Bu holdan hayratga tushgan birov undan so‘radi:

“Ey yer yuzini aqlu donishi bilan yoritgan,

Nimaga jahon rohat-farog’ ati bilan ishing yo‘q?

Ajoyib koshonalarda yashamasdan,

Bir vayronani o‘zingga makon qilibsan?

Donishmand qariya shunday javob berdi:

Vayronada uzoq hayot kechirdim.

Xuddi boyqushday uzoqni ko‘ra olganim uchun,  
Zahmatni daf” qilishi istadim.

Olamga (dunyo moliga) may I qilmadim,  
Toki u meni g‘amga solmasin.

Ko‘tmaysammi, olamdan o tar chog‘imda,  
Shu vayrona ham qo‘ldan ketadi.

Modomiki, yo‘qlik sari qadam qo‘yar ekaman,  
Bu vayrona ham menga ortiqchadir.

Odam jahondan (molu dunyodan) qancha uzoq bo‘lsa  
Uning azobolaridan qutulishi ham oson kechadi”.

Luqmoni hakim obrazи bilan bog‘liq hikoyat va rivoyatlar, xalq orasida  
juda keng tarqalgan. Bu hikoyatlarda Luqmon eng murakkab mushkulot-  
larni ham o‘tkir aql va tadbir bilan hal qiluvchi donishmand, so‘zamol va  
hozirjavob qahramon sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiyning “Saddi  
Iskandary” dostonidan boshqa asariari tarkibida ham Luqmon haqidagi  
hikoyatlar mavjud. Masalan, “Tartixi anbiyo va hukamo”da Luqmon haqida  
bir necha hikoyatlar keltirilgan bo‘lib, ular hajman ixcham, mo‘jaz, lekin  
ibrali ma ho olam-olam. Navoiy eng ezuq g‘oyalar targ‘ibi uchun qayta-  
qayta Luqmon timsoliga murojaat qilar ekan, bunda ulug‘ shoir avvalo,  
xalq og‘zakijodidan ilhomlanadi. Masalan, juda ko‘privoyat va ertaklarda  
Luqmon fabib va donishmand qiyofasida namoyon bo‘ladi. U xalqqa shu  
qadar yaqin bo‘lib ketganki, xalq ko‘pincha o‘z bilimi, donoligi va hayot  
taribasini Luqmon timsolida mujassamlashтиради. Jumladan, “Luqmoni  
hakim” ertagida xalq tabobatidagi turli usullar va dori-darmonalr Luqmon  
bilan bog‘lab yoritiladi. Ertakda Luqmon Iskandarga zamondosh kishi si-  
fatida tasvirlangan.

Iskandar Zulqarnayn “Odami obi” (“Suv odami”)ni bilmоqchi  
bo‘lib, vazirlarining maslahati bilan zindondagi bandillardan birini shi-

<sup>1</sup> O‘zbek xalq ertaklari. 2-to‘m. 437-447-beclar.

shadan yasalgan uyga solib “Sho‘r daryo”ga tushiribdi, u odami obilarni ko‘rib podshoning tobe bo‘lish haqidagi taklifim aytgan ekan, ular bir kosa un berib, podshohing shu undan non qilib yesim, kosani oltin bilan to‘ldirsin, agar kosa to‘lsa, biz tobe bo‘lamiz, deyishibdi. G‘aznachi kosaga qancha oltin solmasin uni hech to‘ldira olmabdi. Folchilar va qur‘andozlar tadbir qilib kosaga tuproq solgan ekanlar, oltinlar ko‘rinib kosa to‘libdi. Podshoning xotini undan non yopaman desa, non oqib ketaveribdi. Podsho nonni yeb hech asorat sezmadim, foydali narsa yo‘q, debdi.

Podshoning xotini tilanib kelgan devonaga yopilmay qolgan nonni beribdi. Devona ariq bo‘yida tol soyasida nomi ivitib yeb ketayotgamida tol tilga kirib, o‘z xosiyatini aytib, sil kasaliga darmonligini so‘zlaydi. Shundan keyin boshqa daraxtlar, giyohlar ham tilga kirib, o‘z sir-asrorlarini, shifobaxshliklarini aytishibdi. Devona katta hakim bo‘lib ketibdi. Bu Luqmoni hakim ekan. Qissadan hissa shuki, ertakda Iskandarning dunyoga hirs qo‘yishi, yer yuzini egallash bilan qanoatlanmasdan, yer ostiga, suvliklar dunyosiga ham hukmronlik qilish yo‘lidagi xattiharakatlari qattiq qoralangan. Iskandar misolida, umuman, odam bolasiga xos ochko‘zlik, dunyoga to‘ymaslik kabi illatlar ko‘rsatilgan. Ertakdagagi kosa voqeasi esa aksariyat odamlar boriga qanoat qilmaydi, o‘zi to‘ysa ham ko‘zi to‘ymaydi. Faqt bu ko‘z o‘lganda bir siqin tuproqqa to‘yadi, degan hayotiy haqiqatni o‘zida mujassam etgan.

Alisher Navoiyning Luqmon haqidagi ushbu hikoyatida ham xuddi mana shu g‘oya talqin qilingan. Ulug‘ murabbiy (Navoiy) beqiyos aqlu donish egasi bo‘lgan Luqmonning nihoyatda kamtarona hayotini, mol-dunyo to‘plash yo‘lida harom-harishlar botqog‘iga botib ketgan jaholat ahliga iibrat qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Bu hikoyatning aynan “Saddi Iskandariy” dostonida keltirilishi ham bejiz emas. Hikoyat dostonning umumiyligi g‘oyasi bilan mantiqan bog‘liq. Garchand dostonda Iskandar adolatli podsho sifatida talqin qilinsa ham uning butun dunyoga egalik qilish yo‘lidagi g‘ayriinsoniy harakatlariga buyuk shoir chuqr taassuf bilan qaraydi.

Mazkur hikoyada Luqmon o‘tkinchi dunyo lazzatlaridan voz kechgan donishmandgina emas, balki mol-dunyo to‘plashni hayotining bosh maqsadi qilib qo‘ygan nafs bandalariga qarshi nafratlangan kishi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu nafrat navoiyona ramz, kinoya va istehzo

libosida berilgan. Luqmonning johil olomondan uzoqda yashashining ham o'ziga xos ma'nosi bor. Luqmon – aql-zakovat, ma'rifat timsoli. Jaholat va ma'rifat esa, hech qachon birga bo'lolmaydi. Navoiyning boshqa asarlaridagi kabi ushbu mo'jazg'ma hikoyatida ham inson o'z umrini ma'rifat bilan qadrlashi, el-ulus manfaati uchun kamarbasta bo'lishi lozim, degan umumbashariy g'oyalari mujassamlashgan.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni aruzning mutaqorib bahrida yaratilgan. Mana shunga asoslanib hikoyani hijo va ruknlarga ajratib chiqamiz. Asarning qisqa va cho'ziq bo'g'inlarini aniqlash, uning ruknlardan iborat ritmik bo'laklarimi belgilash, to'g'ri va ifodali o'qishga yordam beradi. O'qish jarayonidagi intonatsiya, pauza va ohang asarning g'oyaviy mazmuni hamda shakliy tuzilishidan kelib chiqadi. Binobarin, hikoyat mazmunini tushungan, aruz vazniga xos xususiyatlardan xabardor bo'lgan talabagina og'zaki ijro, ya'mi ifodalni o'qishni to'g'ri amalga oshira oladi.

**E-shit-tim / ki Luq-mon / g'a dav-ro / na-ro**

V - - V - - V - - V -

**Su-ku- ner / di bir kun / ji vay-ro / na-ro**

V - - V - - V - - V -

Hikoyatning boshqa baytlari ham mana shu tarzda mutaqoribi musammani maqsur vazni asosida hijo va ruknlari belgilab chiqiladi.

Asarning birinchi baytidagi *davron aro, vayron aro, sukun erdi* birikmalarida *vasl* hodisisi mavjud, ya'ni so'zning oxiridagi undosh keyingi so'zning oldidagi unliga qo'shilib ketadi. Demak, vazn talabiga binoan bu so'zlar *dav-ro-na-ro, vay-ro-na-ro, su-ku-ner-di* tarzida o'qiladi. Shuningdek, keyingi baytlardagi *jahon ayshi, basar ayladim, zarar ayladim, mayl olamg'a, davrondin eltur, mendin ushbu, haroson erur, oson erur* kabi birikmalar ham *vasl* qoidasi asosida o'qiladi.

Matnning birinchi baytidagi *davron, vayron* so'zlaridagi "o" tovushi o'ta cho'ziq "—" hijo tarzida talaffuz qilinadi. Ikkinchi baytdagi *ranj, ganj* so'zлari ham o'ta cho'ziq hijodir. Shuningdek, navbatdagi baytlar tarkibidagi *panoh, hol, savol, koshonae, vayronae* so'zlaridagi o tovushlari o'ta cho'ziq hijo tarzida talaffuz qilimishi lozim. O'ta cho'ziq hijolarga e'tibor bermaslik vazn buzilishiga, demakki, ifodalni o'qishga zarar yetkazadi. Aruz vaznidagi asarlarni *bir-ikki marta o'qib chiqish bilanoq* ifodalni o'qishni amalga oshirib bo'lmaydi. Shu bois-

dan ham, muayyan matnni qayta-qayta mutolaa qilish, mazmunini to‘la o‘zlashtirish, vazn qoidalarini o‘rganish orqaligina yaxshi natijalarga erishish mumkin.

### Tayanch tushunchalar

Aruz tizimidagi she’rlar. “Mezon ul-avzon” va aruz haqidagi ma’lumotlar.

Hijo. Hijo turlari.

Hijo – aruz tizimidagi she’rlarda dastlabki o‘lchov birligi.

Rukn – aruz tizimidagi she’rlarda asosiy o‘lchov birligi.

Ilmi balog‘a – til qoidalariiga to‘la amal qilgan holda, so‘zlash va yozish bilan bog‘liq fan.

Ilmi fasohat – yoqimli, chiroyli so‘zlash va yozishni o‘rgatadigan fan.

Garmoniya – (musiqada, she’rda) tovushlarning bir-biriga mosligi, uyg‘unligi.

Vasl – undosh bilan tugagan tovushning o‘zidan keyingi unli bilan boshlangan so‘zga qo‘silib ketish hodisasi.

### Savol va topshiriqlar

1. Aruz terminining kelib chiqishi haqida Alisher Navoiy qanday ma’lumotlar keltiradi?
2. O‘zbek aruziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
3. Qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolar qanday aniqlanadi?
4. Rukn nima? Ifodali o‘qishda ruknning qanday ahamiyati bor?
5. Bahr nima? Aruz vaznidagi qanday bahrlar bor?
6. Aruz tizimidagi asarlarni ifodali o‘qish uchun qanday qoidalarga amal qilish lozim?
7. Fasohat ilmi deganda nimami tushunasiz?
8. Abu Ali ibn Sino “She’r san’ati” asarida she’r uch xil narsa bilan xayolga ta’sir etadi, deydi. Bu uch xil narsa nima?

### Adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. She’r san’ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1980.

2. Anvar Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznimi o'rganish. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh to'mlik. 14-to'm. // Mezon ulavzon. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1967.
4. A.Rustamov. Aruz haqida suhbat. – Toshkent: Fan, 1972.
5. Abdurauf Fitrat. Aruz haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.

## NASRIY ASARLARNI IFODALI

### O'QISH

#### Reja

1. Latifa va hikoyalarning g'oyaviy xususiyatini aniqlash va ifodali o'qish.
2. Ertaklarni ifodali o'qishda mavzu va g'oyani aniqlashning ahamiyati.
3. Qissalarni ifodali o'qish.
4. Romanlarning mavzu va g'oyasini aniqlash. Romanlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari.

Nasriy asarlarni ifodali o'qish lirik turdag'i asarlarni o'qishdan tubdan farq qiladi. Bu farq, avvalo, asarning janr xususiyati bilan belgilanadi. Lirik turdag'i asarlarda shoirning oniy hissiyoti, voqelik haqidagi kechinmalari butun harorati bilan ifodalanadi. Boshqa ha qilib aytganda, she'r shoirning voqelikdan olgan taassurotlarini jo'shqin aks ettiruvchi ehtiros mahsuli sifatida yuzaga keladi. She'rni o'qiganda ham mana shu harorat, jo'shqinlik aks etib turadi.

She'r o'qishdagi bu shiddatkor uslubni butunligicha nasriy turdag'i janrlarga qo'llab bo'lmaydi.

Muallif nasriy asarda kishilarining hayoti va xarakterlarini ularning bir-birlariga bo'lgan murakkab munosabatlari orqali aks ettirar ekan, asar qahramonlarining ruhiy olami, urf-odatlarini tasvirlaydi, tabiat manzaralarini yoritishga joy beradi. Demak, nasriy turdag'i asarlarda biz (ayniqsa, qissa va romanlarda) hayotning keng manzarasini ko'ramiz. Nasriy asarlarda, odatda, voqealar bayoni yetakchi o'rinn egallaydi. Bu turdag'i asarlarni ifodali o'qish she'riy

janlardan farqli o'laroq, nisbatan osoyishta kechadi. Albatta, bu "osoyishta"likni muayyan asarning hamma o'rinalariga ham qo'llab bo'lmaydi, chunki voqealar davomida shiddatkor o'rinalar, hayajonli lavhalar ham uchraysdi. Badiiy asarning qaysi o'rinni qanday ohangda, qanday tempda o'qish lozimligini aniqlash uchun, dastiyab asarning g'oyaviy mazmunini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki asarda qo'yilgan hayotiy haqiqatni aniqlash, uni manitigan tushunib o'qishga, ayni paytda ifodalni o'qishga yordam beradi.

### Latifalarni ifodali o'qish

Nasriy turning eng kichik janmlaridan buri latifalardir. Latifa arabcha so'z bo'lib, latif, go'zal, yoqimli degan ma'nolarni bildiradi. Latifa xalq nozikfahmlik bilan ay'tgan kulgili *kichik hikoya* ma'nosida qo'llanadi. Shaklning kichikligiga qaramasdan latifa zamirida ko'pincha ibratlvi voqeа mujassamlashadi. Har bir latifada nozik bir mushohada, muhim bir fikr juda yorqin, ayni paytda kulgili xulosa bilan ifodalanadi. Latifalarda kinoya, majoz, qochirim so'zlar alohida badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shuning uchun ham, latifalarni o'qiganda har bir so'z, har bir jumlaning mazmunga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki latifa bitta jumla ham katta bir hayotiy haqiqatni o'zida mujassamlashtirigan bo'lishi mumkin. Masalan, quyidagi latifani ifodali o'qish qoidalariga asosan o'r ganib chiqaylik. Pauza olgan o'rinnlarga // - vertikal chiziq, qisqa pauzaga // - vertikal chiziq qo'yilgan.

Xo'ja Nasriddin Afandi Misr shahriga boribdi. // Unga go'riston orqali o'tishga | to'o'g'ri kelgan ekan, qabrlar ustidagi toshlardagi qiziq (mantiqiy urg'u) yozuvlarga ko'zi tushibdi. // Bu yozuvlarda | marhum-larning tug'ilgan va o'lgan yillari | qayd etilgandan keyin, | "uch oyu bir hafta umr ko'rdi // yoki "bir oyu uch kun umr ko'rdi" | deyilgan ekan. // Afandi ajablani bdi//: tug'ilgan va, o'lgan yillarini e'tiborga olganda | marhumilar ellik, | oltmish | va hokazo yillar yashagan ekan, bu esa | qabr toshlarida ko'rsatilgan oz muddat (oy va kunlar)ga tamoman zid. Afandi misriklardan "Bu nima qilganlaring |, odamlarning tug'ilgan va o'lgan vaqt bilan ko'rgan umri hisobi | bir-biriga sira to'g'ri kelma-

yapti-ku | ?" deb so'rabi. // Misriklar | : "Biz odamning tog'iiganidan o'lganigacha bo'lgan vaqtin umr hisoblamaymiz, | balki odamning baxtiyor bo'lgan kunlarning jamiki umr hisoblaymiz //". Shuning uchun ellik yoki oltmish yil yashagan odamning haqiqiy umri | ko'pincha oy va kunlar bilan hisoblanadi. // deb javob beribdilar. // Afandi misriklargar debdi | : "Agar men sizning shahringizda vafot etsam, | go'rim ushiga bunday yozuvli tosh qo'yinglar//"; "Buxorolik Xo'ja Nasriddin | tug'ilmasdan avval vafot edi //".

**G'oya.** Hayot faqat shodligu quvonchlardan iborat emas. Inson umrinning aksariyat qismi muammoyu tashvishlar girdobida o'tib ketadi. Lekin inson hayotida shunday lahzalar bo'ladiki, butun umr ga tatiydi. Hayotning mana shunday baxtiyor va mazmuni kechgan lahzalarining haqiqiy umr deb atasa bo'ladi. Latifaning g'oyaviy mazmuni tashkil etgan hayotiy haqiqat mana shundan iborat. Lekin asar yakunidagi Xo'ja Nasriddinddek xushchaqchaq insonning kutilmagan javobi eshituvchida beixtiyor kulgu uyg'otadi, ayni paytda hayot haqida chuqur mushohada yuritishga ham urdaydi.

Latifada ifodalanagan hayotiy haqiqatni aniqlab olish, uning o'qilish tempi, ohanggi va intonatsiyasini belgilashda muhim o'rinn tutadi. Lafizada tasvirlangan voqealar o'quvchida estetik hissiyot qo'zg'otadi. Binobarin, uni o'qishda mana shu hissiyot va emotsiyonallikka alohida e'tibor berish zarur. Latifa yakunidagi qissadan hissa sifatida aytilan oxirgi jumlaning har bir so'zi alohida ta'kidlab mantiqiy urg'u bilan o'qishni taqozo etadi.

**Mashq.** Quyidagi hikoyatlarni o'qib, asosiy g'oyani aniqlang. Mantiqiy urg'u tushgan bo'laklarni va pauzali o'rinalarni belgilab, ifodali o'qishni mashq qiling.

Bir kishi bir hakimning ziyyoratiga bordi. U behuda so'zlarini haddan ortiq valdirardi. So'ng so'z orasida: "Endi so'zlashni bas qilay" dedi. Hakim unga: "Yo'q, sen so'z so'zlaganining yo'q!", — dedi.

\* \* \*

- Afandi bir yalqovdan so‘radi:
- Holmg qalay?
  - Topsam yeypman, topmasam sabr-qanoat qilaman, – javob berdi yalqov.
  - Unday bo‘lsa, xuddi bizning shahar itlariga o‘xshar ekansan, – dedi Afandi.

### Hikoyalarni ifodali o‘qish

Hikoya – inson hayotidagi uncha katta bo‘limgan bir voqeaneing badiiy tasviridir. Hikoya epik turga mansub kichik hajmli janr bo‘lib, u o‘ziga xos imkoniyat va hayotiy qamrovga ega bo‘ladi. Hikoya tasvirining ko‘lami, syujet va ko‘inpozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayoning, asosan, bir shaxs tomonidan olib borilishi jihatidan epik turning boshqa janrlaridan ajralib turadi. Hikoya ko‘proq nasriy tuzilishga ega bo‘lsa ham, ayrim hollarda, ayniqsa, Sharq klassik adabiyotida she’riy shaklda ham uchraydi.

Hikoyada inson va uning hayoti uchun xarakterli bo‘lgan lavhagina ko‘rsatiladi. Unda inson hayotidagi ayrim hodisa, bu hodisaning yuza-ga kelishi hikoya qilinadi. Shu tarzda ayrim hodisagina bayon qilinishi sababli, unda kam personajlar ishtirot etadi. Hikoyaning syujeti asosini tashkil etgan hodisaning tugum, kulminatsiyasi, yechimi bo‘ladi. Lekin unda bu hodisaning rivoji ko‘rsatilmaydi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ho‘kiz o‘g‘irlanishiga qadar Qobil bobo bilan nima bo‘lgani ham, voqeа so‘ngidagi uning taqdiri ham bizga noma’lum. Hikoyaga dunyo adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri Jek London shunday ta’rif bergan: **“Hikoya – hayotdan olingen tugallangan epizod, kayfiyat, vaziyat, harakat birligidir”**.

Hikoyani ifodali o‘qishda bu janrning ana shu xususiyatlariga e’tibor qaratish, matndagi muallif nutqi, tabiat tasviri, dialoglar hamda qahramonlarning ichki kechinmalarini puxta o‘rganish lozim. Shunday hikoyalar ham uchraydiki, syujet voqealari faqat muallif tilidan bayon qilinadi. Hikoyada boshqa personajlar ishtirot etmasa ham, ularga xos bo‘lgan ba’zi xususiyatlar muallif tilidan hikoya qilinadi. Masalan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari tarkibidagi ko‘plab hikoyalar

mana shunday xususiyatga egadir. Voqealar faqat hir kishi tilidan bay-on qilingani sababli, hikoyani o'qiyotganda ijrochi monoton (bir xil) ohangga berilib ketmasligi kerak. Hikoyani o'qishda voqealar mazmumidan kelib chiqqan holda, ovoz tovlanishlari, temp, urg'u kabi ifodali o'qish vositalariga alohida e'tibor beriladi.

**Mashq.** “Guliston” asaridan tarbiyaning ta'siri bayoni haqidagi hikoyatni o'qish.

### Hikoyat

Mag'rib diyorida qosh-qovog'i osilgan, tili achchiq, badfe'l, dilo-zor, gadoytabiat va fosiq bir muallimni uchratdim, uni ko'rghan mahalda musulmonlarning ta'bi tirriq bo'lar, Qur'on o'qiganini eshitganda, kishilarning dillari siyoh bo'lardi. Barcha pokiza o'g'lonlar va qizlar uning jafosiga giriftor, na kulishga jur'at va na so'zlashga jasorat etardilar. Muallim goh birining nuqraday yuziga tarsaki tushirar, goh boshqasining billurday oyog'iga iskanja solardi. Xullasi kalom, bir kun eshitdimki, ota-onalar muallimning razilligini payqab, uni madrasadan urib hayabdilar. Shundan keyin maktabni sofdir, namozxon, sodda va mu-loyim tabiatli bir kishiga topshirdilar. Bu muallim zarurat bo'limasa lom-mim demas va hech kimsaga ozor bermas edi. Bolalar oldingi muallimning qattiqko'l va zolimligini unutdilar, devtabiat bo'lib ketdilar va ilm o'rganishni tark etdilar. Ular ko'p vaqtlarini o'yin-kulgi bilan o'tkazar va savod taxtalarini bir-birlarining boshlariga urib sindirar edilar.

Agarda muallim bo'lsa beozor,  
Bolalar sinfni qilishar bozor.

Oradan ikki hafta o'tgach, boyagi masjidga bordim. Ko'rdimki, av-valgi muallimning ko'nglini ovlab keltirib, yana o'z o'rniga tayinlab qo'yibdilar. Bu holatdan ranjidim, beixtiyor: “Nega yana o'sha iblisni bu farishtalarga muallim qilibdilar?” – dedim. Ko'pni ko'rghan, zakiytab' bir mo'ysafid dedi:

“Yubordi o'g'lini maktabga podsho,  
Qilib qo'ynig'a nuqra taxtacha jo.  
Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:  
“Ota mehridan afzal jabri ustod”.

**Mavzu.** Ushbu hikoyat Sa'diy "Guliston"idagi boshqa hikoyatlar kabi hajman nihoyatda qisqa, lekin unga singdirilgan ibratlari ma'no va mazmun olam-olam. Hikoyat ta'lim-tarbiya mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda adib yoshlari tarbiyasida muallimning shaxsiyati, o'qitish uslubi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**G'oya.** Hikoyada muallimning badfe'lligi va bolalarga shafqatsizligi qoralanadi. Ayni paytda, muallif "Ota mehridan afzal jabri ustod", "Agarda muallim bo'lsa beozor, Bolalar sinfni qllishar bozor" kabi qistirma misralar orqali uning tarbiyadagi qattiqqo'llik uslubim ma'qullaydi. Adib farishtadek beozor muallimning tarbiyasi natijasida bolalarning devtabiat bo'lib ketganini bayon qilish orqali yoshlari tarbiyasida sustkashlik va o'ta muloyimlik ham yaxshi natija bermasligini uqtiradi.

### **Ertaklarni ifodali o'qish**

Yosh avlodni o'z xalqiga, millatiga, tug'ilib o'sgan Ona yurtiga chuqur hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalashda ertaklarning abamiyatni beqiyosdir. Xalqimizning o'tmishi, milliy urf-odatlari, dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy boyliklari, go'zal bog'lariyu ulug'vor tog'lari ertaklarda nihoyatda jozibador tasvirlangan. Ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda ajdodlarimizning erk vaadolat, birlik va ahilik yo'lida olib borgan kurashlari aks etadi. Ertak qahramonlari hech qachon mehnat va mashaqqatlardan qo'rqlmaydilar, jismoniy va ruhiy barkamolligi tufayli yovuz kuchlarni yengib hamisha g'alaba qozondilar. Shuning uchun ham ertaklar katta-yu kichik – hammani birdek o'ziga jalb qiladi, estetik zavq uyg'otadi, ezgu maqsadlar yo'lida to'siq bo'lgan g'ovlarni yengib o'tishga o'rgatadi. Binobarin, hammaga ta-niqli ba'zi mashhur zotlarning o'zlaridagi yaxshi fazilatlarni go'zal ertaklardan olganliklariga misollar oz emas.

Ertaklarni ifodali o'qishda ulardagi an'anaviy boshlama (zachin) larga alohida e'tibor qaratish lozim. Ko'pgina ertaklarning boshlamasi odatda, saj' usulida yaratiladi. Masalan, "Tulki bilan tovus" ertagini muqaddimasi shunday boshlangan: "Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a

qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to‘rg‘ay to‘qimchi ekan, bo‘ri hakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo‘ri bor...”

Ertak boshlamasidagi bir-biriga qofiyadosh bo‘lgan so‘zlarining takrorlanib kelishi o‘ziga xos ritm va ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Og‘zaki ijroda mana shu ohangdorlikni to‘g‘ri aks ettirish eshituvchining diqqatini o‘ziga jalb qiladi va asar mazmuniga bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi. Ba’zi ertaklar esa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saj’siz zachin orqali ham boshlanishi mumkin: “**Qadim zamonda bir podshoning go‘zallikda tengsiz qizi bo‘lgan ekan...**” Bunday boshlamalar xuddi muallif bayoni kabi vazmin ohangda o‘qiladi.

**Mashq.** Quyidagi ertakni ifodali o‘qish qoidalari asosida o‘rganib chiqaylik. Ikkiti vertikal chiziq || pauzani, bitta vertikal chiziq | esa, qisqa pauzani bildiradi.

Bir bor ekan, | bir yo‘q ekan, | qadim zamonda || bir kishi bo‘lgan ekan.|| Uning uchta o‘g‘li bor ekan, | uchovi ham o‘qigan, | oq-qoran ni tanigan, | yuzlari oyday, | o‘zлari toyday, | yomon bilan yurmagan, | yomon joyda turmagan ekan. || To‘ng‘ichl – yigirma bir yoshda, | o‘rtanchasi – o‘n sakkiz yoshda, | kenjası – o‘n olti yoshda ekan. ||

**To‘ng‘ichi, o‘rtanchasi** va **kenjası** so‘zlari alohida ta’kidlab, man-  
tiqiy urg‘u berib o‘qiladi. Bu so‘zlardan so‘ng tire bo‘lganligi uchun  
qisqa pauza qilinadi.

Otasi bir kum bularni o‘z oldiga chaqirib, | har birining peshonasi-  
dan silab, | bunday debdi: ||

– O‘g‘illarim, | men boy emasman, | mendan qolgan narsalar |  
sizning turmushingiz uchun yetmaydi, | endi mendan biror narsa umid  
qilib o‘tirmanglar. || O‘lganimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar, |  
deb sizlarni o‘qitdim, | boqdimm-ko‘rdim, | voyaga yetkazdim, | quvvatli  
bo‘ldingizlar, | yarog‘ ushlashni o‘rgatdim, | yarog‘ ishlatalishda usta  
bo‘ldingizlar, | qo‘rqtymay o‘stirdim, | botir bo‘ldingizlar. || Yana uch  
narsani aytaman, || quloqlaringizga otib, | eslariningizdan chiqarmang-  
lar: || To‘g‘ri bo‘ling – || beavaxotir bo‘lasiz. || Maqtanchioq bo‘lmang  
– || uyatga qolmaysiz. || Dangasa bo‘lmang – || baxtsiz bo‘lmaysiz. ||  
Bundan boshqasini endi o‘zingiz biling. || Qora toyni, | saman toyni,  
| ko‘k toyni asboblari bilan tayyorlab qo‘ydim. || Xurjunlaringizni bir

haftalik ovqat bilan to 'lg'izdim. || Baxtingiz yo 'lda, | uni topib olmoq uchun safarga chiqingiz, | dunyoni tanimay, | dunyo kishisi bo 'lmaysiz. || Baxt qushini ushlamoq uchun | baxt oviga chiqinglar. || Xayr endi, | o 'g 'illarim, - | deb so 'zini tanom qilibdi. ||

G 'oya. Olaning o 'g 'illariga aytagan to 'g 'ri bo 'ling - bexavotir bo 'Imang, maqtanchoq bo 'Imang - uytaga qolmaysiz, dangsa bo 'Imang - baxtsiz bo 'Imaysiz kabi o 'git-nasihatlari asarning g 'oyaviy asosini taskhil etadi.

Keltirilgan matnda katta bayot tajribasiga ega bo 'lgan otaning sevimli farzandlariiga nasihatni bayon etigan. Erlakning ushbu o 'rinlari vazmin nashihat ohangida o 'qiladi. Ota tomonidan aytigelan "yarog' ushlasini o 'rgatdim", "qo 'rgitmay o 'sturdim", "to 'g 'ri bo 'ling", "maqtanchoq bo 'Imang" kabi so 'zlar alohida ta 'kidlab, urg 'u berib o 'qilsa, er-taking g 'oyaviy-estetik mazmuni yanada terannoq ochiladi.

### Qissalarни ifodalı o 'qish

Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai sultoniy..." asarida qissaxonlar va afsona aytuvchilar haqda fikr yuritar ekan, shunday deb yozadi: "Shuni bilki, qissa o 'qish va qissa eshitishning soydasini katta. Birinchidan, kishi o 'tg'an ajoddalarning ishi va ahvoldan xabardor bo 'ladi. Ikkinchidan, odam g 'aroyib va ajoylib voqeа, sarguzashlarni eshtisa, fikri va ko 'zi o chiladi. Uchinchidan, o 'rganlarning zahmatu uqubatlaridan xabardor bo 'lsa, hech kim bu dunnyoda tashvishu g 'amdan ozod emasligini angib ko 'ngli taskin topadi, tasallli bo 'ladi". Mashhur adibning qissa o 'qish va qissa eshitishning ma 'naviy, ma rifiy ahamiyati haqidagi bu fikriari hamon dolzarb bo 'lib turibdi. Darhaqiqat, qissalar ham adabiyoning boshqa janrlari kabini inson fikrimi ra'shanlashtirishda, qalb ko 'zlarini ochishda, ruhiy olamini boyitishda beqiyos ahamiyat kash etadi.

Qissalarни ifodalı o 'qishga kinishishdan oldin, uning jant xususiyatini belgilash, asarda qo 'yilgan bosh g 'oyani aniqlash lozimi bo 'ladi. Shu bilan bir qatorda, asarda ishtiroy etuvchi personajlarning xarakteriga xos xususiyatlarni o 'rganish, o 'tkir dramatizm, keskin

konflikt aks etgan o 'rinlarni belgilash ifodalı o 'qishning samaradorligini yanada oshiradi.

Chingiz Aytmatovrning "Birinchи muallim" qissasidan olingan quydagi parchani ifodalı o 'qish qoidalari asosida o 'rganib chiqamiz.

...Har oyning oxirida | Duyshen ish bilan volostga piyoda jo 'nab ketardi-yu, | shu bilan iki-uch kun deganda qaytib kelardi. || shu kunlarda biz | uni juda sog 'inib qolardik. Bir tug 'ishgan akanni kutganday | kenoymga bildirmay, | tez-tez pastki yo 'lga qarab, | muallimning xurjun ko 'targan qorasи ko 'rinarmikin, | yuragimni ilituvchi tabassumini qachon ko 'rarkinman, | ma rifatli so 'zlarini qachon eshitarkinman, | deb yo 'liga intizor bo 'lib kutardim. ||

Duyshemming shogirdlari ichida | eng kattasi men edim. | Shuning uchun ham | boshqalardan uquvim yaxshiroq edi, | lekin | nazarimda, | boshqa sababi ham yo 'q emasdi. || (Ajratib ko 'rsatilgan bo 'lak alohida ta 'kidlab, mantiqiy urg 'u berib o 'qiladi) Muallimning har bir so 'zi | ko 'rsatgan har bir harfi | men uchun tabarruk, | muallimga ixlosim zo 'r edi. || Duyshemming ta 'limini | qulog 'imga quyib olishdan ham muhim roq ilinjim yo 'q edi bu dunyoda.

Duyshemming bergen daftarini ayab-avaylab, | uni yeru ko 'kka ishonmay, | yurgan yo 'limda o 'roq uchi bilan yer chizib, | ko 'mir bilan devorga, | xirich bilan qor ustiga | harf-suratini solib, | so 'z to 'qib yurardim. || Nazarimda, | dunyoda Duyshendan o 'tar olim, | undan o 'tar aqli odam yo 'q edi. || (Mantiqiy urg 'u)

Shu orada | qish ham kirib qoldi.

Birinchи qor tushguncha | tepaning etagida shildirab oqib turgan ariqdan | qo 'l ushlashib kechib o 'tib yurdik. || Keyin | ariqning suvi oyogni kesib yuboradigan bo 'lib, | kichkina bolalarning ko 'zidan | firqirab yosh ham chiqib ketdi. Endi bolalar | turnaday tilzilishib turishardi. || Duyshen ularni galma-galdan | bittasini yelkasiga olib, | jikinchisini qo 'lida ko 'tarib | ariqdan o 'tkazib qo 'yardi.

G 'oya. Bosh qahramonning hikoyasi tarzida berilgan ushbu lavhada yaqin o 'tmisdagi og 'ir zamонлар va bu zamоннинг zil-zambilday yu-kini yelkasida ko 'targan fidoiy inson - Duyshen muallimning yorqin

<sup>1</sup> Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tilidän Naimiddin Komilov tarjiması). - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq netosi nashriyoti, 1994. 81-bet.

siymosi tasvirlangan. Ayni paytda kelajakka isbonch bilan boqayotgan, ilmga tashna Oltinoyning yurak to‘lqinlari, muallimiga bo‘lgan bolalarcha beg‘ubor va samimiyy muhabbbati ta‘sirchan ifodalangancha.

“O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar” degan maqol bor xalqda. Bolta insonning mushkulini oson qiladi, kuniga yaraydi. Lekin inson bolta yorgan o‘tinlarni olib ketadi-yu, boltani artib, avaylab joyiga olib qo‘ymaydi, bolta chang bosib maydonda qolib ketadi. Duyshen qismati mana shu holatni eslatadi. O‘zgalar manfaati yo‘lida o‘zini fido qiladi, ezgu maqsadlari uchun xizmat qilishni o‘zinimg insoniylik burchi deb biladi, lekin achinarlisi shundaki, bu xokisor inson jamiyatda shunga yarasha e‘zoz va qadr topmaydi. Aslida asar markazida turgan masala insonning xizmatiga yarasha baholanmaganida emas. Aksinchal, el-yurtga xizmat qilish, hatto qahramonliklar ko‘rsatish shonu shuhrat uchun yoki jamiyatda alohida o‘rin egallagani uchun qilinmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Duyshen muallim ezgu maqsadlar yo‘lida, insoniylik burchi taqozosini bilan vatan va xalqqa xolis xizmat qilishning yorqin namunasidir.

Har bir asarni qanday ohangda o‘qish o‘sha asarning umumiy ruhidan kelib chiqadi. Masalan, G‘afur G‘ulomming “Shum bola” qissasi bilan Chingiz Aytmatoyning “Birinchi muallim” qissasini bir xil ohangda o‘qib bo‘lmaydi. Buning sababi shundaki, “Shum bola” ajoyib-g‘aroyib sarguzashtlar, hazil va mutoyiba asosiga qurilgan bo‘lsa, “Birinchi muallim”da anduhli muhabbat qissasi bayon etilgan. “Shum bola” qissasimg aksariyat o‘rnlari, sho‘xchan ohang, tezkor tempni talab qilsa, Oltinoyning yo‘qotgan muhabbbati haqidagi iztirobli hikoyasi, nisbatan osoyishta va biroz hazm ohangni taqozo qiladi.

**Mashq.** Qissadan olingan parchani o‘qing. Pauzali o‘rnlarni, mantiqiy urg‘u olgan so‘z yoki so‘z birikmalarini aniqlab, ifodali o‘qishni mashq qiling.

...Qish dovon oshdi. Bahor yeli yetib kelganda tog‘ qo‘ynida oq qor, ko‘k muz siljib, o‘ziga yo‘l ochib katta-katta toshlarni yumalatib yuborganda, bahor taronasini o‘ylab toshqin suvlar tog‘ yelkalaridan shildirab oqib tushdi.

Ehtimol, bu mening ilk yoshlik bahorim bo'lgadir. Bahor ko'rki ko'zimga har yilidan boshqacharoq tuyuldi shekilli, bizning maktabimiz o'nashgan tepadan ko'ringan ajoyib bahor manzarasi meni o'ziga maftun qilardi. Yer xuddi quloch yoyib o'zini to'xtatolmay tog'dan quyosh nuriga g'arq bo'lган, yengil, suyuqqina tutun qoplagan ko'kimir bepoyon dala-qirlarga g'izillab yugurib borayotgan bo'lar, allaqayerlardan havoni larzaga keltirib kishnagan cho'ziq yilqi ovozi eshitilib turar, osmonda kumush bulutlar oralab kishiga zavq berib o'tayotgan turnalar yeri ko'kka bahordan darak berib, uzoq safarga chorlaganday saf tortib o'tishardi.

Bahor kelishi bilan bizlarga ham jon kirdi. O'yin-kulgimiz ko'payib, maktabdan ovulga bir-birimizni quvalab, qiyqirishib borardik. Kennoyimning bunga g'ashi ketib, har gal bir qarg'ab olmasa ko'ngli o'rniga tushmasdi:

– Hey, ta'viya, muncha shataloq otmasang? So'laqmonday bo'ying bir joyga yetib qolibdi-yu, yurishingni qara, yo qari qizlikni bo'yingga olmoqchimisan? Sen tengi qizlar allaqachon erga chiqib, qaynanalik-qaynatalik bo'lib olishdi, sen bo'lsang... Huv, topgan matohing boshingda qolsin! Maktabing bilan qo'shmozor bo'lgur! Hali shoshmay tur, adabingni bermasam seni...

Kennoyimning do'qlari ham menga uncha kor qilmasdi, uning qarg'ishlarini eshitaverib etim o'lib qolgandi. Ichi qoraligidan qari qiz derdi, bo'limasa bo'yim o'zi shu yil bahorda sal cho'zilganini demasa, o'zim boyagi-boyagi, Duyshen aytmoqchi, sochi paxmoq malla qizman-ku... Duyshenning gapiga jahlim ham chiqmasdi. "Sochim-ku paxmoqku-ya, – deb o'ylardim o'zimcha, - lekin malla emasman. Bo'yim etsin bir chiroyli qiz bo'layki, odamlarning havasi kelsin! Duyshen menga: ko'zlarining yulduzday yonib turadi, istarang issiq, Oltinoy" – deb aytib yuradi-ku!

Bir kuni maktabdan kelsam hovlimizda ikki begona ot bog'loqlik turibdi. Egar-jabdug'iga qaraganda, egalari tog'dan tushishgan. Ilgari ham bozor-o'chardan qaytishda hovlimizga kirib o'tishardi.

Kennoyimning qandaydir beo'xshov xoxolab kulganı ostonaga yetmasimdanoq qulog'imga chalindi:

– Jiyani bola, ko'pam pishiqlik qilaverma, kamib qolmaysan. Kennoyining qadrini jazmaning qo'lingga tekkanda bilasan! Hali zamон o'zing ham ko'rarsan! Xi-xi-xi!

Hammalari gur etib kulib yuborishdi, meni ostonada paydo bo‘lganimni ko‘rib, jim bo‘lib qolishdi. To‘rda namat ustiga yozilgan dasturxon yonida yuzlari qip-qizil, semiz bir odam o‘tirgan ekan. U katta suvsar telpagi ostidan menga yalt etib qarab, tomog‘ini qirib yo‘talganday bo‘ldi.

– E, keling, oppoq qiz, kela qoling, oppog‘im! – qarasam, kennoyim jilmayib, juda shirin so‘z bo‘lib qolibdi. Amakim ham namatning bir chekkasida yana birov bilan o‘tiribdi. “Tuz, ko‘zir” deb qarta o‘ynab, aroq ichib, ovqat yeb o‘tirishibdi. Ikkovlarining ham kayfi boru, qarta urganda tebranib kallalarini qimirlatishadi.

Ko‘k mushugim dasturxonga yaqin kelgan edi, yuzi qizil odam uni mushti bilan bir urdi, mushuk bechora jon achchig‘ida miyovlab, bir burchakka borib jim bo‘lib qoldi. Yegan mushti jonidan o‘tib ketdi-da! Qanday qilib chiqib ketishimni bilmay turganimda, kennoyim menga asqatdi:

– Aylanay bolam, ovqating qozonda, olib yeya qol, – dedi.

Uydan tashqari chiqib ketdimu, lekin kennoyimning tilyog‘lamaligini ko‘rib, ko‘nglim g‘ash bo‘lib qoldi. Beixtiyor hushyor tortdim.

Chamasi, ikki soatlardan keyin mehmonlar otlariga minib, toqqa jo‘nab ketishdi. Kennoyim yana boyagiday: “Shumshuk, tirik yetimcha”, – deb qarg‘ay boshlagan edi, ha, boyagi mastligida aytgan gaplari ekan-da, deb ko‘nglim o‘rniga tushdi.

Shu voqeadan biroz o‘tgach, biznikiga bir ish bilan Sayqal buvi kirib keldi. Hovlida yurganimda uning: “Voy, bu nimasi! Uvoliga qolishdan qo‘rqmaysanmi?” – deb ko‘ngli buzilib gapirganini eshitib qoldim.

### Romanlarni ifodali o‘qish

Roman epik turning keng qamrovli janr bo‘lib, uning asosiy xususiyati inson hayotini butun murakkabligi bilan har tomonlama aks ettirishdan iboratdir.

Romanda ishtirok etuvchi bosh qahramonlar ham, syujet chizig‘ida muhim o‘rin tutuvchi boshqa personajlar ham atroflicha yoritiladi. Shuning uchun roman til jihatidan murakkab, hajim jihatidan ko‘lamdor bo‘ladi. Romanda turli personajlar tasviri, tavsifi, voqeanning boshlanishi, u boshlangunga qadar personaj hayotida yuz bergen hodisa, uning

voqealari so‘ngidagi taqdiri, ekspozitsiyaning turli ko‘rinishlari birlashib, kompozitsiyani vujudga keltiradi.

Romanda ishtirok etuvchi turli toifaga mansub kishilar nutqining turli ko‘rinishlari – monolog, dialog, voqeani bayon etish usullari – chekinish, tavsif, tabiat tasviri va boshqalar ham bir butunlikni tashkil etib, murakkab hayotiy jarayonni tasvirlashga xizmat qiladi.

Epik turga mansub qissa, roman, doston kabi janrlarni ifodali o‘qishda ham asarda qo‘yilgan asosiy mavzu va g‘oyani amqlash og‘zaki ijroning samaradorligini belgilaydi.

**Mavzu.** Roman janridagi asarlarni ifodali o‘qishning o‘ziga xosligi shundaki, unda ishtirok etayotgan o‘nlab personajlarning xarakter xususiyatini, so‘zlash usluhini, madaniy saviyasini atroficha o‘rganish lozim bo‘ladi.

Har hir asarning mazmunini chuqur egallab olish uchun, oldim uning mavzusi aniqlab olinadi. Mavzu – yozuvchi tanlagan va tasvirlagan, hayot voqealarini aks ettirilgan masalalardir.

Ma’lumki, asar mavzusini uning g‘oyasidan ajratib bo‘lmaydi. Chunki yozuvchi tasvirlagan masala asar mavzusi bo‘lsa, g‘oya yozuvchining shu masalaga munosabati,unga bergen bahosidir.

Shunday ekan, ifodali o‘qishda asar mavzusi va g‘oyasi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmay turib, o‘qishning mazmunli va ta’sirchan bo‘lishiga erishish qiyin. Muayyan romanning mavzusini aniqlashdan maqsad talqin paytida shu maqsadni ro‘yobga chiqarishdir, ya’ni ifodali o‘qishda mavzuni belgilab olish amaliy ahamiyatga ega.

Katta hajmli asarlardan parcha o‘qilganda, tanlangan parchanining konkret mazmumiga alohida e’tibor beriladi. Negaki, har bir katta asarda umumiyyat mavzu bilan bir qatorda, boshqa kichik mavzulari ham bo‘ladi.

**Mavzu.** Roman tarixiy mavzuda bo‘lib, unda Bobur Mirzo avlodlarining dovonlari murakkab hayot bosqichiarida aks etgan. Asarda, asosan, Boburning to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyun va nevarasi Akbarshoh hayoti manzaralari jonlantirilgan. Boburning vafotidan so‘ng ulkan Hind mamlakati hududida toj-taxt uchun kurash qizib ketadi. Mamlakatga Bobur tomonidan qonuniy hukmdor qilib taymlangan Humoyunning boburiylar hukmronligini saqlab qolish uchun olib borgan kurashlari romanning asosini tashkil qiladi.

**G‘oya.** Romanda Humoyunning ota ishiga cheksiz sadoqati, Bobur

saltanatini og‘ir sinovlardan omon saqlab qolish yo‘lidagi kurash va qahramonliklari, qalb kechimmalari, hayajonli lavhalarda aks ettirilgan. Ayni paytda hayot-mamot damlarida Humoyunni qo‘llab-quvvatlagan Bayramxon va Nizom kabi olivjanob kishilarning yuksak insoniy fazilatlari ulug‘langan.

**Mashq.** “Avlodlar dovoni” romanidan parcha o‘qish.

Orqadan yana yov otliqlari va fillari bostirib kelmoqda edi. Bayramxonning ovozi keldi.

— Hazratimni daryo bo‘yiga olib ketinglar! Biz yog‘inyi o‘tkazmagaymiz! La’l Chand, filingiz bilan himoyada turing!

Humoyunning yelkasiga qadalib turgan uzun yoy o‘qi ot yo‘rtganda qattiq silkinar va jazillatib og‘ritar edi. Humoyun himoyachi navkarlar qurshovida ot choptirib borar ekan, yana yol ustiga engashib, chap qo‘lini o‘ng yelkasiga cho‘zdi-yu, qadalib turgan yoy o‘qini bir harakat bilan sug‘urib tashladi. Shu payt og‘riqdan ingrab, otning yoliga yuzini bosdi. Javhar ostobachi o‘ng tomondan otini jips keltirib, uni qo‘ltig‘idan suyadi. Yelkadan oqayotgan qonni to‘xtatish uchun yaralangan joyni yumshoq salsa matosi bilan besh-olti marta o‘rab, qat-tiq chirmadi-yu, qo‘ltiq tagidan tang‘ib bog‘lab qo‘ydi.

Bayramxon va La’l Chand markazdan o‘tib kelgan yovning yo‘lini to‘sigan bo‘lsa ham, ikki qanotdan yorib kirgan boshqa yuzlab otliqlar Humoyunga qarab yopirilib kelmoqda edi. Humoyun orqaga o‘girilib qarab, Bayramxon La’l Chand boshliq fillar yordamida himoyaga turganini ko‘rdi.

Qirg‘oqda birorta kema ham, qayiq ham yo‘q. Odam to‘la bir kema qirg‘oqqa yetay deb qolgan. “Mavludbek ayollar bilan bolalarni o‘sha kemada olib chiqib ketgandir”, degan o‘y Humoyunga ozgina tasalli bergandek bo‘ldi. O‘ng qanotdan otolib chiqqan yov otliqlari yuzdan ortiq. Humoyunni himoya qilib qirg‘oqqacha kelgan navkarlar esa, o‘ttiz-qirqtagina xolos. Qurshovda qolib asir tushish o‘limdan ham dax-shatliroq. Humoyun qilich dastasini qidirib, belimi paypasladи. Amмо bo‘sh, yengil qin salanglab osilib turganini ko‘rdi va boyagi yarador filni esladi.

Chug‘urchuqday behisob dushman otliqlari tobora yaqinlashib kelayotgani Nizomni ham sarosimaga soldi. U qo‘lidagi meshga havo

puflab, uni tarang qilib shishirdi-da, og‘zini mahkamlab bog‘ladi. Mesh yordamida narigi qirg‘oqqa suzib o‘tish uchun suvga qarab chopdi.

Bo‘tana bo‘lib to‘lib oqayotgan toshqin daryo Humoyunning vahmini keltirdi. Lekin yaqin kelib qolgan dushmanlarga asir tushish undan ham dahshatliroq edi. Tagidagi saman – zo‘r ot, Humoyun suzishni biladi. Xos navkarlar yov ilg‘orlarining yo‘lini to‘sib, ular bilan qilich chopisha boshlagan paytda Humoyun Nizom suvga tushgan joydan sal nariroqda otini qirg‘oqdan daryoga sakratdi. Suv avval otning soniga-cha keldi, keyin qorniga chiqdi. Humoyun egardan tushib sog‘ qo‘li bilan samanning bo‘ynidan quchoqlab oldi. O‘ng qo‘l butunlay ishdan chiqqan, sal qimirlatsa yelkadagi yara og‘rig‘iga chidab bo‘lmaydi. Daryo birdan chuqurlashib, otning oyog‘i yerga tegmay qoldi. Ot ustiga yopilgan og‘ir zirhli kejim va uning bo‘yniga osilib olgan yarador Humoyunning vazni samanni cho‘ktirib yubora boshladи. Ot pishqirib tumshug‘ini suvdan chiqardi-yu, birpas suzib ko‘rdi, ammo yana suvga botib ketdi. Humoyun otning bo‘ynimi qo‘yib yuborib bir qo‘llab suzib ko‘rdi. Ammo kutilmagan girdoblar uni pastga tortib ketayotganday bo‘ldi-yu, yana cho‘kayotgan otning yoliga yopishdi.

Bu orada Humoyun oqim kuchi bilan Nizomga yaqin borib qoldi. Meshga ko‘kragini berib qichab suzayotgan Nizom esa, podshoga bir joyi tegib ketishidan cho‘chib o‘zini nariroq oldi.

Axir, daryolar oralig‘idagi bu bexosiyat joyni qarorgoh qilishga Nizom ham, boshqa hind suvchilari qatori, qarshi edi. Lekin Humoyun ularning ogohlantirishiga quloq solmadi, yana xushomadgo‘y beklarning gapiga kirdi, chodirda may ichib yotib fursatni boy berdi. Bugun ko‘p qatori Nizom ham shu xatolarning kasofatiga qoldi. Bas, endi Nizom bu podshoga yaqin bormaydi. Laganbardor beklari Humoyunni “yengilmas botir” deb maqtashadi. Qani Karamnasa ichida shu botirligini bir ko‘rsatsin! Boya daryoga ot sakratib kirganiga qaraganda hash-pash demay narigi qirg‘oqqa suzib o‘tsa ajab emas.

Bu kinoyali o‘ylar asnosida suv tagidagi allaqanday o‘pqon girdobi Nizomni oyoqlaridan pastga torta boshladи. U ko‘kragini qo‘ygan mesh ham kuchli girdobga tushib aylanib ketdi. To‘satdan Nizomning nafasi qaytib, ko‘zi tinganday bo‘ldi.

Hind kemachilarining Karamnasadan hayiqib, uni chetlab o‘tishlari bejiz emas edi. Bu daryoning tagida chuqur o‘pqonlar ko‘p, suv gir-

dobi ularga quyilib tushayotganda odamni ham pastga tortib ketar edi. Yomg'ir faslida tog' ichidagi simob konlaridan Karamnasa daryosiga ko'ngilni aynitadigan, hatto odamni es-hushidan ketkazadigan badbo'y, zaharli narsalar oqib kelardi.

Zaharli hovurdan ko'ngli ayniy boshlagan Nizom mesh ustiga yuztuban yotib oldi-yu, qo'l-oyoqlarini eshkak o'rnida ishlatib, tal-pina-talpina girdob komidan chiqdi. Bir payt shunday yonginasida cho'kayotgan Humoyunni ko'rди. Humoyun qo'l-oyoqlarimi kerib yuqoriga bor kuchi bilan talpindi-da, boshini bir lahma yuzaga chiqardi. Yutoqib nafas olarkan:

– Kim bor? Qutqaring! – deyishga ulgurdi-yu, yana loyqa girdoblar orasiga cho'ka boshladи.

Nizom unimg ehindan g'arq bo'layotganiga endi ishondi va beixtiyor meshni unga yaqin olib bordi. Humoyun yana bir talpinib suv yuziga chiqqanda, Nizom uni yelkasidan tutib oldi-da, mesh ustiga ikki qo'llab tortib chiqardi.

### Tayanch tushunchalar

Latifa – nasriy janrning eng kichik janrlaridan biri.

Hikoyada g'oyaviy mazmunni aniqlash va ifodali o'qish.

Ertak. Ertakda g'oyaviy mazmun.

Qissa. Qissada tempni aniqlash.

Roman. Romanda mavzu va g'oya.

### Savol va topshiriqlar

1. Lirik turdag'i asarlar bilan nasriy asarlarni o'qishda qanday o'ziga xosliklar mayjud?
2. Latifalarni o'qiganda har bir so'zga alohida e'tibor qaratish kerak, deganda nimalar nazarda tutiladi?
3. Ertakdag'i saj' usulida yaratilgan an'anaviy boshlamalarni o'qishning o'ziga xosligi nimada?
4. "Ota nasihat" ertagida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
5. Husayn Voiz Koshifiyning qissa aytish va qissa eshitish haqidagi fikrlarini izohlang.
6. "Birinchi muallim" qissasining g'oyaviy mazmuni nimadan iborat?

7. Romanlarni ifodali o'qishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
8. Romandagi dramatik lavhalar qanday o'qiladi?
9. Romandagi muallif nutqi bilan romanda ishtirok etayotgan personajlar nutqi orasida qanday farqlar mavjud?
10. Romanni ifodali o'qishda uning asosiy mavzusini va g'oyalarini aniqlashning qanday ahamiyati bor?
11. Romandagi monologik va dialogik nutqlarmi o'qishning o'ziga xos jihatlari nimada?

### **Adabiyotlar**

1. Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Komilov tarjimasi). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
2. O stile oratorskoy rechi. – Moskva: Politizdat. 1959.
3. Inomxo'jayev S., Zunnunov A. Ifodali o'qish asoslari. – Toshkent: O'qituvchi. 1978.
4. Kaykovus. Qobusnama. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. III to'm. – Toshkent: Fan, 1982.
6. Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimas). – Toshkent: Yangi asr avlodni, 2007.

### **AMALIY MASHG'ULOTLARDA O'QISH UCHUN SHE'RLAR DORILFUNUNGA**

Yana yigirmaga – yigit yoshimga  
Uzoq yillar o'tib qaytgan bu kunim,  
Ta'zim qilib keldim sening qoshingga  
Azizim, munisim, dorilfununim.

Nedirsan? Otisga undagan sado,  
Yo olls yillardan chorlagan unim.  
Seni sog'inaman va tirikman to  
Senga intilaman, dorilfununim.

Bolangman, bor hali o'zingga hamdam  
Sho'xlik, erkaligim, andek jununim.  
Kim bo'lsam, ne bo'lsam va qayda bo'lsam,  
Sen meni tergab tur, dorilfununim.

Hayot beshafqatdir, yashash murakkab,  
Yozolmay goh dilga cho'kkak tugunim,  
Iltijo qilarman, bedor yurakka  
Qudrat ber, yoshligim – dorilfununim.

Hali bu olamga savolim ko'pdırı,  
Xayolim qushida yo'q lahza qo'nım.  
Yana shamchig'oring kerak bo'libdir,  
Yo'limni yoritgin, dorilfununim.

She'ru ishq, baxt, quvonch – dunyo biri kam,  
Faqt e'tiqodim – tanho butunim.  
Qalbim tubidagi eng yorug' nuqtam –  
Senga talpinaman, dorilfununim.

Ezgulik sog'inchi o'rtab ko'nglimni,  
Bosh urib qoshingga kelgan bu kunim –  
Sidqimni qabul et, tark etma meni,  
Azizim, munisim, dorilfununim.

(Erkin Vohidov)

### ALISHER NAVOIY

Men ushoq bir zotman tarix oldida,  
Sira mangulikni qilmasman da'vo.  
Axir, mangulik, bu – millat qalbida  
Yashamoqdir dunyo turgunicha to.

Bor ekan toki zulm, toki qabohat,  
Inson yuragini tark etmagay she'r.  
Asrlar qa'ridan sog'u salomat  
Siz chiqib kelasiz, ustoz Alisher!

Jahon shoirlari tursa gar qator,  
Ularga siz mudom sardorsiz, boshsiz.  
Bu kun yuragimda g'ururim bisyor,  
O'zhek manglayiga bitgan quyoshsiz!

Qalblar nurga to'lsin – shu buyuk matlab,  
Yuksalar ulug'dan ulguni olgan...  
To mahshar ehtirom topsa, ne ajab,  
Bitta baytingizning mag'zin chaqolgan!

Nafsdan chayqalganda zamom – to'rt taraf,  
Sizni jallb etoldi na toju na taxt.  
Sizga muxlislikning o'zi bir taraf,  
Sizni anglamoqning o'zi ham bir baxt!

\* \* \*

Birin-ketin o'tib borar asrlarning karvonlari,  
Oh, nechog'lik xatarlidir uning oshar dovonlari.  
Inson zoti murodiga azal abad yetar edi,  
Ushalsa gar umidvor zot – Navoiyning armonlari!  
Fursat keldi, do'stu g'anim kimligini bilay bu kun,  
Jami bashar farzandiga saodatlar tilay bu kun,  
Ko'kka boqib sahar chog'i, iltijolar qilay bu kun,  
Nurga to'lsin aziz bobom Alisherning makonlari.

## NAVRO'Z

Avval yuragingga mo'ralaydi u,  
So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.  
Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,  
Demak, Bahor keldi, kelmoqda Navro'z.

Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,  
Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.

Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,  
Demak, Bahor keldi, kelmoqda Navro'z.

Ona bag'ri kabi iliqliqdir olam,  
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.  
Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,  
Demak, Bahor keldi, kelmoqda Navro'z.

Yana ko'ngillardan rutubat ketdi,  
Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.  
Yana dildorlikning fursati yetdi,  
Demak, Bahor keldi, kelmoqda Navro'z.

### O'ZBEKMAN

Yangi bir asrning ostonasi bu,  
Yetishdim umrimming qutlug' yoshiga.  
Tilimda shukrona, dilimda g'ulu,  
Tarix sarkotibin keldim qoshiga:

Mana, men – O'zbekman, qo'limda tug'im  
Va barcha a'molim bitilgan kitob.  
Shuning ichidadir borim va yo'g'im,  
Shuning ichidadir men uchun oftob.

O'zbekman, inshoolloh, iymonim butun,  
Tilim qisiq emas bashariyatdan.  
Kimgadir tengdirman, kimdandir ustun,  
Zuvalam qorilgan samimiyatdan.

O'zbekman, gohida iqbolim kulib,  
Gohida o'zimdan chiqqan ofatim.  
Dunyoni olsam-da, jahongir bo'lib,  
Go'dak yig'isiga yo'qdir toqatim.

O'zhekman, qanchalik jafo chekmayin,  
O'zimga haq bo'ldim, o'zimga haqman.  
Yashadim yovlarga bo'yin egmayin,  
Bu kun o'z erkiga erishgan xalqman.

Istiqlol, ketma yurt peshonasidan,  
Tole, tark etmagin bizni, ilohim.  
Mana, yangi asr ostonasidan  
O'tdim. Bismillohir rahmonir rohiym.

(Ahdulla Oripov)

\*\*\*

Go'daklikdan ma'lum har odam,  
Bola boshdan degan gap to'g'ri.  
Mabodo men shoir bo'lmasam,  
Bo'lar edim bezori, o'g'ri.

Jikkakkina shum bola edim,  
Tengdoshlarim ichra qahramon.  
Qaytar edim ko'chadan doim  
Burnim pachoq usti boshim qon.

Qo'rqib qotgan onam qoshida  
Derdim tutib o'zimnn mahkam:  
«Hechqisi yo'q. Qoqildim toshga.  
Ertagacha qolmas o'rni ham».

Yillar o'tdi, ketdi bolalik,  
Nihoya yo'q armonlarimga.  
Yoshlikdag'i sho'xlik, olovlik  
Ko'chdi she'ru dostonlarimga.

Bolaligim ketdi borini  
Satrlarda qoldirib butun.  
She'rlarimda shum bezorining  
Xislatlari aks etar bu kun.

Mag'rurligim hamon qolmagan,  
Hamon baland o'tli ko'kragim.  
Bolalikda burnim qonagan,  
Bugun esa qondir yuragim.

Mendan kulgan to'da qoshida  
Deyman tutib o'zimni mahkam:  
«Hechqisi yo'q! Qoqildim toshga,  
Ertagacha qolmas o'rni ham».

\* \* \*

Endi qaytmam uyimga,  
Men elkezar devona.  
Ko'z tikibdir yo'limga  
Ko'm-ko'k o'tloq yagona.

Unda meni sog'ingan  
Faqatgina qichitqon,  
Boshi quyi solingen  
Chuchmomai nafarmon.

Oy tepamda, yuksakdir,  
Shapka otsam yetmaydi.  
Qo'shiq, asli yurakdir,  
Tug'iladi – yitmaydi.

Uyga umr so'nggida  
Biz qaytamiz turfahol.  
Vujud titroq qo'ynida,  
Yarim murda, yarim shol.

Sening uchun, ey odam,  
Ko'hna maqol aytadi.  
«O'lar chog'i itlar ham  
O'z uyiga qaytadi».

(Sergey Yesenin)

## GUL

Qurigan, hidi yo‘q, unutilgan gul,  
Kitobni ocharkan ko‘rib qoldim men.  
G‘alati xayolga to‘ldi-da ko‘ngil,  
Parishon termulib, turib qoldim men:

Qayerda va qachon, qaysi bahorda  
Gullagan? Uzoqmi? Kim uzdi ekan?  
Yot qo‘lmi, tanishmi uzgan nahorda?  
Ne uchun bu yerga qo‘yildi ekan?

Nozik bir visolming esdaligimi,  
Yoki shum ayriliq – firoq yodgori?  
Yoki tinch sahroda, o‘rmon soyasida  
Yolg‘iz sayr, tomosha xotiralari?

Tirikmikan yigit, tirikmikan qiz?  
Shu paytda ularning qayda go‘shasi?  
Yoki shu qurigan – so‘lg‘in, belgisiz  
Gul kabi so‘ldimi har ikkalasi?

## BOQCHASAROY FONTANIGA

Ishq fontani, ey o‘lmas fontan,  
Senga ikki qizil gul – sovg‘am!  
Shildirashing yoqimli chunon,  
Shoirona ko‘z yoshiaring ham.

Sachrar menga kumush to‘zoning,  
Esar salqin shabnam nafasi,  
Tinmayin oq, yupanch chashmasi!  
Shildir-shildir so‘yla dostoning...

Ishq fontani, qayg'uli fontan,  
Marmaringdan ayladim so'roq.  
Men eshitdim yiroq elga shon;  
Mariyadan aytmading biroq...

Unut bo'lding nahotki mangu  
Sen, ey so'lg'in haram yulduzi?  
Yo Mariya, Zaremabonusu,  
Nahot, shirin xayolning o'zi?

Yoki bari shirin bir uyqu,  
Bu qorong'i xilvatda xayol,  
Yo bir damlik timsolmidi u,  
Yo qalbdagi majhul ideal?

(Pushkin)

\* \* \*

Men jahondin kechtimu kechmas mening jonimdin el,  
Men ilik jondin yu(v)dim, chekmas ilik qonimdin el.

To'sh-to'shumdin, baski, rasvolig' o'ti lov-lov yonar,  
Har taraf yo'ldin chiqorlar o'tsalar yoniindin el.

Tonimaslar bir-birin yoqqon mazallat gardidim,  
So'rg'ali holim kirib chiqquncha vayronimdin el.

Istarain, ey Xizr, kelgaymen qilib jon birla tavf,  
Ka'bai ko'yin xabar topquncha borg'onimdin el.

Ey Navoiy, qilmag'aylar ayb agar devonamen,  
Ul pari vasfin o'qug'on soyi devonimdin el.

\* \* \*

Bog' mendek sorg'orib, bulbul meningdek bo'ldi lol,  
Go'yo mundoq bo'lur bir guldin ayrilg'ong'a hol.

Yerdagı yafrog‘ g‘aribu xoksor ar bo‘lmasa,  
Men kibi ne vajdindur yuzi sorig‘, ashki ol.

Suvg‘akim tushmush qizorg‘on barglar ko‘rgan kishi  
Ko‘z yoshim ichra bag‘ir pargolasi aylar xayol.

Shoxi Majnundurki, uryon bo‘lubon afg‘on qilur,  
Bargi Laylidurki, nilu igna birla qozdi xol.

Hajr aro ohimg‘a boqmay bordi, lekin shukr erur,  
Kim xazonda sarvg‘a oseb yetkurmas shamol.

Bu sorig‘ ruxsor uza har sori ashkim o‘shxashur,  
Bir xazonlig‘ bog‘ ichinda har taraf ravshan zilol.

Vasl angla ishq bog‘inimg bahordin nishon,  
Hajr bilgil gar tilar bo‘lsang xazonidin misol.

Bu chaman ra’nolari sarkashlik etgandin ne sud,  
Kim xazon torojidin emim emastur bir nihol.

Ey Navoiy, bu xazon o‘lg‘ay, bahor ila badal,  
Kelsa davlat gulbuni shahzodai sohib jamol.

\* \* \*

Furqatimgdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,  
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.

Dur tishingdin donai sabrim qolur bebarg, desam,  
Kulib ayturkim, ekinning ofatidur jolalar.

Tola-tola nay o‘qung ko‘ksimda go‘yo sindikim,  
Tevrulubdur notavon ko‘nglumda bir-bir tolalar.

Fitnalik to‘qquz falak girdingda, jono turfadur,  
Kim ko‘rubdur bir quyosh davrinda mundoq xolalar.

Bordilar ahbобу мен yig‘lармен о‘з holima,  
Karvondin qолg‘он it yanglig‘ки qилg‘ай nolalar.

Ko‘hi g‘am bo‘ldи, Navoiy, lolalar gulgun sirishk,  
Tog‘ agar budur, bale ashk o‘lg‘usidur lolalar.

\* \* \*

Parim bo‘lsa uchib qochsam ulustin to qanotim bor,  
Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor.

Chiqib bu dayrdin Isog‘a nevchun hamnafas bo‘lg‘ay,  
Bihamduлloh, tajariud birla himmatdin qanotim bor.

Xaloyiq suhbatidin, ming g‘amim bordurki, muft o‘lg‘ay,  
Agar ming jon berib bilsamki, bir g‘amdin najotim bor.

Chekib ag‘yordin yuz javru tortib yordin ming g‘am,  
Ne o‘zga xalqdin g‘ayrat, ne o‘zumdin uyotim bor.

Chekib ko‘zdin yozay bir xatki, dahr ahlig‘а ko‘z solmay,  
Bu damkim ko‘z savodidin qaro ko‘zdin davotim bor.

Tilar ko‘nglim qushin anqodin o‘tsa nori yuz vodiy,  
Muningdek sayr etarg‘а Qofdin ortiq sabotim bor.

Navoiy, bilki shah ko‘ngli manga qayd o‘lmasa billah,  
Agar kavnayng‘а xoshok chog‘lig‘ iltifotim bor.

## ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. – Toshkent: 1997.
2. Abdurauf Fitrat. Aruz haqida. –Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
3. Abu Ali ibn Sino. She‘r san’ati (Abdusodiq Irisov tarjiması). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1980.
4. Abu Nasr Forobi. Risolalar. –Toshkent: 1975.
5. Abu Rayhon Berumy. Tanlangan asarlar. III to‘m. – Toshkent: Fan, 1982.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.
7. Alisher Navoiy. O‘n besh to‘mlik. O‘n ikkinchi to‘m. // Majolis un-nafois. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966.
8. Anvar Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. – Toshkent: O‘qituvchi. 1995.
9. Aristotel. O stile oratorskoy rechi. – Moskva: Politizdat, 1959.
10. Inomxo‘jayev S., Zunnunov A. Ifodali o‘qish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
11. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
12. Nizomiddin Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
13. Oripov Q., Obidova M. Ifodali o‘qish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
14. Ravshanbek Mahmudov. Degonimni ulusqa marg‘ub et... – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

15. Rustamov A. Aruz haqida suhbat. –Toshkent: Fan, 1972.
16. Rustamov A. So‘z haqida so‘z. –Toshkent: 1987.
17. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
18. Hasanboy Jamolxonov. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
19. Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Komilov tarjimasi). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
20. Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjiması). – Toshkent: Yangi asr avlodı, 2007.

## TEST SAVOLLARI

1. Ifodali o'qish san'atining shakllanishida muhim rol o'ynagan asosiy omilni aniqlang.
  - A) Yozma adabiyotning paydo bo'lishi
  - B) Adabiy tilning rivojlanishi
  - V) Xalq og'zaki ijodi (Roviyalar va baxshilar faoliyati)
  - G) Logograflar faoliyati
  - D) Qissaxonlikning rivojlanishi
2. Inson kamolotida ifodali o'qishning qanday ahamiyati bor?
  - A) Axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalaydi
  - B) Tafakkurni kengaytiradi
  - V) So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatadi
  - G) A, B, V javoblar
  - D) Go'zailikka oshno qiladi
3. O'tmishda ilmi tajvid fani nimami o'rgatgan?
  - A) Suxandonlik ilmini
  - B) Adabiy bahs va munozara madaniyatini
  - V) Adabiy talaffuz qoidalarini
  - G) To'g'ri va chiroyli so'zlashni
  - D) Ifodali o'qishni
4. Ifodali o'qish san'ati taraqqiyotida muhim o'rın tutgan asarni belgilang.
  - A) "Dinkard"
  - B) "Behistun" yodgorligi
  - V) "Avesto"
  - G) "Qutadg'u bilig"
  - D) O'rxun-Enasoy yodgorligi

5. Ifodali o‘qish, notiqlik san’ati asoslarini yaratgan allomalar qaysi javobda nisbatan to‘liq berilgan?

- A) Demosfen, Riyoziy
- B) Mark Antoniy, Isokrat
- V) Gomer, Esxil
- G) Husayn Voiz Koshifiy, Forobiy, Aristotel
- D) Mark Tulliy Sitseron

6. Logograflar kimlar?

- A) Ifodali o‘qish san’atini puxta egallagan kishilar
- B) Xalq oldiga chiqib so‘zlovchilarga tayyor nutq matnlarini yozib beruvchi kishilar
- V) Nutq so‘zlovchilar
- G) Advokatlar
- D) Faylasuflar

7. “Ilmi balog‘a” arab nutqining ziynatidir”. Ushbu fikrning mualifini aniqlang.

- A) Forobiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- V) Xorazmiy
- G) Zamaxshariy
- D) Mahmud Koshg‘ariy

8. “Ritorika” asari fanning qaysi sohasi haqida ma’lumot beradi?

- A) Adabiy tilni o‘rganish haqida
- B) Notiqlik san’ati haqida
- V) She’riyat haqida
- G) Ritorlar yoki to‘g‘ri so‘zlashni o‘rgatuvchilar haqida
- D) Adabiy tur va janrlar haqida

9. Demosfenni nima uchun “Oltin gulchambar” ordeniga tavsiya qilishdi?

- A) Notiqlik nazariyasini yaratgani uchun
- B) Eng yetuk notiq bo‘lgani uchun
- V) Siyosiy nutqlari uchun

- G) Filippga qarshi kurashgani uchun  
D) Otashin vatanparvar sifatidagi siyosiy nutqlari uchun

10. Mark Tulliy Sitseron antik davr notiqlari orasida kimni eng yuskak o‘ringa qo‘yadi?

- A) Isokratni  
B) Platonni  
V) Mark Antoniyni  
G) Demosfenni  
D) Aristotelni

11. “Ritorika” asari muallifi kim, u nechta qismdan iborat?

- A) Sitseron, 3 ta qism  
B) Isokrat, 4 ta qism  
V) Brut, 2 ta qism  
G) Platon, 5 ta qism  
D) Aristotel, 3 ta qism

12. “Ritorika” asari muallifi “Agar notiq auditoriyada zerikish ruhini sezsa nima qilishi kerak”, deydi.

- A) Nutqni to‘xtatishi  
B) Lirik chekinish qllib eshituvchilarda xushnudlik kayfiyatini uyg‘otishi  
V) Hissiyot bilan so‘zlashi  
G) B, V javohlar  
D) Latifa aytishi

13. “Notiq”, “Notiqlar haqida”, “Brut” asarlarining muallifini aniqlang.

- A) Demosfen  
B) Sitseron  
V) Lisiy  
G) Plutarx  
D) Aristotel

14. Ifodali o‘qish tarixida muhim rol o‘ynagan kishilar kimlar edi?  
A) Kohinlar, shamanlar

- B) Kohinlar, roviylar, qissaxonlar
- G) Qiziqchilar, xalq teatri, askiyachilar
- D) Ertakchilar

15. "... va'z aytib minbarda o'z ash'orin o'qub, yig'lab vajdu hol qilur erdi" deydi Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida. Bu fikrlar kim haqida?

- A) Mavlono Lutfiy haqida
- B) Mavlono Riyoziy haqida
- V) Husayn Voiz Koshifiy haqida
- G) Hazrati Jomiy haqida
- D) Mulla Kalon Voiz Samarqandiy haqida

16. Husayn Voiz Koshifiyning elga mashhur bo'lishi sabablari ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Ovozining yoqimliligi, pokdomonligi
- B) Ovozining yoqimliligi, hikoyat va rivoyatlarni ko'p bilishi
- V) Qur'on va hadislarni yoddan bilishi, so'z va amal birligiga rioya qilishi
- G) B, V javoblar
- D) Xalq dildagini topib gapirishi

17. "... oz fan bo'lg'aykim, anga daxli bo'lmag'ay, xususan, va'z, insho, ilmi nujum aming haqqidur". Alisher Navoiyning bu fikrlari kimga tegishli?

- A) Hazrati Jomiyga
- B) Pahlavon Muhammadga
- V) Mulla Kalon Voiz Samarqandiyga
- G) Mavlono Irshodga
- D) Qozi O'shiyga

18. Aruz vazniming asoschisi Xalil ibn Ahmad haqida ma'lumot berilgan asarni aniqlang.

- A) "Mezon ul-avzon"
- B) "Majolis un-nafois"
- V) "Nasoim ul-muhabbat"

- G) "Bahoriston"  
D) "Tarixi anbiyo va hukamo"
19. "Ritorika" asarida notiq nutqiga qanday talablar qo'yilgan?  
A) Nutq matnini sodda, ravon va qiziqarli qilib yozish  
B) Nutq matnini chuqur o'rganish, to'g'ri rejalashtirish  
V) Nutq matnini har tomonlama kashf qilish  
G) Nutq matnini yodlab olish  
D) Nutq matnini puxta o'rganish, fikr-mulohazalarini to'g'ri re-jalashtirish, so'zlarini to'g'ri talaffuz qilish
20. "... qisqa va ma'noli gapirsin, betgachoparlik qilmasin, baqrib gapirmasın, pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin, odamlar gapini bo'lib so'z qotmasin". Bu fikrlar muallifi kim?  
A) Xoja Muayyad Mehnagi  
B) Demosfen  
V) Platon  
G) Koshifiy  
D) Aristotel
21. "Suxandonlik bila baland martabali bo'immoqlik zikrida". Ushbu jumlalar qaysi asardan olingan?  
A) "Ritorika"  
B) "Notiqqlik haqida"  
V) "Poetika"  
G) "Dah majlis"  
D) "Qobusnama"
22. Husayn Voiz Koshifiy asarlarini aniqlang.  
A) "Abvob ul-jinon", "Tafsiri Husayniy"  
B) "Xotamnama", "Anis ul-voizin"  
V) "Ravzat ul-voizin", "Lubbi lubob"  
G) "Axloqi Muhbsiniy", "Javohir ut-tafsir"  
D) "Hidoyat ul-taqvim", "Koshifiya"

23. O'kush so'zlamma, so'z biror so'zla oz,  
Tuman so'z tuguni bu bir so'zla yoz.  
Ushbu hikmatomuz so'zlar mualifini aniqlang.  
 A) Ahmad Yugnakiy  
 B) Ahmad Yassaviy  
 V) Alisher Navoiy  
 G) Yusuf Xos Hojib  
 D) Kaykovus

24. "Kimki jo'n narsalar haqida, oddiygina, kundalik voqealar haqidagi o'ria darajada, ulug' hodisa ar haqida esa, zavq-shavq bilan gapisashu odam so'z san'atining chinakam ustasidir". Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?

- A) "Ritorika"  
 B) "Notiq"  
 V) "Bruf"  
 G) "So'z haqida so'z"  
 D) "Notiqlik haqida"

25. "... so'z shunday mo'jizaki, so'z orqali odamlarni birlashtirish, so'z bilan ularni yuz ko'rnas qilib yuborish, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish mumkin". Bu fikrlarni kim ayigan?

- A) Alisher Navoiy  
 B) Lev Tolstoy  
 V) Pushkin  
 G) Sifseron  
 D) Kaykovus

26. Ifodali o'qish vositalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
 A) Sintagma, pauza, turoq  
 B) Vazn, rukn, hijo  
 V) Urg'u, pauza, intonatsiya  
 G) Intonatsiya, imola  
 D) Bo'g'in, emfatik urg'u

27. "Amalda qo'llanmadimi, har qanday va'z ham behuda va quruq bo'ladi-qo'yadi". Bu fikr kimga tegishli?  
 A) Demosfen  
 B) Mavlono Ryoziy  
 V) Isokrat  
 G) Aristotel  
 D) Koshify
28. "... so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishga, ma'noni to'g'ri va to'la anglashga yordam beradi". Nuqtalar o'midagi so'zni aniqlang.  
 A) Pauza  
 B) Urg'u  
 V) Intonatsiya  
 G) Temp  
 D) Ritm
29. Og'zaki nutqning ritmik-melodik tomoni, undagi ovoz toylanishlari ... deyildi. Nuqtalar o'midagi so'zni aniqlang.  
 A) Intonatsiya  
 B) Urg'u  
 V) Pauza  
 G) Nafas  
 D) Temp
30. Tinglochining e'tiborini gap bo'laklardan biriga alohida jahqilib qo'llanadigan urg'u tuni qanday nomlanadi?  
 A) Emfatik urg'u  
 B) Logik urg'u  
 V) Tonik (musiqiy) urg'u  
 G) Leksik urg'u  
 D) Dinamik urg'u
31. Siz gulsiz! "Gulsiz" so'zida urg'u qaysi bo'g'inga tushgan?  
 A) Birinchchi bo'g'inga  
 B) "Gulsiz" so'zi alohida ta'kidlab aytilgan.  
 V) Ikkinchi bo'g'inga

- G) Bu o'rinda emfatik urg'u qo'llanadi  
D) A va G javoblar
32. Gap bo'taklaridan birini alohida ta'kidlash uchun yoki so'zlovchining his-hayajoni, voqelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'u turi ...  
A) emfatik urg'u deyiladi  
B) ayiruv urg'usi deyiladi  
V) erkin urg'u deyiladi  
G) kvantitativ urg'u deyiladi  
D) tonik urg'u deyiladi

36. Chuqur emotsional, vaqt birligi jihatidan katta bo'lgan pauza qanday nomlanadi?

- A) Grammatik pauza  
B) Psixologik pauza  
V) Mantiqiy pauza  
G) Emotsional pauza  
D) Logik pauza

37. "Notiqlikda birinchgi, ikkinchi va hatto uchinchi ish ham talafuzdir, to'g'ri talaffuzsiz suxandonlik yo'q". Ushbu fikr muallifini aniqlang.

- A) Sisseron  
B) Isokrat  
V) Aristotel  
G) Demosfen  
D) Forobiy

33. Urg'uli va urg'usiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning qo'llanishiда vazndoshlik, ohangdoshlikning mayjud bo'lishi ....  
A) nutq tempi deyiladi  
B) intonatsiya deyiladi  
V) nutq melodikasi deyiladi  
G) nutq tembri deyiladi  
D) nutq ritmi deyiladi
34. Quyidagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri?  
A) Agarda ega logik urg'u olsa, uning talaffuzidagi temp kuchayadi  
B) Agarda ega logik urg'u olsa, uning talaffuzidagi temp pasayadi  
V) Agar ega logik urg'u olmasa, uning talaffuzidagi temp kuchayadi  
G) B va V javoblar  
D) Javoblarning hammasi to'g'ri

35. Ayo do'stim, bir so'zim bor, anglab ol,  
Men gapiray zehningni qo'y quoq sol.  
Ushbu she'riy parchada nechta o'rinda grammatic pauza qillinadi?  
A) To'rtta o'rinda  
B) Ikkita o'rinda  
V) Uchta o'rinda  
G) Beshta o'rinda  
D) Oltita o'rinda

36. Chuqur emotsional, vaqt birligi jihatidan katta bo'lgan pauza qanday nomlanadi?  
A) Grammatik pauza  
B) Psixologik pauza  
V) Mantiqiy pauza  
G) Emotsional pauza  
D) Logik pauza
37. "Notiqlikda birinchgi, ikkinchi va hatto uchinchi ish ham talafuzdir, to'g'ri talaffuzsiz suxandonlik yo'q". Ushbu fikr muallifini aniqlang.
- A) Sisseron  
B) Isokrat  
V) Aristotel  
G) Demosfen  
D) Forobiy
38. Quyidagi qoidalardan qaysi biri to'g'ri?  
A) Nutq davomidagi to'xtamlar turoq deyiladi  
B) Nutq davomidagi to'xtamlar ruhn deyiladi  
V) Nutq davomidagi to'xtamlar intonatsiya deyiladi  
G) Nutq davomidagi to'xtamlar pauza deyiladi  
D) Nutq davomidagi to'xtamlar sintagma deyiladi
39. O'riada talashur kechmish va bugun,  
Tuproq sochar, ingrav, qo'llig'i da tig'.  
Axir haqiqat bor, valyvala nechun?  
Buncha osmon yiroq, burcha yer qattiq!?  
Ushbu she'riy o'qiganda nechta o'rinda pauza qo'llanadi?  
A) Besh o'rinda  
B) To'rt o'rinda  
V) Olti o'rinda  
G) Yetti o'rinda  
D) To'qqiz o'rinda

40. Ifodaviylikning asosiy vositasi bo'lib, inson hissiyoti va holtining rang-barang tovlanishlarini aks ettilishsga xizmat qiladi. Ushbu ta'rif nima haqida?

- A) Talafuz haqida
- B) Intonatsiya haqida
- C) Emfatik urg'u haqida
- D) Ritm haqida
- E) Temp
- F) Intonatsiya
- G) Ovoz
- H) Pauza
- I) Ritm

41. "... chiroyli ovoz va dilkash ohangda va'z va nashihatlar bilan shug'ullanardi". Ushbu fikr muallifi kim? U qaysi voiz haqida so'z yurigan?

- A) Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy haqida
- B) Ibn Sino, Aristotel haqida
- C) Forobiy, Aristotel haqida
- D) Sitserton, Demosten haqida
- E) Xondamir, Husayn Voiz Koshifiy haqida

42. Intonatsiyani yuzaga keltiruvchi vositalarni aniqlang.

- A) Inversiya, takror, ritorik murojaat
- B) Vazn, bo'g'in, turoq
- C) Pauza, muallif nutqi
- D) Ritorik so'roq, sintagma
- E) Ritm
- F) Intonatsiya
- G) B va V javoblar
- H) Temp
- I) Ritm
- J) Ritmli nasr namunalarini belgilang.
- K) "Gul vodisi", "Mahbub ul-qulub"
- L) "Bolgar qo'shiqlari", "Oq kema"
- M) "Iqrornoma", "Muhabbat qo'shig'i"
- N) "Begona", "Al-Kimyogar"
- O) V va D javoblar
- P) Ifodali o'qishda qahramonlar holatiga kirishda ikki narsa juda muhimdir. Bu nima deb o'ylaysiz?
- Q) Harakat va yuz ifodasi
- R) Psixologik pauza va ritm
- S) Intonatsiya va temp
- T) Ovoz va yuz ifodasi
- U) Temp va ritm
- V) "Eng ajib fikr ham agar yomon ifodalansa, o'z qimmaini yo'qotadi, agar takrorlanaversa, odamni diqqinatas qiladi". Ushbu fikr kimga tegishli?
- W) Volter
- X) Forobiy
- Y) Beruniy
- Z) Sitserton
- A) Aristotel

43. Sitserton "Nutqqa go'zalilik bag'ishlaydigan ikicita vosita bor" deganida nimnalarni nazarda tutgan?

- A) So'z va ritnni
- B) Turoq va pauzan
- C) Bo'g'in va temppni
- D) Temp va ritnni
- E) Ritmli nasr namunalarini belgilang.
- F) Ifodali o'qishda qahramonlar holatiga kirishda ikki narsa juda muhimdir. Bu nima deb o'ylaysiz?
- G) "Gul vodisi", "Mahbub ul-qulub"
- H) "Bolgar qo'shiqlari", "Oq kema"
- I) "Iqrornoma", "Muhabbat qo'shig'i"
- J) "Begona", "Al-Kimyogar"
- K) Harakat va yuz ifodasi
- L) Psixologik pauza va ritm
- M) Intonatsiya va temp
- N) Ovoz va yuz ifodasi
- O) Temp va ritm
- P) "Eng ajib fikr ham agar yomon ifodalansa, o'z qimmaini yo'qotadi, agar takrorlanaversa, odamni diqqinatas qiladi". Ushbu fikr kimga tegishli?
- Q) Volter
- R) Forobiy
- S) Beruniy
- T) Sitserton
- U) Aristotel
- V) Nutqning qanday chiqishi, ya'ni eshituvchilar tomonidan yaxshi yoki yomon qabul qilinishi, birinchı navbatda, kimga yoki nimaga bog'liq?
- W) She'r musiqiyligi va ohangdorligini ta'minlovchi, lirik qahramonning his-tuyg'ularini badiiy ifodalashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan birligida...
- X) Badiiy asarga
- Y) She'r mazmuniga
- Z) Ijrochiga

- G) Muallifga  
D) Eshituvchilarga
49. She'r – hayajonli, to'lqinli va ehtirosli nutq bo'lsa, nasr qanday nutq?  
A) Shiddatli nutq  
B) Hayajonli nutq  
V) Murakkab nutq  
G) Nisbatan tinch-osoyishta nutq  
D) O'zgaruvchan nutq
50. Aruz vaznining asosini nima tashkil etadi?  
A) Hijolarning sifati  
B) Bo'g'inlarning xilma-xilligi  
V) Ruknlar  
G) Hijolar  
D) Baytlar

## MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
Ifodali o'qish sanining maqsad va vazifalari .....	5
O'rta Osiyoda notiqlik san'ati.....	10
Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va ijodi.....	18
Qadim Yunonistonda notiqlik san'ati.....	25
Ifodali o'qishda nafas, ovoz va talaffuzning o'mni .....	38
Ifodali o'qish vositalari .....	51
Intonatsiya, temp va ritm - ifodali o'qishning asosiy vositalari sifatida.....	66
Ifodali o'qishda yuz ifodasi va harakat .....	82
Lirik turdag'i asarlarni ifodali o'qish .....	91
Nasriy asarlarni ifodali o'qish.....	127
Amaliy mashg'ulotlarda o'qish uchun she'rlar .....	143
Test savollari .....	155

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Предисловие .....	3
Цел и задачи выразительного чтения.....	5
История ораторское искусство в Центральной Азии .....	10
Жизнь и деятельность Хусейна Ваиза Кошифий.....	18
Ораторское искусство в древней Греции .....	25
Место дыхание, голоса и произношения в процессе выразительного чтения....	38
Средства выразительного чтения .....	51
Иントонация, темп, ритм-как основные части выразительного чтения .....	66
Участие лицевой мускулатуры в процессе выразительного чтения .....	82
Выразительное чтение лирических произведений.....	91
Выразительное чтение прозаических произведений.....	127
Примерные стихотворения в практических занятиях .....	143
Тесты .....	155

## CONTENTS

Preface.....	3
Aims and functions of significant reading .....	5
Oratory in Central Asia .....	10
Husein Vaiz Koishify's life and works .....	18
Oratory in ancient Greece .....	25
The importance of breath, voice and pronunciation in significant reading.....	38
Means of significant reading .....	51
Intonation, pace and rythm - as means of significant reading .....	66
Face expression and action in significant reading.....	82
Reading poetry .....	91
Reading prose .....	127
Poems for reading in practical trainings .....	143
Test.....	155



## **81.2 M34**

Masharipova, Ziyoda.

Ifodali o'qish praktikumi: Bakalavriatning «O'qitu-vchilar tayyorlash va pedagogika fani» bilim sohasi talabalari uchun darslik / Z. Masharipova; mas'ul muharrir H. Homidiy ; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika un-ti. -Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. - 168 b.

**ББК 81.2-5**

**ZIYODA MASHARIPOVA**

### **IFODALI O'QISH PRAKTIKUMI**

Muharrir: Shukur Qurbon

Texnik muharrir: Dilmurod Jalilov

Rassom: Shuxrat Odilov

Bosishga ruxsat etildi 07.01.2011. Qog'oz bichimi 60x84 1/<sub>16</sub>.

Offset bosma. Offset qog'izi. Hisob-nashriyot t. 10,5.

Shartli bosma t. 12. Buyurtma № 27 Адади 500 нусхада.

Келишилган нарҳда.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston  
Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent shahri,  
Istiqlol ko'chasi 33.

MCHJ «SHIDASP» matbaa korxonasida chop etildi.  
Toshkent, Shayxontohur tumabi, Sobir Rahimov ko'chasi 70 b.